

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

**Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti
«O‘zbek tilshunosligi» kafedrası**

Qo‘lyozma xuquqida

UDK 851 730 (092)

BOYMURATOVA XOSIYAT ATABAEVNA

“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDA ATOQLI OTLAR TIZIMI

A 220212 - Lingvistika(o‘zbek tili)

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
f.f.n., dotsent. Primov A. I.**

Urganch

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB: “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARI VA UNDAGI ATOQLI OTLAR TIZIMINI O‘RGANISH.....	9
1.1. “Firdavs ul-iqbol” asari va uning o‘rganilishi masalalari.....	10
1.2. “Firdavs ul-iqbol”da atoqli otlar va ularni tasniflash, tavsiflash masalasi.....	17
I bob bo‘yicha xulosa.....	27
II BOB: “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDAGI ATOQLI OTLARNING TURLARI.....	28
2.1. Antroponimlar.....	28
2.2. Toponimlar.....	35
2.3. Hidronimlar.....	47
2.4. Etnonimlar.....	51
II bob bo‘yicha xulosa.....	62
III BOB: “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDAGI ATOQLI OTLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI.....	64
3.1. Bir va ko‘p morfemali atoqli otlar.....	64
3.2. Tub va yasama strukturali atoqli otlarning tarkibiy tahlili.....	70
III bob bo‘yicha xulosa.....	80
Xulosa.....	81
Adabiyotlar ro‘yxati.....	84

KIRISH

Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgach, tarixiy-madaniy boyliklarimiz xalqqa taqdim qilindi, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur", "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qonunlarini hayotga tatbiq qilinishi o'zbek tili va xorijiy tillarga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ldi. Shu ma'noda qadimiy qo'lyozma manbalarni o'rganish va ularni tadqiq qilish muhim vazifalardan sanaladi. Bu borada mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi: "Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damlarda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish"¹.

Mavzuning dolzarbligi.

Shermuhhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiyarning "Firdavs ul-iqbol" asari yuqorida ta'kidlangan ma'naviy xazinaning o'ziga xos gavhari hisoblanadi. Asardagi umumbashariy g'oyalar hozirgi avlod tarbiyasida, ma'naviy qarashlarning shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, asarni filologik nuqtayi nazardan o'rganish o'zbek tilshunosligini yangi ilmiy ma'lumot va natijalar bilan boyitadi. Shu nuqtayi nazardan olib qarasak, mazkur mavzuning tadqiq qilinishi nihoyatda dolzarb ekanligi oydinlashadi.

Asarni joriy imloda nashr qilinganligi va asarda katta hajmdagi atoqli otlarni aniqlanganligi ushbu ilmiy tadqiqotni amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusi Urganch Davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida tomonidan tavsiya etildi. Mavzu "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida ma'qullanib, UrDU rektorining 2012 yil ... fevral buyrug'i bilan tasdiqlandi.

¹Karimov I. A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi I-sessiyasida so'zlangan nutq. 1990 yil, 24-mart.

Mavzu bo'yicha ishlar 2011-2013 yillarda "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida olib borildi. Ishning borishi "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida bir necha marta muhokama obyekti bo'ldi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.

"Firdavs ul-iqbol" chet el olimlari tomonidan turli munosabat bilan o'rganilgan. Jumladan, A. N. Samoylovich qoraqalpoqlar tarixini, P. P. Ivanov turkmanlarning va qoraqalpoqlarning tarixini, N. Mingulov qozoqlar tarixini² yoritish maqsadida asardan rus tilida parchalar e'lon qilganlar. V. V. Bartold asarning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlagan, ammo nashr qilishga ulgurmagan³. Tarixchi olim T. Sultanov esa tarixiy kitoblarning yozilish tartibi, undagi nasr va nazm mutanosibligi, qimmatini haqida to'xtalar ekan, "Firdavs ul-iqbol" - faktlarning haqqoniyligi va tasvirlash mahoratining yuksakligi bilan ajralib turishini alohida ta'kidlagan⁴.

Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol" asari haqida chet el olimlari N. N. Muravyev, A. Vamberi, A. I. Budagov, N. I. Veselovskiy, S. P. Tolstov, K. Jitov, o'zbek olimlaridan Y. G'ulomov, M. Yo'ldoshev va Q. Munirov kabi ko'pgina sharqshunos va tarixchilar asarlarida qimmatli fikrlar bor⁵.

Muhammadrizo Ogahiyning tarixiy asarlari borasida birmuncha tadqiqotlar olib borilgan. Q. Sultonova Ogahiyning "Gulshani davlat" asarini adabiy manba sifatida tadqiq qilgan⁶. "Shohid ul-iqbol" asari tadqiqi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan N.Shodmonov shu asarning ilmiy-tanqidiy matnini Rossiya FA Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutida № C-572⁷ inventar raqami bilan saqlanayotgan yagona

² «Material po istorii karakalpakov». Sbornik. M.—L., 1935, str. 91—127; P. P. Ivanov. Xivinskie xroniki XIX v. Munisa-Agexi kak istochnik po istorii turkmen. MITT, II, str. 23—25; P. P. Ivanov. Ocherk istorii karakalpakov. V kn.: «Material po istorii karakalpakov», str. 323—426. Material po istorii Kazaxskix xanstv. XV-XVIII vv, str. 435-475.

³ SbP filial arxiva RAN. Fond 68, opis 1. Ed. x. №179. 302 ll.

⁴ Sultanov T.I. Zerkalo minuvshix stoletiy (Istoricheskaya kniga v kulture Sredney Azii XV-XIX vv) Sankt-Peterburg 2005.

⁵ Ahmedov T. Munis. Fan., Toshkent, 1980. 3-bet.

⁶ Sultonova Q. Ogahiyning "Gulshani davlat" asari adabiy manba sifatida: filol. fan. nomzodi ... diss-ya. — Toshkent: O'zR FA TAI, 2000. — 138 b.; Sultonova Q. "Gulshani davlat" asarida saj' // Xorazm Ma'mun akademiyasining axborotnomasi. — Xiva, 2010. — №3, 4. — B. 41-50.

⁷ Ogahiy asarlarining tavsifi. Katalog // Tuzuvchi: F.G'anixo'jaev. — T.: O'zRFA QI, 1986. — B. 31.

nusxadagi manbaning fotokopiyasi asosida nashrga tayyorladi⁸. Shuningdek, A.O‘rozboev “Riyoziy ud-davla” asarida ijtimoiy leksikani maxsus tadqiq qilgan⁹.

Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari tadqiqi S. Dolimov¹⁰, S. Ro‘zimboev, A. Ahmedov¹¹, Z. Do‘simov¹², H. Dadaboyev¹³ ishlarida ham kuzatiladi.

Tadqiqotning maqsadi.

Tadqiqotning maqsadi Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asaridagi atoqli otlarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilishdir. Asardagi atoqli otlarning tarkibini aniqlash va ularni tavsiflash esa tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari.

Yuqoridagi maqsadga erishish uchun dissertatsiya oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- XIX asr yozma yodgorligi bo‘lgan “Firdavs ul-iqbol” asaridagi atoqli otlarning funksional va nominativ tarkibini aniqlash;
- nomlarning lug‘aviy, ma‘naviy va mavzuiy guruhlarini belgilash;
- asardagi nomlarni qanday obyektlarning nomi ekaniga va ma‘nosiga ko‘ra tasniflash;
- nomlarning ma‘nosi va etimologiyasiga oid ma‘lumotlarni ilmiy baholash;
- nomlarning yasalishi va grammatik tuzilishini kuzatish;
- tadqiq qilinayotgan atoqli otlarning hozirgi o‘zbek tili onomastik tizimiga munosabatini belgilash;
- asar tilidagi ismlar, toponim, gidronim va etnonimlarning paydo

⁸ Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Shohid ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi N. Shodmonov. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 335 b.

⁹ O‘rozboev A. Ogahiyning «Riyoziy ud-davla» asarining ijtimoiy-siyosiy leksikasi. Filol. fanlar. nomz. diss. Avtoref. – Toshkent, 2009. – 25 b.

¹⁰ Dolimov S. Ogahiy poeziyasida omonim va sinonim so‘zlar // O‘qituvchilar gazetasi. 1957. – №51.

¹¹ Ro‘zimboev S., Ahmedov A. “Firdavs ul-iqbol”dagi adabiy janrlar haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2009. – №6. – B.19-25.

¹² Do‘simov Z. Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida // Ogahiy abadiyati. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – B. 37-41.

¹³ Dadaboyev H. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami) №3. – Toshkent, 2009. – B. 21-24.

bo‘lishida nolisoniy omillarning o‘rnini aniqlash.

Tadqiqotning nazariy asoslari va tahlil usullari.

Tadqiqotning nazariy asoslarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan ilgari surilgan milliy istiqlool g‘oyasi tashkil qiladi.

Dissertatsiyada hozirgi davr nomshunosligi sohasida erishilgan ilmiy tahlil usullariga tayaniladi. Shuningdek, ishda tadqiq qilinayotgan materialning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘rni bilan tarixiy-qiyosiy, ilmiy-tavsifiy, uslubiy hamda, etimologik tahlil usullari ham qo‘llaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

Dissertatsiya Urganch Davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasining 2013 yil mart oyidagi seminarida, shuningdek kafedraning shu yil 26 martda o‘tkazilgan majlisida muhokama qilindi va mavzu yuzasidan zarur maslahatlar berildi. Tadqiqotning asosiy mazmuni “Firdavs ul-iqbol” asarida ayrim antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari¹⁴, “Firdavs ul-iqbol” asaridagi toponimlarning funksional-nominativ ko‘lamiga ko‘ra turlari¹⁵, “Firdavs ul-iqbol”dagi ayrim etnonimlar haqida¹⁶ maqolalar ko‘rinishida ilmiy to‘plamlarda, shuningdek “O‘zbek tilshunosligi” kafedresi seminar majlislarida(Urganch, 2012-2013) ma’ruza sifatida o‘z aksini topgan.

O‘rganilayotgan mavzu ko‘lamiga ko‘ra, o‘rganish uslubi va o‘rganilayotgan obyektiga ko‘ra bir qancha yangi ilmiy xulosalar, yangi-yangi ma’lumotlar bera oladi.

Tadqiqotda erishilgan ilmiy yangiliklar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- XIX asr yozma yodgorligi “Firdavs ul-iqbol” asaridagi atoqli otlar birinchi marta monografik tarzda tadqiq qilindi;
- asardagi onomastik material keng ko‘lamda o‘rganildi va nomlarning atalish asoslariga ko‘ra turlari muayyan tamoyillar asosida tasniflandi;
- asar tilidagi bir qator nomlarning motivativ asoslari va ular bilan

¹⁴ Boymuratova X. “Firdavs ul-iqbol” asarida ayrim antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari”. Ilm sarchashmalari. 4-son, Urganch, 2012.

¹⁵ Boymuratova X. “Firdavs ul-iqbol” asaridagi toponimlarning funksional-nominativ ko‘lamiga ko‘ra turlari”. Ogahiy olami to‘plami, Urganch, 2013.

¹⁶ Boymuratova X. “Firdavs ul-iqbol” dagi toponimlarning tavsifi xususida”. Filologik tadqiqotlar. Urganch. 2013.

aloqador ma'nolari belgilandi;

- ba'zi nomlarning etimologiyasi va ma'nosiga oid kuzatishlar olib borildi;

- nomlarning yasalishi va grammatik tuzilishi modellari tahlil qilindi;

- “Firdavs ul-iqbol” asari onomastikasining o'zbek tili tarixiy onomastikasi tizimiga munosabati va undagi o'rni belgilandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.

Ushbu tadqiqotning ilmiy qimmati unda “Firdavs ul-iqbol” asari tilidagi atoqli otlar tizimi ilk bor lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinganligi bilan izohlanadi. Mazkur tadqiqotning ilmiy xulosalari va tahlil usullari ana shu turdagi boshqa yozma manbalar onomastikasini o'rganishda qo'l kelishi mumkin. Dissertatsiyaning ilmiy tahlillari, faktik materiallaridan o'zbek tarixiy onomastikasiga oid ta'limiy qo'llanmalar yaratishda, atoqli otlarning izohli, etimologik, imloviy lug'atlarini tuzishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ushbu dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv yurtlarida “o'zbek nomshunosligi”, “o'zbek tarixiy onomastikasi” mavzusida maxsus kurslar o'qishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning obyekti va manbalari.

Munis va Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol” asarida uchraydigan atoqli otlar, ya'ni antroponimlar (ismlar, laqablar, patronomik nomlar), toponimlar, oronimlar, gidronimlar, etnonimlar, ularning lisoniy va nolisoniy xususiyatlari ushbu ishning asosiy tadqiq obyekti. Dissertatsiyaning asosiy manbasini Sh.Vohidov, I. Bekchon, N. Polvonovlar nashrga tayyorlagan “Firdavs ul-iqbol”/Baxtu saodat jannati/ (Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010) va N. Jumaxo'ja, S. Ro'zimboev va A. Ahmedovlar nashrga tayyorlagan “Firdavs ul-iqbol”/baxtlar bog'i/ (Toshkent, “O'qituvchi”, 2010) kitoblarining nashri tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va umumiy hajmi.

Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Birinchi bob “Firdavs ul-iqbol” asarida onomastik qatlam”

deb nomlanadi. U ikkita bo‘limdan tarkib topadi. Ikkinchi bob “Firdavs ul-iqbol” asarida atoqli otlarning turlari” deb nomlanadi. Bu bob to‘rtta bo‘limdan iborat. Uchinchi bob “Firdavs ul-iqbol” asaridagi atoqli otlarning grammatik tuzilishi va yasalishi” deb nomlanib u ikkita bo‘limdan tashkil topgan.

Dissertatsiyaning umumiy hajmi 90 sahifani tashkil qiladi. Shuningdek, ishga “Firdavs ul-iqbol” asarida uchraydigan atoqli otlarning jadvalli alifbo tartibidagi ko‘rsatkichi ilova qilinadi.

I BOB: “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARI VA UNDAGI ATOQLI OTLAR TIZIMINI O‘RGANISH

Istiqlol sharofati bilan tarixiy nomlar yana o‘zligimizga qaytdi. Shunday bo‘lsa-da, asardagi ayrim atoqli otlar hali chuqur izlanishlarni talab qiladi. Yurtboshimiz ta’kidi bilan aytganda, ayni vaqtda muhim bir masalaga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o‘zini, eng avvalo, O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir hudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg‘ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. Tabiiyki, bu holat har birimiz mansub bo‘lgan “mo‘jaz vatan”ning, tug‘ilib o‘sgan shahar yoki qishloqning qadri va ahamiyatini kamaytirmaydi¹⁷. Bu fikrlar tarixiy asarlardagi nomlarni tadqiq qilish va zarur bo‘lsa ayrimlarini qayta tiklash vazifasini belgilaydi. Bu o‘rinda Shermuhmmad Munis va Muhammadrizo Ogahiyar tomonidan yaratilgan “Firdavs ul-iqbol” asarining o‘ziga xos o‘rni bor.

“Firdavs ul-iqbol” asaridagi tarixiy nomlar – antroponim va toponimlar bugungi kunga qadar tadqiq qilinmagan. Shu o‘rinda o‘zbek nomshunoslarining quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish joizdir: “...o‘zbek tilidagi tarixiy nomlarning materiallari shu kunga qadar deyarli tadqiq qilingan emas. Bu fikr o‘zbek tilidagi tarixiy joy nomlariga, shaxs atoqli otlari va nomlarning boshqa xil tiplariga to‘lig‘icha tegishlidir. Natijada o‘zbek tili tarixida mavjud bo‘lgan va ko‘plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo‘lishi, yasalishi va shakllanishi, ma’no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa xil lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma’rifiy tomonlari fan uchun qorong‘iligicha qolmoqda”¹⁸.

Mazkur mulohazalar “Firdavs ul-iqbol” asarining onomastikasiga ham tegishlidir.

¹⁷ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008, 90-bet.

¹⁸ Begmatov E., Husanov N., Yoqubov Sh., Boqiev B. O‘zbek tarixiy nomshunosligining dolzarb muammolari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1992, 5,6-sonlar, 21-bet.

1.1. “Firdavs ul-iqbol” asari va uning o‘rganilishi masalalari

Ma’lumki, o‘zbek xalqi uzoq davrlarga borib taqaladigan o‘zining boy tarixiga egadir. Tarixiy o‘tmishsiz kelajak bo‘lmaydi.

Xorazm zaminida azaldan o‘tmish voqealarini mangulikka daxldor qilib, darj qilib borish an’ana tusini olgan. Abulg‘ozi Bahodirxon boshlab bergan Xorazm muarrixlik maktabi keyinchalik Munis, Ogahiy va Bayoniylar tomonidan yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Bu maktab vakillari tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarning voqealar ko‘lami, manbalarning ishonarliligi va ko‘pligi jihatidan boshqa xonlik tarixnavislik maktablaridan ustun turishini mashhur rus olimi V. V. Bartold haqli tarzda e’tirof qilib o‘tgan¹⁹.

Yurtimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘zbek xalqining tarixi, jumladan, Xorazm tarixiga oid bo‘lgan tarixiy, ilmiy manbalarni o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Shermuhammad Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan “Firdavs ul-iqbol” asari eng qadimgi davrdan boshlab 1825-yilgacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi.

“Firdavs ul-iqbol” chet el olimlari tomonidan turli munosabat bilan o‘rganilgan. Jumladan, asarning A. N. Samoylovich qoraqalpoqlar, P. P. Ivanov turkmanlar va qoraqalpoqlar, N. Mingulov qozoqlar tarixiga oid qismlarini rus tiliga tarjima qilganlar²⁰. V. V. Bartoldga ko‘ra, A. D. Kalmikov o‘zining “Xiva” asarida “Firdavs ul-iqbol” kitobidan qilingan ba’zi tarjimalarni keltirgan²¹.

B. V. Lunin o‘zining bir maqolasida “Firdavs ul-iqbol va uning o‘rganilishiga to‘xtalib o‘tadi”²². Shuningdek, Turkiy qo‘lyozmalarining katalogida “Firdavs ul-iqbol”ning tavfsifi berilgan²³.

Munis va Ogahiy haqida dunyo jamoatchiligiga dastlabki ma’lumotni

¹⁹ Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana // Sochineniya. – T. II. – Moskva, 1963. – 1020 s.

²⁰ Materiali po istorii karakalpakov. Sbornik. M.-L., 1935. s.91-127; Ivanov ЗюЗю Xivinskiye xroniki XIX v. Munisa-Agexi kak istochnik po istorii turkmen. MITT. II. S. 323-426; Materiali po istorii Kazaxskix xanstv. XV-XVIII vv. S. 435-475.

²¹ Bartold V.V. Cochineniya. IX tom. M., 1977. S. 444.

²² Lunin B.V. Proshloe I nastoyashee Xorezma v nauke. Istoriya Xorezma. Tashkent, 1976. S. 6-8.

²³ Dmitrieva L.V. Katalog tyurkskix rukopisey. Moskva, 2002.

G. Vamberi beradi. U o'zining Xivaga qilgan sayohati davomida Munis va Ogahiy larni ko'rganligini, jumladan Munis she'rlaridan ayrimlarini nemis tiliga tarjima qilish niyati borligini aytib o'tadi²⁴. Lekin, G. Vamberi "Firdavs ul-iqbol" bilan tanish bo'lmagan²⁵. Y. Bregelning ta'kidlashicha, G. Vamberi Munisni ko'rgan emas²⁶.

Xivaga qilingan harbiy harakatlarda qatnashgan sharqshunos olim A. Kunn Xiva xoni kutubxonasida saqlangan qo'lyozmalarni, jumladan, "Firdavs ul-iqbol" asarini ham Peterburgga olib ketilishida qatnashgan. A. Kunn asar haqida "Tashkentskie vedomosti" gazetasida ma'lumot beradi²⁷. U Xiva xonligidan olib ketilgan qo'lyozmalarni Sankt-Peterburg Osiyo Muzeyiga topshiradi. Bu qo'lyozmalar haqida nemis olimi C. Saleman ham ma'lumot bergan²⁸. Shundan so'ng asar va asarning qimmati haqida pastor Amirxanyans 18 betdan iborat taqriz yozgan²⁹. 1933 yili turk olimlari Nesip Azim va Abdulqodir Inan qo'lyozmaning Istanbuldagi nusxasi asosida asardan parchalar e'lon qilganlar³⁰. Akademik V.V. Bartold 1910 yilda qo'lyozmaning umumiy tavsifini berib, uning topilishi va o'rganilishi tarixini yoritadi³¹. 1914 yili sug'orilish tarixi haqida to'xtalar ekan, yana Munis va Ogahiy nomlarini tilga oladi³². U 1920 yilda Osiyo muzeyida "Firdavs ul-iqbol"ning yagona to'liq nusxasi mavjudligini ta'kidlaydi³³. 1927 yili V.V. Bartold o'zining "Kulturnoe jizn Turkestana" nomli maqolasida Munis va Ogahiyning bu asariga yuksak baho beradi³⁴. Sharqshunos olim 1929 yili "Firdavs ul-iqbol" asaridan XVII-XIX asr turkmanlar tarixiga doir ma'lumotlarni topib bayon qiladi³⁵. Shu yili olim Xorazm tarixi bo'yicha Berlindan topilgan yana bir qo'lyozma haqida

²⁴ Vamberi G. Puteshestvie po sredney Azii. London, 1864. S. 347.

²⁵ Xolliyeva G. "Firdavs ul-iqbol"ning xorijda o'rganilishi. O'TA. 2008. 2-son, 42-43 betlar.

²⁶ Firdavs al-iqbal. History of Khorezm, edited by Yuri Bregel. Leyden New York. 1988. P. 37.

²⁷ Kunn A. Zametki o Xivinskoy xanstve. S. 158.

²⁸ Saleman C. Das Asiatische Museum. St. Petersburg, 1894. P. 274-280.

²⁹ Firdavs al-iqbal. P. 38.

³⁰ Firdavs al-iqbal. P. 41.

³¹ Bartold V.V. Sochineniya. II tom. M., 1964. S. 400-413.

³² Bartold V.V. Sochineniya. III tom. M., 1965. S. 114-415.

³³ Bartold V.V. Sochineniya. VIII tom. M., 1973. S. 364.

³⁴ Bartold V.V. Sochineniya. II tom. M., 1964. S. 286.

³⁵ Bartold V.V. Ocherk istorii turkmenskogo naroda. II tom. Moskva. 1929. S. 612-613.

yozar ekan, uni “Firdavs ul-iqbol” bilan qiyoslaydi³⁶. V.V. Bartold 1915 yili “Firdavs ul-iqbol” noyob asar ekanligini va uni tez orada nashr qilinishini yozadi³⁷. U o‘zining eng so‘nggi maqolasida qo‘lyozmaning hajman katta ekanligi uchun yaqin kelajakda nashr qilinmasligini ma’lum qiladi³⁸.

“Firdavs ul-iqbol” asarining ilmiy-tanqidiy nashri 1988-yili Indiana universitetining professori Yuriy Bregel tomonidan Amerikada amalga oshirildi³⁹. Olim ilmiy-tanqidiy matnning kirish qismida asarning o‘rganilish tarixi, ahamiyati, Xorazm adabiyoti va adabiy muhiti, geografiyasi, etnik qatlami va boshqalar haqida ingliz tilida atroflicha ma’lumot bergan. Kitob oxirida esa bir qancha ilovalar berilgan:

1. Kishi nomlari ko‘rsatkichi.
2. Geografik nomlar ko‘rsatkichi.
3. Qabila-urug‘, ya’ni etnik nomlar.
4. Bibliografik ko‘rsatkich. Bundan tashqari, izohlar ham berilgan⁴⁰.

Xiva xoni saroyidagi 300 ta noyob qo‘lyozma musodara qilinib, Sankt-Peterburgga olib ketilganidan keyin⁴¹ manbani chet el sharqshunosligida o‘rganish imkoniyati yana-da kengayadi. Y. Bregel nashrni aynan Sankt-Peterburg nusxalari asosida amalga oshiradi.

Bugungi kunda fanga “Firdavs ul-iqbol” asarining 9 ta nusxasi ma’lum. Bulardan 2 tasi Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limi qo‘lyozmalar fondida, 5 tasi O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida, 1 tasi Helsinki, yana biri Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda. Istanbul va 2 ta Toshkent nusxasidan tashqari, 6 tasiga L. V. Dmitriyeva kitobida tavsif berilgan⁴².

Tarixchi olim Q. Munirov ham ulardan ayrimlariga tavsif bergan⁴³.

³⁶ Bartold V.V. Noviy istochnik po istorii Xorezma. VIII tom. Moskva . 1929. S 566-577.

³⁷ Bartold V.V. Sochineniya. II tom. M., 1964. S. 421.

³⁸ Bartold V.V. Sochineniya. VIII tom. M., 1973. S. 577.

³⁹ Firdavs ul-iqbal History of Khorezm Edited by Yuri Bregel. Leiden New York, 1988.

⁴⁰ Firdavs ul-iqbal History of Khorezm Edited by Yuri Bregel. Leiden New York, 1988. 1-58.

⁴¹ Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. Toshkent, 1991. 181-bet.

⁴² Dmitriyeva L.V., Muginov A. M., Muratov S.N. Opisanie tyurkskix rukopisey institute narodov Azii. Moskva., 1965. S.106-117.

⁴³ Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. Toshkent, 2002. 36-37-betlar.

1. Rossiya FA sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi qo'lyozmalar fondida C-571 raqami ostida saqlanmoqda. Bu qo'lyozma 613 varaqdan iborat. Y. Bregel kuzatishlari asosida uning asl nusxa ekanligi isbotlangan.

2. Yana shu kutubxonada E-6 raqamli 263 varaqdan iborat nusxa ham bor. Q. Munirov ham 263 varaq deb ko'rsatgan⁴⁴. Uning tavsifiga qaraganda Y. Bregel qo'lyozmaga to'liqroq tavsif bergan. Yani, xorijlik olim umumiy tafsilotlardan tashqari, yana qo'lyozma tarkibi haqida ham ma'lumot bergan. Q. Munirov har ikkala nushaning bir oz joylari nam tufayli zararlanganligini aytib o'tadi. Y. Bregel esa nam bo'lish sababini ham yozgan. "Polvon Mirzaboshi (Komil Xorazmiy)ning ma'lumot berishicha, A.Kunn qo'lyozmalarni daryodan olib o'tayotganida ularga zarar etadi"⁴⁵.

3. O'zR FA ning Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute qo'lyozmalar fondida № 821 raqam ostida saqlanmoqda. Qo'lyozma 259 varaqdan iborat. Y. Bregel tavsifida umumiy tafsilotdan tashqari, asar tarkibida Ogahiy qalamiga mansub "Riyoziy ud-davla" va "Zubdat ul-tavorix" qo'lyozmasi ham borligi aytilgan.

4. Shu fondga № 5364 raqam ostida 244 varaqdan iborat "Firdavs ul-iqbol" asarining yana bir qo'lyozma nusxasi saqlanmoqda. Q. Munirov tavsifida o'lyozma 245 varaq deb ko'rsatilgan va asar tarkibi yoritilmagan. Y. Bregel bu nusxa xuddi yuqoridagiga o'xshashligini qayd qiladi. Q. Munirov Toshkent nusxalaridan № 821 va 5364 nusxalariga tavsif bergan. Y. Bregel har beshalasiga ham tavsif beradi.

5. Yana shu fondga № 5071 raqamli nusxa 321 varaqdan iborat. Ko'chirilgan yili noma'lum. Y. Bregel taxminiga ko'ra XX asr boshida ko'chirilgan.

6. O'zR FA Qo'lyozmalar institute (sobiq) fondi № 275 raqam ostidagi qo'lyozma nusxa 299 varaqdan iborat. Tarkibida "Zubdat ul-tavorix" asari ham bor.

⁴⁴ Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. Toshkent, 2002. 36-37-betlar.

⁴⁵ Firdavs ul-iqbal History of Khorezm Edited by Yuri Bregel. Leiden New York, 1988. 54-bet.

7. Yana shu fond. № 1495 raqam ostida. 157 varaqdan iborat. Yu. Bregel bu o'rinda 6-7 nusxa haqidagi axborotni Indiana universiteti professori Devin Devis orqali olganligini va undan cheksiz minnatdor ekanligini aytib o'tadi(43-bet).

8. Istanbul universiteti kutubxonasida № 82 raqam ostidagi qo'lyozma 525 varaqdan iborat. Bu nusxa asarning birinchi qismida hamda "Riyoziy ud-davla" va "Zubdat ut-tavorix" asarlaridan tashkil topadi.

9. Helsinki universiteti kutubxonasidagi № 46 raqam ostida saqlanayotgan nusxa. Y. Bregel bu qo'lyozma haqidagi to'liq ma'lumotni fin olimi X. Xalen yozib qoldirganligini ta'kidlab o'tadi(45-bet). X. Xalen kitobining muqaddimasi M. Bekchurin tomonidan ruscha yozilgan, qolgan qismi nemis tilida yozilgan. Bu manba faqat "Firdavs ul-iqbol"dan iborat.

Demak, "Firdavs ul-iqbol" qo'lyozmasining asl nusxasi C-575 raqam ostida saqlanadigan Sankt-Peterburg nusxasi bo'lib, qolgan nusxalar 1851-1904 yillar davomida turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan. Y. Bregel ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlashda Toshkent nusxalaridan foydalanmagan. Uning ta'kidlashicha, nashrni amalga oshirish uchun asl nusxaning o'zigina yetarli bo'lgan(45-bet). Ilk bor C-575 raqamli Sankt-Peterburg qo'lyozmasini avtograf, yani asl nusxa ekanligi haqidagi fikrni aytgan olim Osiyo muzeyida mavjud qo'lyozmalar tavsigini tuzishda qatnashgan A. M. Muginov bo'lgan. U matndagi tahrirlar va qo'shimchalarga qarab shunday xulosaga kelgan⁴⁶. Ammo, Y. Bregel asl nusxani aniqlash jarayonida umumiy sharh yetarli emasligini, muammo chuqurroq izlanishni taqozo qilishi va "Firdavs ul -iqbol" qo'lyozmasi ana shunday tahlilga arziqli noyob qo'lyozma ekanligini alohida ta'kidlaydi(45-bet). Shu jihatni hisobga olib, Y. Bregel matnda qilingan o'zgarishlarni va qo'shimchalarni birma-bir izohlaydi(46-bet) va dastxat Munis va Ogahiyga tegishli ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, Munis yozgan bu qism hali qoralama holatda bo'lganligini, keyinchalik u boshqa qog'ozga ko'chirib ulgurmaganligini, shu sababli ham bu dastxat huddi bir xil yozuvdek taassurot

⁴⁶ Dmitriyeva L.V., Muginov A. M., Muratov S.N. Opisanie tyurkskix rukopisey institute narodov Azii. Moskva., 1965. S.51.

qoldirishini aytib o'tadi.

Q. Munirov ham "Tekshirib ko'rilganda bu nusxa bir necha kishi tomonidan ko'chirilganga o'xshaydi. Chunki, u har xil xat bilan yozilgan", - deya nusxaning asl bo'lishi mumkinligi fikrini chetlab o'tadi⁴⁷.

Y. Bregel beshinchi bob yozila boshlagan qog'oz sifati oldingi to'rtta bob yoritilgan qog'oz sifatiga o'xshamasligini ham aytib o'tadi(47-bet). Kirishning dastlabki qismida olim asarning 5/1 qismi Ogahiyga tegishli ekanligini yozib qoldirgan edi.bu o'rinda yana-da aniqroq ma'lumot beradi. Ya'ni uning aniqlashicha, 248-betda Munis dastxati tamom bo'lib, 249-betdan Ogahiy dastxati boshlanadi(47-bet). Y. Bregel kuzatishlari natijasiga ko'ra, Ogahiy dastxati Shermuhammad Munis dastxatiga nisbatan tushunarli hamda batartib bitilgan (48-bet). Ogahiy yozgan qismning asl nusxa ekanligini Y. Bregel "Shohidi iqbol" asaridagi dastxat bilan bir xilligidan kelib chiqqan holda isbotlaydi. Ma'lumki mazkur asar yagona nusxada faqat Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi qo'lyozmalar fondida saqlanadi(49-bet).

Demak, shundan ma'lum bo'ladiki, C – 575 raqamli Sankt-Peterburg qo'lyozmasi ikki muallifning ham asl dastxatidan iborat. Munis qadimdan to 1812-yilgacha bo'lgan voqealarni, Ogahiy esa 1813 – 1825 yilgi voqealarni bayon qilgan. Ogahiy nafaqat asarni davom qildirgan, balki tahrir qilib ham chiqqan. Munis yozgan ayrim o'rinlarga o'zgartirishlar ham kiritgan. Y. Bregel yana ushbu tahririy jumlar dastxati Ogahiy yozgan qismdagi dastxat bilan bir xilligini inobatga olib, shu xulosaga kelganligini ta'kidlaydi (49-bet).

E-6 qo'lyozma nusxasi xon saroyi uchun maxsus ko'chirilgan. Dastxat juda yaxshi va batartib ifodalangan (50-bet). Turkiy qo'lyozmalar tavsifida bu nusxa xato ravishdaasl nusxa deb yozilgan⁴⁸. E-6 nusxa yozilish uslubi bilan C-571 dan jiddiy farq qiladi. E-6 ni ko'chirgan kotib nomini Y. Bregel ko'rsatmagan, Q. Munirov "mulla Nurniyoz xalifa ibn mulla Muhammad Niyoz

⁴⁷ Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. 36-bet

⁴⁸ Дмитриева Л. В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей института народов Азии. С. 51

xatib”, deb ko‘rsatadi⁴⁹. Y. Bregel har ikkala nusxani qiyosan o‘rganib, farqli va o‘xshash tomonlarini aniqlagan. Uning fikricha, E-6 asl nusxa C-571 dan ko‘chirilgan emas. Ogahiy qo‘lyomaniyana qayta ko‘rib chiqib, o‘zi lozim topgan o‘rinlarni o‘zgartirgan va E-6 nusxa xuddi ana shu nusxadan ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin (52-bet). “O‘zgarishlar faqat uslubda emas, - deydi Y. Bregel, - balki mundarijada, tarixiy voqealar bayonida hajmida, geografik va tarixiy shaxslar nomlarida ham kuzatiladi” (51-bet). Olimning ta’kidlashicha, E-6 nusxada bayon uslubi bir oz o‘zgargan.

Istanbul nusxasi esa xuddi E-6 nusxaga o‘xshaydi. Turk olimi F. Ko‘prulizoda 1878-yilda ko‘chirilgan Istanbul nusxasini xato ravishda asl nusxa deb yozgan.

Xelsinki nusxasi ham E-6 ga o‘xshaydi. Ammo ba’zi o‘rinlarda C-571 nusxaga o‘xshash tomonlari ham yo‘q emas. (53-bet)

Asarni nashrga tayyorlash jarayoni ham oson kechgan emas. Manbaga qiziqish 1972-yil Rossiya FA Sharqshunoslik institutida boshlangan. Keyinchalik ish Isroilda Ierusalim universitetida davom qildirilgan. Boshqa bir majburiyatlar ham borligi yuzasidan ilmiy izlanishlar asta-sekin davom etgan. Olim bir qancha sa’y-harakatlar bilan 1877 – 1878-yilda to‘liq matnini nashrga tayyorlagan.

Eng qiyin joyi shunda edi-ki, ushbu matnni nashr qilishga ko‘nadigan nashriyotni topish bilan bog‘liq bo‘lgan. Nihoyat, 1981-yil Brill nashriyoti bu xayrli ishga rozi bo‘lgan.

Nashr ishining o‘zi texnik qiyinchiliklarga ko‘ra besh yil davom etgan. Bu davr mobaynida Y. Bregel yana bir muhim ishga qo‘l urgan, ya’ni asarning ingliz tiliga tarjimasini amalga oshiradi.

Shunday qilib, 1988-yili arab alifbosidagi ilmiy-tanqidiy matn, 1999-yilda tarjima chop qilinadi. Kirish qismining oxirida Y. Bregel ishni yuzaga kelishida yordam bergan barcha tashkilotlar va ilmiy xodimlarga minnatdorchiligini bildiradi. (Yuriy Bregel. 1981 yil iyun – 1986-yil aprel.)

⁴⁹ Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. 37-бет.

1.2. “Firdavs ul-iqbol”da atoqli otlar va ularni tasniflash, tavsiflash masalasi

Dastlab, onomastika bo'yicha qaysi tilshunoslar ilmiy izlanishlar olib borganligi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak:

Tilshunos olimlar ham toponimika, antroponimika bilan shug'ullanmoqdalar. Bir qancha kishilar toponimlarni lingvistik jihatdan o'rgandilar, chunonchi, Sh. Qodirova Toshkent toponimiyasi, Z.Do'simov Shimoliy Xorazm toponimlari, J. Latipov Marg'ilon toponimiyasi, T. Rahmatov Samarqand toponimiyasi, Y. Xo'jamberdiyev Surxondaryo joy nomlari to'g'risida ilmiy ishlar olib bordilar. Keyingi yillarda muhim toponimik tadqiqotlardan biri S. Gubayevaning “Farg'ona vodiysi toponimiyasida etnonimlar” nomzodlik dissertatsiyasidir(1973). S. Gubayeva Farg'ona vodiysining O'zbekistonga qarashli qismida ham turli qabila-urugv nomlari, jumladan, qirg'iz, qipchoq urug' nomlari bilan atalgan toponimlar ko'p ekanligi isbot qilindi.

Onomastika (yun. onomastike – nomlash, nom qo'yish san'ati) – tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig'indisi. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini *antroponimika* ma'nosida ham qo'llangan. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo'limlardan iborat:

- antroponimika – kishilarning atoqli nomlarini;
- toponimika – geografik ob'ektlarning atoqli nomlarini;
- teonimika – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini;
- zoonimika – hayvonlarga qo'yilgan (shartli) atoqli nomlarni;
- kosmonimika – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarini;

– astronomika – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar)ning nomlarini o'rganadi.

Onomastikaning yuqoridagilardan tashqari yana bir qancha bo'limlari bor. Onomastika atoqli nomlarni realionimlar (avval yoki hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) va mifonimlar (xayoliy-to'qima obyektlarning nomlari)ga bo'ladi.

Atoqli nomlarning lisoniy xususiyatlariga qarab onomastika adabiy va dialektal, odatdagi (amaliy) va poetik, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy turlarga bo'linadi.

Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalardagi atoqli nomlarning paydo bo'lishi, nominatsiya (nomlash) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, nutqda qo'llanishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni (poetik O.) tadqiq etish alohida muammo hisoblanadi. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va b. usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, so'z yasalihi, semantik, etimologik va b. jihatlarini o'rganadi.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi va transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarni aniqlash, «begona» nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi so'zlar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zgartirish masalalari bilan shugullanadi.

Onomastika tarix, etnografiya, arxeologiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi fanlar bilan o'zaro aloqadordir. (*Abduvahob Madvaliyev*)

Nomshunoslikda biron-bir tildagi atoqli otlarning barcha ko'rinishlari majmui **“onomastik ko'lam”** deb yuritiladi⁵⁰. Atoqli ot – biron obyekttni boshqa obyektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi:

⁵⁰ Teoriya i metodika onomasticheskix issledovaniy. – M.: Nauka, 1986. S. 10.

antroponim, toponom... Ma'lum tilning onomastik ko'lam va adadi uning sinxronik, ya'ni zamonaviy holatidan kelib chiqib baholanadi. Har qanday tildagi atoqli otlar tizimini, uning umumiy majmuini uch xil yo'sinda baholash mumkin:

1. Sinxronik – zamonaviy holati asosida;
2. Diaxronik, ya'ni tarixiy holatiga ko'ra;
3. Ham sinxronik, ham diaxronik holatga ko'ra, ya'ni umumiy tarzda olingan holatda.

Onomastik ko'lamni baholashning eng qiyin usuli tarixiy(diaxronik) holatini baholashdir. Bunga sabab o'tmish davr onomastikasining jonli, real holati endilikda unitilgan bo'ladi. Buning ustiga o'tmish davr nomlari, ularning barcha tiplari har qanday yozma manbada ham to'liq aks etmaydi. Shu sababli ham biror til tarixiy onomastikasining ko'lam va holatini baholashning birdan-bir yo'li tarixiy yozma obidalar tilida saqlangan atoqli otlar bo'lib qolmoqda. "Firdavs ul-iqbol" onomastikasining ahamiyatli tomonlaridan biri ham mana shundadir.

Tarixiy asarlar tilidagi atoqli ot guruhiga kiruvchi arab, fors va mo'g'ul o'zlashmalari bo'yicha bir muncha tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin shu paytgacha atoqli ot guruhi arab, fors va mo'g'ul o'zlashmalaridagi semantik (ma'no) hodisalari qisman yoritilib, to'liq ish sifatida amalga oshirilmagan.

O'zlashma nomlar arab tilidagiga nisbatan muayyan o'zgarishlar mazmuniy aspektda ham, shakliy aspektda ham kuzatiladi. Mazmuniy aspekt jihatidan nom o'zlashtiruvchi (turkiy) tilda turli semantik o'zgarishga yuz tutadi. O'zlashma nomlarning semantik tuzilishida o'zgarishlar, asosan, uch xil yo'l bilan boradi:

- 1) o'zlashma nomlar semantik tuzilishidagi kengayish hodisasi;
- 2) o'zlashma nomlar semantik tuzilishining torayishi;
- 3) o'zlashma nomlar semantik tuzilishining uzoqlashuvi va zidlashuvi⁵¹.

O'zlashma nomlarning ma'no tuzilishining kengayishi, odatda, turli yo'l

⁵¹ Rahmonov T.I. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar. Nomz. diss. avtoreferati. T., 1994.

bilan hosil bo'ladi:

- a) o'zlashma nomlar semantik tuzilishining oddiy yo'l bilan kengayishi;
- b) o'zlashma nomlar asosida yangi leksik birliklar yasalishi yo'li bilan kengayishi;
- c) o'zlashma nomlar semantik tuzilishining "nom ko'chish" hisobiga kengayishi.

O'zlashma nomlar lug'aviy tuzilishining oddiy yo'l bilan kengayishi, odatda, o'zlashtirilayotgan nomning arab tilidagi konkretlashgan semasi turkiy tilda yangi semalar hosil qilish bilan yuzaga keladi.

Masalan, *Anna Qurbon bahodir taka*⁵² antroponimi tarkibida kelgan قربان - *Qurbon* ismining semantik tuzilishi kengayishida shunday hodisani kuzatamiz. Bu nom arab tilida bir ma'noli bo'lib, "qurbonlik" ma'nosida, ya'ni, diniy va dunyoviy atama sifatida ishlatiladi, aniqrog'i, قربان - *Qurbon* ismi o'zining semasi bilan o'zlashtirib olingan, keyinchalik, shu sema asosida bir necha semalar vujudga kelgan: *Qurbonniyoz (yasovulboshi)*⁵³, *Qurbongul*, *Qurbondurdi*, *Qurbonnazar*, *Qurbonnazir*, *Qurbonjon* va b.

Qurbonboy antroponimining hozirgi kunda *Quromboy* shakli ham mavjud bo'lib u *Qurbonboy* antroponimining orfoepik jihatdan xato talaffuz qilingan shaklidir.

Semantik o'zlashma nomlarning tuzilishi kengayishining yana bir usuli – bu o'zlashma nom asosida yangi leksik birliklarni hosil qilish hisoblanadi. Bunda o'zlashma nom bilan yangi leksik birlik orasida semantik aloqadorlik saqlanib qoladi .

O'zlashma nomlarning semantik kengayishining yana bir usuli nom ko'chishdir. Nom ko'chish deganda, nomning biron belgi, narsa yoki harakat nomiga aylanishiga tushuniladi.. Nom ko'chishi orqali ma'no kengayishini quyidagi nomlarda kuzatishimiz mumkin: *Polvon*, *G'oziy*, *Vali*, *Shayx*.

Nom ko'chish yo'li bilan nom ko'chishning yana bir usuli metonimiya hisoblanib, bunda narsa, predmet, belgi va harakatlar o'rtasidagi aloqadorlikka

⁵² Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. "Firdavs ul-iqbol". Toshkent, "O'qituvchi", 2010, 468-bet.

⁵³ "Firdavs ul-iqbol". 483-bet.

ko‘ra nom ko‘chadi.

Nom ko‘chishning yana bir usuli sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chish hisoblanadi. Sinekdoxa qismni anglatgan nom bilan butunni anglatadigan nom bilan qismni ifodalashga asoslangan nom ko‘chish hodisasidir. Bu hodisa, asosan, meva, hayvon nomlarini ifodalaydigan nomlarda ko‘proq uchraydi.

So‘z ma‘nosi kengayishining yana bir usuli funksiyadoshlik sanaladi. Bunda ma‘lum bir predmet vazifasini ikkinchi bir predmet bajaradi va avvalgisining nomi qaytariladi.

So‘zlarning ma‘no torayishi ma‘noning kengayishining zid hodisasi bo‘lib, umumiylikni anglatgan so‘zning xususiylikni ifodalashidan kelib chiqadi.

Asar antroponimlarini o‘rganish jarayonida, dastlab, ularni qaysi tilga mansubligiga qarab guruhlab chiqdik:

Arab tiliga oid ismlar: “...malomat g‘amxonasining sadrnishini, nadomat koshonasining uzlatguzuni, ahqarul ibodil malikul vahhob Shermuhammad al mulaqqab bil *Munis* ibn amir Avazbiy Mirob g‘affaral-lohi taolo, sayoti a‘mola va tajovuz a‘ni al sodiroti af‘ola, mundog‘ arz qilurkim, hayot olamining navbahori va umr navbahorining ayyomi xujasta osoridur”.⁵⁴

Asardan olingan ushbu parchada asar mualliflaridan biri Shermuhammad Munis nomi keltirilgan bo‘lib, *Munis* – do‘st, o‘rtoq, sirdosh, sodiq do‘st, degan ma‘nolarni anglatadi.

Haydar(*Haydar podshoh*⁵⁵, *Haydar Sayyid*⁵⁶) – arslon, jasur, dovyurak, qudratli. Bu nom halif Alining laqabi bo‘lgan. Shuningdek, Haydar erkak bolalarda orqaga o‘rib qo‘yiladigan bir tutam soch, u sog‘lik, osoyishtalik ramzi deb hisoblanadi va ulg‘aygach, ma‘lum marosimdan keyin qirqiladi.⁵⁷

*Husayn*⁵⁸ – *Hasan* ismining shakli bo‘lib, yaxshi, mehribon, saxiy, chiroyli, go‘zal ma‘nolarini anglatadi.

⁵⁴ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2010, 9-bet.

⁵⁵ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010192,198,223,224,225,227,325,363,378,384,449,453,421,462,466-betlar.

⁵⁶ “Firdavs ul-iqbol”. 363-bet.

⁵⁷ Begmatov E. O‘zbek ismlari. Toshkent, 2010, 567-bet.

⁵⁸ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010315-bet.

*Qurbonsaid*⁵⁹ – qurbon oyida tug‘ilgan, tolei baland, baxtli bola.

*Fozilbiy*⁶⁰ – bilimdon, dono, donishmand.

*Rajabbiy*⁶¹ – hijriy yil hisobining 7-oyi – rajab oyida tug‘ilgan bola.

“...*Mir Haydar podshoh zu-l-hijja avoxiri (1220-yil 28- zu-l-hijja/ 1806-yil 20-mart) da lashkari sangin tartib berib, Rajab biy inoq va Kayuv xo‘ja boshlig‘ yeti sarkardani Xorazm ustig‘a buyurdi*”. (225-bet)

*Olloshbiy*⁶² – o‘g‘il bergani uchun Allohga shukrona qilamiz.

*Abdulg‘ofurbek*⁶³ – gunohlarni yashirib, jazo bermay turuvchining ya‘ni Allohning quli.

Asar juda ko‘p davrni o‘z ichiga qamrab oladi. Aksariyat nomlarning arab tiliga mansubligini asarni o‘qish jarayonida guvohi bo‘lamiz.

Ism tanlash erkinligining nisbiyligi, ya‘ni nom berish odati mafkuraviy va diniy aqidalar, an‘analar bilan bog‘liqligi arablar Turkistonni istilo etganlardan keyingi davrlarda qo‘yilishi udum bo‘lgan ismlarda yorqin ko‘rinadi. Bu davrga kelib, ism islomning turli-tuman g‘oyalari va aqidalarini ulug‘lovchi so‘z va atamalardan, iboralardan tanlanadigan bo‘ldi.⁶⁴

“Firdavs ul-iqbol” asarida ham Allohning nomi, sifatleri va unga itoatkorlikni ifodalovchi iboralardan yasalgan ismlar: *Abdulla*⁶⁵, *Abduqodir*⁶⁶; payg‘ambar va xalifalar, shuningdek, aziz avliyo va avliyozodalarning ism va laqablari: *Muhammad*⁶⁷, *Alisher*⁶⁸, *Usmon*⁶⁹, *Umar*⁷⁰, *Yoqub*⁷¹; zamirida diniy tushunchalar g‘oya va aqidalarni anglatuvchi so‘zlar yotgan nomlar asosiy o‘rin tutadi.

⁵⁹ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010, 62-bet.

⁶⁰ O‘sha manba. 124,155, 161, 190, 212, 360, 440-betlar.

⁶¹ O‘sha manba. 225,460-betlar.

⁶² O‘sha manba. 391, 427-betlar.

⁶³ O‘sha manba. 440-bet.

⁶⁴ Begmatov E. O‘zbek ismlari. Toshkent, 2010, 596-bet

⁶⁵ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010, 363-bet.

⁶⁶ O‘sha manba. 106,127-betlar

⁶⁷ O‘sha manba. 9-bet.

⁶⁸ O‘sha manba. 170,260-betlar

⁶⁹ O‘sha manba. 88-bet,73-bet.

⁷⁰ O‘sha manba. 102-bet.

⁷¹ O‘sha manba. 102-bet.

Abdullo – Allohning quli, bandasi.⁷²

*Eroniy guruh tillariga oid antroponimlar quyidagilar: Jamshid*⁷³ – ulug‘, ulkan, muazzam. “Shohnoma” asaridagi afsonaviy podshohning nomi.⁷⁴ *Qalandar*⁷⁵ – darvesh, tarkidunyochi, darbadar kezuvchi.

*Turkiy tillarga oid antroponimlar: Suyunbiy*⁷⁶ – quvonch, shodlik boisi bo‘lgan o‘g‘il yoki quvonib doim suyunib yursin; *O‘taqul*⁷⁷ – “o‘ta”, “o‘tab” so‘zlari bilan boshlangan qo‘shma ismlar; *Qoraxon*⁷⁸ – ulug‘, qudratli xon.

O‘zbekxon ibn To‘g‘rulxon ibn Mangu Temurxon amakidin so‘ng o‘n uch yoshida ayolat masnadida mutamakkin bo‘lub, obo va ajdodining dasturida mulkni zabt qildi va har kimning martabasig‘a ko‘ra xizmat qildi.⁷⁹

*Temurxon*⁸⁰ – temirdek mustahkam, mahkam, ya‘ni balo-qazolarga bardoshli, umri uzoq bola.⁸¹

*Chingizxon*⁸² (59, 65, 70, 71, 72, 73, 77, 89, 95, 114, 115, 116, 122, 197, 233, 244, 318, 394-betlar) – ushbu antroponim mo‘g‘ul tiliga oid bo‘lib, buyuk, qudratli xon ma‘nolarini beradi. Mashhur jahongir Chingizxon (1227 yilda vafot etgan) nomiga nisbat berilgan ism.

*Yahudiy tiliga tegishli bo‘lgan antroponimlar: Ya‘qub*⁸³ bek – o‘kcha, tovon, izidan boruvchi, ergashuvchi ma‘nolariga ega.

Bibliyadagi afsonaga ko‘ra, egizak bola tug‘ilgan bo‘lib, ikkinchisi, birinchi akasidan qolib ketmasligi uchun uning tovonidan ushlab yurgan ekan. Bu nom payg‘ambarlardan biri ismi(Yakov)ning arabcha shaklidir. U *Yusuf*⁸⁴ ning otasi hisoblangan.

⁷² Begmatov E. O‘zbek ismlari. Toshkent, 2010, 14-bet.

⁷³ “Firdavs ul-iqbol”. 17,57, 60, 92, 183, 240, 328, 467-betlar

⁷⁴ Begmatov E. O‘zbek ismlari. Toshkent, 2010, 133-bet.

⁷⁵ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2010, 31-bet.

⁷⁶ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010, 286, 353, 369, 400-betlar.

⁷⁷ “Firdavs ul-iqbol”.40-bet

⁷⁸ “Firdavs ul-iqbol”.467-bet

⁷⁹ “Firdavs ul-iqbol”. 41-bet.

⁸⁰ “Firdavs ul-iqbol”.67-bet.

⁸¹ Begmatov E. O‘zbek ismlari. Toshkent, 2010, 409-bet.

⁸² Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010, 59-bet.

⁸³ “Firdavs ul-iqbol”. 80, 94, 382-betlar.

⁸⁴ “Firdavs ul-iqbol”. 122-bet.

Asarda qo'shma ismlarni ham uchratish mumkin. Qo'shma ismlarni tashkil qiluvchi qismlar etimologik jihatdan boshqa-boshqa manbaga mansub bo'ladi.

Arab+o'zbek tillariga mansub antroponimlar: *Sattorberdi*⁸⁵ – Alloh bergan bola, Allohning tuhfası; *Nazarbek*⁸⁶ – beklar naslidan bo'lgan Alloh nazar qilgan bola.

Eroniy+o'zbek tillariga oid shaxs ismlari: *Do'simbiy*⁸⁷ – “Do'st ” so'zi bilan boshlangan ba'zi ismlar; *Annaquli*⁸⁸ – Allohning juma kuni tavalud topgan bandasi.

“Firdavs ul-iqbol” asarida uchraydigan barcha antroponimlar ma'lum bir tilga mansub emasligini yuqorida ta'kidlab o'tgandik. Chunki X asrlarda arab tili bilan birga, islom dinining ta'siri kuchli bo'lgan. Bu masala maxsus va chuqur izlanishlar olib borishni talab qiladi.

Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asarida ham eroniy lug'aviy qatlamga mansub bo'lgan *sar* komponentli o'zlashma so'zlar doirasidagi bir necha nom uchraydi. O'zbek tilida polisemiya masalasini tadqiq qilgan T. Aliqulov *bosh* so'zining turli ma'no qirralarini tahlil qiladi⁸⁹. Bu masala B. Jo'raev tomonidan ham atroflicha o'rganilgan bo'lib, unda “bosh” so'zining 19 xil ma'nosi tahlil etilgan⁹⁰. O'zbekcha *bosh* so'zidagi ko'plab ko'chma ma'nolar forscha *sar* so'zida ham ko'rinadi⁹¹. A. O'rozboyev Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llangan *sar* komponentli so'zlarni maxsus tadqiq qilgan⁹².

Bugungi o'zbek adabiy tilida *sar* komponentli antroponimlar anchani tashkil qiladi. Jumladan, *Sardor*⁹³ سردار antroponimi *sar* va *-dor* qismlaridan iborat. *Dor* komponenti qadimgi fors tiliga taalluqli hisoblanib, hozirda *doshtan*

⁸⁵ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010, 435-bet.

⁸⁶ “Firdavs ul-iqbol”. 203-bet.

⁸⁷ “Firdavs ul-iqbol”. 168, 189, 425-betlar

⁸⁸ “Firdavs ul-iqbol”. 462, 464-betlar.

⁸⁹ Alikulov T. Polisemiya sushestvitelnix v uzbekskom yazike: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. –Tashkent, 1966.

⁹⁰ Jo'raev B. “Bosh” so'zining ma'nolari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1982. – №3. – B. 46-49.

⁹¹ Persidsko-russkiy slovar. Tom 2. – S.26-28.

⁹² A. O'rozboyev.

⁹³ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010

داشتن – *ega bo'Imoq* fe'lining hozirgi zamon negizidir.

Misol: “ Chahorshanba kunikim, mazkur oyning yigirmasi (1232-yil 20-safar/ 1817-yil 9-yanvar) erdi, Sunbor sardorkim, Sultonxon qoshig'a ketib erdi, keldi”. (423-bet)

*Sarvar*⁹⁴ سرباز – yo'lboshchi.

Misol: “ Va Sarvar shoir bu ta'rixni aytib erdi. Ta'rix:

Sarvari dinpanohi oliyqadr.

Eltuzar biy innoq charhi hasham,

Olti o'tmish edi yigirma dagi,

Shahri zi-qa'dadin na beshu na kam (26-zu-l-qa'da)

Topti rif'at amorat avji uza,

Xivaq ichra chu nayyiri a'zam.

Kilki Sarvar bu amr ta'rixin:

“Sarvari ahli Xivaq” etti raqam.

Munis va Ogahiy ba'zi toponimlarni ifodalashda sinonim sifatida ularning arabchasini qo'llaydilar. Bu holni muarrixlar ijodiga xos bo'lgan badiiy bo'yoqdorlikka intilish uslubi bilan izohlash mumkin. Masalan, *yavmutiya*⁹⁵, *o'zbakiya*⁹⁶ joy nomlari arab tili asosida ifodalangan.

Bundan tashqari, Ogahiy o'z ijodiy faoliyati davomida fors-tojik tilidagi beshta tarixiy asarni tarjima qilgan. “Firdavs ul-iqbol”ning uslubida tarjima jaryonida paydo bo'lgan adabiy ta'sir ham o'z aksini topgan bo'lishi shubhasizdir. Munis va Ogahiylarning ushbu asarida yuqorida so'z yuritilgan fors va arab tillaridan boshqa biror tildan o'zlashgan atoqli otlarning salmog'i juda kam. Bu, albatta, o'sha davr sharoitida o'zbek tiliga Yevropa tillarining lug'aviy jihatdan ta'siri kamligi bilan izohlanadi. Masalan, “Firdavs ul-iqbol”da Rossiya imperiyasi *O'rus viloyati* (87, 88, 93, 118, 192, 225, 383, 439, 444, 480, 486, 487-betlar) deb yuritiladi:

⁹⁴ “Firdavs ul-iqbol”. 191-bet.

⁹⁵ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010 100, 131, 201, 254, 306, 415, 439, 470, 486-betlar

⁹⁶ “Firdavs ul-iqbol”. 66, 87, 98, 104, 217, 338, 421, 485-betlar

“ Va ayyomi hukumatida O‘rus va Cherkas ustig‘a cherik tortib, g‘azot qildi. Ul viloyatlarni tahti farmonig‘a kiyurib, o‘zidin hokimlar qo‘ydi...”. (118-bet)

Tarixan eroniy xarakterdagi atoqli otlar – antroponim va toponimlar ildizini qadimgi manbalar bilan qiyosan o‘rganish zarur⁹⁷. Xususan, ularni Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining mushtarak merosi “Avesto” tiliga qiyosan o‘rganish ko‘plab tarixiy va lisoniy faktlarni beradi.

Ma‘lumki, diniy mazmundagi ko‘pchilik atoqli otlar arab tilidan o‘zlashgan. Lekin ushbu mavzudagi so‘zlar ichida eroniy qatlamga mansublari ham ko‘plab uchraydiki, ularning ildizini “Avesto”dan axtarish o‘rinlidir.

Qozi قاضى – musulmon jamoasidagi sudya: “Qozi Safo va qozi Miravaz va qozi Xo‘janazar va Muhammadzohid oxzundkim, ulamoi mutabahirrin(“Ilmlar dengizi” sanalgan olim)durlar, anga maosir erdi”.

Shayx⁹⁸ شيخ

1. Ilohiyot olimi.
2. Tariqat piri.
3. Qadamjo mutassadisi.

Masalan: Shayx Jalil ota (106-b)

Demak, davr o‘tishi bilan atoqli otlarning mazmun va vazifasida turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ayrimlarida esa ko‘p ma‘nolilik va bir ma‘nolilik singari semantik hodisalar yuz berishi mumkin.

⁹⁷ Tillaeva M. Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi. (“Avesto” onomastikasiga qiyoslash asosida): Filol. fanl.nomz. diss. avtoref. –Toshkent, 2006. – 26 b.

⁹⁸ “Firdavs ul-iqbol”.91-bet.

I bob yuzasidan xulosalar

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, tarixiy asarlarni o'rganish boshlandi. "Firdavs ul-iqbol" asarining chet el olimlari tomonidan turli munosabat bilan o'rganilganligi ochib berilgan.

"Firdavs ul-iqbol" asaridagi tarixiy nomlar – antroponim va toponimlar bugungi kunga qadar tadqiq qilinmagan.

Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo'limlardan iborat:

Har qanday tildagi atoqli otlar tizimini, uning umumiy majmuini uch xil yo'sinda baholash mumkin:

1. Sinxronik – zamonaviy holati asosida;
2. Diaxronik, ya'ni tarixiy holatiga ko'ra;
3. Ham sinxronik, ham diaxronik holatga ko'ra, ya'ni umumiy tarzda olingan holatda.

Asar antroponimlarini o'rganish jarayonida, dastlab, ularni qaysi tilga mansubligiga qarab guruhlab chiqdik:

Asarda qo'shma ismlar ham berilgan. Qo'shma ismlarni tashkil qiluvchi qismlar etimologik jihatdan boshqa-boshqa manbaga mansub bo'ladi.

Munis va Ogahiy ba'zi toponimlarni ifodalashda sinonim sifatida ularning arabchasini qo'llaydilar.

Ma'lumki, diniy mazmundagi ko'pchilik atoqli otlar arab tilidan o'zlashgan. Lekin ushbu mavzudagi so'zlar ichida eroniy qatlamga mansublari ham ko'plab uchraydiki, ularning ildizini "Avesto"dan axtarish o'rinlidir.

Nom ko'chishi orqali ma'no kengayishini kuzatishimiz mumkin. Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq bir qancha bo'limlar orqali ko'rsatilgan.

Asar juda ko'p davrni o'z ichiga qamrab oladi. Aksariyat nomlarning arab tiliga mansubligini mazkur bobda turli misollar orqali ko'rsatib berilgan.

II BOB: “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDA ATOQLI

OTLARNING TURLARI

“Firdavs ul-iqbol”ning tilida uchraydigan onomastik materialni lug‘aviy-nominativ nuqtayi nazardan tasniflash unda atoqli otlarning quyidagi tiplari mavjudligini ko‘rsatdi:

1. Antroponimlar: ismlar, laqablar, arabcha kun’yalar, patronimik nomlar;
2. Toponimlar: qishloq va shaharlar nomi, ayrim geografik hududlar, joylarning atoqli otlari;
3. Hidronimlar: dengizlar, daryolar, soylar, ko‘llar, quduqlar, buloqlar.
4. Etnonimlar: urug‘, qabila va elatlar nomi.

Bizning kuzatishimizcha, “Firdavs ul-iqbol” asarida 2500 dan ortiq atoqli ot mavjud. Ulardan 1504 tasi antroponimlar, 760 tasi toponimlar, 282 tasi etnonimlar, 100 ga yaqini hidronimlardir. Bundan tashqari, asarda atoqli otlarning boshqa turlari ham bor. Biz ishning hajmidan kelib chiqib antroponim, toponim hidronim va etnonimlarni tadqiqot obyekti qilib oldik.

2.1. Antroponimlar.

“Firdavs ul-iqbol” asarida juda ko‘plab onomastik materiallarni uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, asar antroponomikasi o‘sha davr tarixining yaqqol namunasidir.

Antroponimika so‘zining o‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, (yunoncha, antro – odam, opuma – nom) – onomastikaning bo‘limi. Odamlar ismini, ularning tarqalganligini, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo‘llanilishiniva bundan tashqari antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o‘rganadi. Atoqli ot turlari, taxallus, laqab, nisba va shaxsni atashlikni turli usullari ham antroponimika tadqiqot manbaidir.

Masalan, Sohibqiron Amir Temur Tarag‘ay Bahodir Ko‘ragoniy. Bunda faqat Temur shaxsning xos ismi. Amir – hukmdorlik darajasini anglatadi, Sohibqiron – Temurga zamondoshlari tomonidan berilgan sifat (asr, davr sohibi degan ma‘noni bildiradi), Tarag‘ay – otasining ismi (familiya hisoblanadi),

Bahodir – otasining laqabi, Ko‘ragon – xonga kuyovlik nisbasi⁹⁹.

“... Chingizxon va amir Temur Ko‘ragon nasli anga yetushur, andoqkim, sobiqan ishorat qilib erdi...”¹⁰⁰

Antroponimika tizimida kipokoristika (erkalatib, kichraytirib atash – mas, Laziz(jon), Dilobar(xon), Homid(cha), Ahmad(cha) va h.k.) alohida o‘rin tutadi. Antroponimika ma’lumotlari tilshunoslikning boshqa sohalari uchun, jamiyatshunoslikda, xalqlar tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. *Ernst Begmatov*.¹⁰¹

Dastlab, asar tilida uchraydigan antroponimlarni qanday obyektни anglatishiga ko‘ra tasniflash mumkin.

a) ismlar. “Firdavs ul-iqbol” asari tilida turkiy xalqlarning qadimiy tarixidan tortib to 1825 yilgacha bo‘lgan ismlarining namunalari mavjud. Bu nomlarni nom egasi bo‘lmish shaxslarning real, tarixiy shaxs ekanligi yoki afsonaviy ekaniga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin:

1. Tarixiy, ya’ni real shaxslar nomi: *Turk*(115-bet), *Kuyukxon* (73-bet), *Chingizxon* (59,65,70,77,86,95,114,197,244,394,318-betlar), *Temur Malik* (67-bet), *Yodgorxon* (3,99,111,120,123-betlar), *Jonibekxon* (82-bet), *O‘zbekxon* (75,88,118,119-betlar);

Misol: “...Jonibekxon ibn O‘zbakxon musulmon va odili kordon va oqil kishi erdi. Ulamovu fuzalo, zhhodu ubbodni bag‘oyat mukarramumuazzam tutar erdi va shariatu g‘urro(oydin shariat) ni pos tutub(rioya qilmoq, ulug‘lamoq), mustahsin ishlar va pisandida amrlar zuhurig‘a yetkurur erdi.”¹⁰²

2. Afsonaviy shaxslarning nomlari: *Jabroil alayhissalom*(42,44,45, 49, 51,235-betlar), *Isrofil alayhissalom* (44-bet), *Nuh*, *Mahloyil* (215,263-betlar), *Xom* (25,44-betlar), *Som*(23,27-betlar) kabilar.

Misol: “... Jabroil alayhissalom qaytib, dargohi izzatda surati voqeani

⁹⁹ «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Давлат илмий нашриёти, 1. 2000. 372-бет.

¹⁰⁰ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010. 67-bet

¹⁰¹ «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», Давлат илмий нашриёти, 1. 2000. 373-бет.

¹⁰² Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010. 75-bet

*arz qildi ersa, Mikoil alayhissalomg'a hukm bo'ldi...*¹⁰³

“Firdavs ul-iqbol” tili ismlarga juda boy bo'lib, ular quyidagi shakl va ko'rinishda uchraydi:

Yakka holda qo'llangan ismlar: *Munis(114-bet), Tolib(119-bet), Qayumars(38-bet), Jamshid (17, 37, 60, 92, 183, 240, 270, 274, 328, 350, 396, 471-betlar), Qurlos (132-bet), Yulduzxon (484-bet), Shohobod (96-bet), Tohir (98-bet), Eltuzar (112, 425-betlar), Rustam (67, 108, 129, 130, 156, 167, 243, 310-betlar)* kabi.

Misol: Visoling ila farruxbaxshdur ki mujdasidin,

Bo'lur adam sori ovora xaylu kulfatu g'am.

Yo'lingda Munisi sargashta jismi bo'ldi g'ubor.

Ani qilurg'a sarafroz ranja ayla qadam. (243-bet)

Turli xil mansab, unvon nomlari bilan birga kelgan ismlar: *Abdurahmon yuzboshi (286, 354-betlar), Annaquli parvonachi (462,464-betlar), Amir Shohniyoz otaliq (195, 200, 217, 221, 237-betlar), Abdulla sardor (185, 201, 294, 389-betlar), Avazberdi biy (150-bet)* kabi.

“Firdavs ul-iqbol”da qo'llangan mansab, unvon, nasl-nasablarning izohiga qisqacha to'xtalib o'tsak:

Biy – qoraqalpoqlarda urug' oqsoqollari biy deb atalgan. Biylar otaliq, bekларbegilik amaligaca ko'tarila olgan. Biylardan noib, hokim, mirob, rais, karvonboshi, cho'raog'osi kabi unvonlarga tayinlangan shaxslarni uchratish mumkin.

Biylik otadan bolaga meros bo'lib qolardi. Lekin XIX asrning birinchi choragidan biylik ham otaliq, bekларbegi, inoq unvoni kabi xonlik tomonidan beriladigan, aniqrog'i tayinlanadigan bo'ldi. Xiva Davlat arxivi materiallari bir urug'ning bitta emas, bir necha biylari bo'lganligini tasdiqlaydi.¹⁰⁴

Yuzboshi – harbiy unvon. Xiva xonligida yuzboshilar bir bo'lak navkarlarga bosh bo'lgan va o'z navkarlarini urushga olib borgan.

¹⁰³ Sher Muhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010. 42-bet

¹⁰⁴ О. Жалилов. XIX-XX аср бошларидаги қорақалпоқлар тарихига оид ҳужжатлар. Тошкент, “Фан”б 1977. 102-бет.

Yuzboshilar harbiy ishlardan tashqari boshqa topshiriqlarni ham bajargan. Qoraqalpoqlardan yuzboshilar ham bo'lgan. Ular biylar singari urug'larni boshqargan. Hujjatlarda ham biy, ham yuzboshilik vazifasini bajargan amaldorlarni uchratamiz.

Misol: “Va alarming aqabidin sipahdordardin Sayyid Yaqub Xo‘ja va Yusufniyoz bek va Xo‘jamberdi bek ...va Niyozmuhammad boy va shamxolchilardin Avazberdi yuzboshi va Qo‘shnazar yuzboshi, Eshmuhammad yuzboshi va tufangandozlaridin Ishoq shayx va Abdurahmon yuzboshi va bularni o‘z dastalari bila izlik –izidin yubordi”. (286-bet

Laqab bilan birgalikda kelgan ismlar: *Rahmatulla Chitgar* (217-bet), *O‘zbekxon ibn To‘g‘rulxon* (75, 88, 114, 115-betlar), *Latif mirak* (81-bet), *Abdurahim mufti* (411-bet) kabi.

Ma'lumki, har qanday til antroponimiyasi tizimining tarkibiy qismini laqablar tashkil qiladi¹⁰⁵.

Kishini ota tomonidan nomlanishining arabcha shakli: *Yazd ibn Mahloyil* (31-bet), *Abulg‘ozixon ibn Arabmuhammadxon* (181, 197-betlar), *Qutlug‘ Muhammadbek ibn Hasanmurod* (35-bet)kabi.

Urug‘, qabila yoki xalq nomi(etnonim) bilan birgalikda kelgan ismlar: *Shohniyoz qoraqalpoq*(367, 413, 460-betlar), *Yodgorbek turkman* (84-bet), *Avazmuhammadbiy Urganjiy* (234-bet), *Nurtoy qoraqalpoq* (316-bet) va hakazo.

Ismlar boyligi turli tillarda miqdoran turli darajadadir. Asarda arab tili, eroniy, turkiy, mo‘g‘ul va boshqa bir qancha tillarga oid antroponimlarni uchratish mumkin.

Demak, davr o‘tishi bilan atoqli otlarning mazmun va vazifasida turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, ayrimlarida esa ko‘p ma’nodlilik va bir ma’nodlilik singari semantik hodisalar yuz berishi mumkin.

O‘xshash, ya’ni otdosh ismli shaxslarni o‘zaro farqlashda, o‘tmishda laqablar ayniqsa qo‘l kelgan. “Firdas ul-iqbol”da 130 dan ortiq laqablar va laqab

¹⁰⁵ Kalepesova Yu.N. Prozvisha v sisteme karakalpakskey antroponimii // Avtoref. kand. filol. nauk. – Nukus, 1995.

vazifasida keluvchi ko'pgina etnonimlar, unvon va mansab nomlari, siyosiy, diniy titullar uchraydi. Bu laqablarni ba'zi xususiyatlari asosida quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Shaxsning tili, nutqiy xususiyatini ifoda qiluvchi laqablar: *Kilgit* – duduq, chuchuk til. *Chechan*-so'zamol, ma'nosida.
2. Shaxsning salbiy xususiyatini anglatuvchi laqablar: “Abulxayrxoni mazkurning ikkilanchi o'g'lining oti Xoja Muhammad. Ammo o'zbek ani *Xo'jug'um tentak* derlar.”
3. Shaxsning kasb-kori, faoliyatiga ishora qiluvchi laqablar: *Timach mergan, qadan tayshi*. (*Tayshi*-yaxshi kuylovchi hofiz).
4. Shaxsning gavda tuzilishidagi biror xususiyat, nuqsonga ishora qiluvchi laqablar: *Buljar dug'lan(oqsoq)*, *Qo'niqqimar(ulug', katta burun)*.
5. Shaxsning mansabi, unvoniga ishora qiluvchi laqablar: *Qutli qoon, Berka sulton, Bekquli otaliq, Qurbon hoji, Dinmuhammad o'nbegi*.
6. Shaxsning qaysi urug', qabilaga yoki jamoaga, sulolaga, avlod-ajdodga mansubliini anglatuvchi laqablar: *Ilk turkman, Ixtiyoriddin turkman, Bekquli inoq, Hofiz qo'ng'iroq, Ubaydxon nayman*.
7. Shaxsni ulug'lovchi laqablar: *Ko'kcha* – tangrining beti.

xudo so'zi lug'atlarda quyidagi ma'nolarda izohlanadi: 1. Boshliq. 4. Podshoh. (kam holatda).

“*xudo*” خدا komponenti qatnashgan antroponimlar:

Xudoyberdi-Xudoyberdi kenagas (227-bet), Xudoyberdi otoliq gusola yaqubchi (355-bet), Xudoyberdi Orqor (435-bet), Xudoyberdi inoq qo'ng'iroq (197-bet), Xudoyberdi bojbon (369-bet), Xudoyberdi boy Chig'atoy inoq (133-bet), Xudoyberdi biy (368-bet), Xudoyberdi biy qoraqalpoq uyg'ur (460-bet), Xudoyberdi bek qipchoq (251-bet), Xudoyberdi bek qo'ngrot (303-bet), Xudoyberdi bek ibn Qutluqmurod hoji qangli (300-bet), Xudoyberdi tovuq (481-bet), Xudoyberdi dorug'a ibn Avaz inoq naymon (132, 258-betlar), Xudoyberdi qiyiq xo'jaeli (367-bet), Xudoyberdi noyib nukuz (157-bet), Xudoyberdi yuzboshi (440-bet).

Xudoybergan - Xudoybergan boy ersori (466-bet), Xudoybergan bek ibn Omonkeldibek qiyot (471-bet), Xudoybergan bek Bobo dorug-beta qipchoq (471-bet), Xudoybergan bek ibn Tangriyorbek (204-bet), Xudoybergan bek ibn Fozilbek qo' ngrot (231-bet)(), Xudoybergan bek ibn Qalandar inoq(231-bet), Xudoybergan bbek ibn Qaro bahodir mirob qiyot (217, 253-betlar) va shu kabilar.

Faridun – Traetaona

Afrosiyob – Frangxrasyan

Afrodita – qad. rimliklarda Venera deb yuritilgan.

farn – xvarno

Bog'ibek (421, 143, 158, 159-betlar) ismi diniy mazmun kasb etuvchi o'zlashma nomlarga mansub bo'lib, musulmon bo'lgani holda musulmon hukmdorga bo'ysunishdan bosh tortgan shaxs ma'nosini ifodalaydi. Musulmon kishining musulmon podshohga bo'ysunmasligi *bog'iylik* (Ogahiyda *bog'iygarlik*) hisoblangan:

“Shavvol oyining yigirma uchi(1231-yil 23-shavvol/ 1816-yil 16-sentabr)da yakshanba kuni yavmut Bog'ibek bahodir ul hazratning ijozati bila bir guruh olomong'a bosh bo'lib, O'rtaquduq yo'lidin qat'I manozil qilib, Bomi-Burma havolisida Birquduq ustidin och arslondek doxil bo'lib, yetti-sakkiz kishining boshin teg'I burron bila jasadi palidlaridin judo qilib va behisob teva o'lja tushurib qayttilar”. (421-bet)

Hakimbiy **حَكَم** ismi. Uning o'zagi bo'lgan *hakama* **حَكَم** fe'li *boshqarmoq*, *hokimlik qilmoq*, *boshchilik qilmoq* mazmuniga ega¹⁰⁶. *Hokim* so'zining birlamchi lug'aviy ma'nosi *boshqaruvchi*, *hokimlik qiluvchi*, *boshchilik qiluvchidir*. Ogahiyda *hokim* so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanganini kuzatamiz: Qo'rg'on yoki qal'a boshlig'i, shahar hokimi, viloyat yoki o'lka, ma'muriy hudud hokimi, boshlig'i ma'nosida kelgan.

“Firdavs ul-iqbol” asarida Buxoro vaziri bo'lmish Hakimbiy antroponimi ishlatilgan: “Chun hazrat sohibqironi jannatmakon Chorjo'y safarig'a ozim

¹⁰⁶ Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar. – S.187.

bo'lg'ondin so'ng yurt ichida bu xabar paydo bo'ldikim, amir Haydarning vaziri a'zami Hakimbiyning savdogari biroz karvon bila Buxorodin chiqib, Erdor yo'li bila O'rusg'a borur ermish". (481-bet)

"Firdavs ul-iqbol"dagi nomlarning aksariyat qismini qadimiy turkiy va mo'g'ulcha nomlar tashkil qiladi. Bu ismlar ikki guruhga ajraladi: turkiy ismlar va turkiy hamda mo'g'ul tillari uchun mushtarak bo'lgan ismlar. Keyingi guruh ismlar etnik jihatdan ham turkiy, ham mo'g'ul bo'lgan kishilarning atoqli oti sifatida uchraydi, ya'ni shaxs mo'g'ul bo'lgani holda ismi turkiydir. Bunday nomlar Chingiz avlodlarining atoqli otlari orasida mavjud: *Kuchluk, Ko'kcha, Temurtosh, Menglixoja, Yulduz, Elxon, Tengizxon, Manglayxon, Oyxon, Qoraxon, Erkaqora, Boytemir, Temurxon* va b.

Tengizxon **jo'ybori** adl birla

Mamolik gulshanin serob qildi.

Yetib oxir ajalning tunbodi

Hayotin g'arqayi girdob qildi.

Jo'ybor – ariq; "Firdavs ul-iqbol"da ba'zi o'rinlarda "suvdan obod bog'u bo'ston" ma'nosida ham kelgan. (63-bet)

Sof turkiy ismlar ma'nosi umuman olganda tushunarli, asos leksemalari aksariyat holda hozirgi turkiy tillarda funksional bo'lgan lug'aviy birliklardir: *Turk, Sevinchxon, Qoraxon, Kun, Oyxon, Yulduzxon, Ko'kxon, Tog'xon, Tengizxon, Elxon, Tug'rul, Boytemir, Mangu qoon, Otsiz, To'ktabegi, Menglik, Qishliq, Qilichqora, Arslon, Qoracha Hojib, Bormas, Turkan xotun, Toshtemir, Qutluqqiyo, Temurbiy, To'xtamishxon, O'rusxon, Sottibek xotun, Berdibekxon, Bayram o'g'lon, Kuntug'ar bahodir, Esh, Chibiqli pahlavon, Yo'limbiy, Turumchi, Otaboy, Eshimbiy, Sari o'g'lon, Tangriberdi, Tursunxon* va b.

"Ul otni ersoridin Shayx bahodir degan tutib minib, Andxo'ning hokimig'a bu voqea xabarin yetkurdi Ul darhol Yulduzxonning o'g'li Nayzabek va Abbosbekni ming kishi bila olomonning izidin qovg'unchiliqq'a buyurdi" (484-bet).

"Firdavs ul-iqbol" tilida anchagina mo'g'ulcha antroponimlar mavjud

bo‘lib, ularni turkiy til materiali asosida izohlab bo‘lmaydi. Chunki ular zaminida yotgan turdosh leksemalar qadimiy mo‘g‘ul yoki oltoy tillariga mansubdir. Aslida bu ismlar mo‘g‘ul onomastikasi mutaxassislarining vazifasidir. Demak “Firdavs ul-iqbol” tilidagi mo‘g‘ulcha antroponimlar bu asar tiliga tarixiy voqealarning talqini munosabati bilan kiritilgan ekzotik nomlardir va ular bevosita turkiy antronomiya, jumladan, zo‘bek nomshunosligining tadqiqot obyektiga kirmaydi. Shu tufayli ham biz asar tilidagi mo‘g‘ulcha ismlar qatlamini keng tahlil qilishdan o‘zimizni tiyamiz.

2.2. Toponimlar

Toponim, geografik nom (yunoncha topos – joy, makon va onima – nom, ism) – har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi, jumladan, gidronim, oykonim, oronim, xoronim, urbanonim, agroonim¹⁰⁷.

Toponimlarning aksariyat ko‘pchiligi mazkur joyning geografik tuzilishi bilan bog‘liq holda vujudga keladi. Masalan, “Shahrisabz “ko‘k shahar”, “yashil shahar”, bog‘i ko‘p shahar degan ma‘noni bersa, Sibir toponimi “botqoqlik”, “zax joy” demakdir. ko‘pgina nomlar shu joyda yashaydigan xalqning kasbi, mashg‘uloti, hunari kabilarni ham ma‘lum darajada aks ettiradi. Shuning uchun ko‘p shaharlarda Do‘ppichi, Temirchi, Zargarlar, Darbozlar kabi o‘nlab mahalla nomlari uchraydi¹⁰⁸.

Demak, shunday ekan, geografik nomlar “o‘lik so‘zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab sirlarni asrayotgan xazinadir. Ushbu xazinani tilshunoslikning muhim sohasi bo‘lgan toponimika ya‘ni joy nomlari haqidagi fan ochadi. Bu fan nomlarning ilk mazmunini, ularning vujudga kelish yo‘llarini hamda tarixini tekshiradi.

“Firdavs ul iqbol” asarini chuqur o‘rgansh jarayonida, aynan o‘sha davrdagi toponimlarga alohida e‘tibor qaratishni lozim topdik. Chunki ming yillik tarixga ega toponimlarni faqat tarixda emas, bugungi kunning asosiy joy nomlari ekanligini yosh avlod ongiga singdirish darkor.

¹⁰⁷ S. Qorayev. Geografik nomlar ma‘nosi. Toshkent. O‘zbekiston. 1972. 195-bet

¹⁰⁸ Z. Do‘simov., X. Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyoti 1977. 4-bet.

Nomlarning asl mazmunini bilish, ularning kelib chiqishi, tuzilishini o'rganish barcha o'quv maskanlarida muhim ahamiyatga ega.

Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganidek, "Qadimiy nomlarda otobobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini topgan¹⁰⁹". Asardagi toponimlar ham o'sha davr hayot tarzini namoyon etadi.

Holbuki, ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog'-hiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan.¹¹⁰

O'zbek tarixiy toponimiyasi yuzasidan hali birorta ham fundamental tadqiqot yuzaga kelganicha yo'q. Shunga qaramasdan, o'zbek tarixiy toponimiyasi, jumladan, yozma yodgorliklar tilida uchraydigan toponimik materialni tahlil qilishning ba'zi namunalari H. Hasanov¹¹¹, S.Qoraev¹¹², Z.Do'simovlarning¹¹³ ishlarida mavjud. Turkiy, jumladan, o'zbek xalqining o'tmishiga oid yozma adabiyotlar toponimik materialga boyligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra "Firdavs ul-iqbol" asarida 760 ta toponim mavjud. Bu toponimlar, makrotoponim va mikrotoponimlar shkalasi bo'yicha ham, toponimlarning umumma'lum nomlar shkalasiga ko'ra ham xarakterli materiallarga boydir. Asar tilida uchraydigan toponimlarni funksional-nominativ ko'lamiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

– mamlakatlar, davlatlar va o'lkalar nomi: *Eron, Turon, Arabiston, Ajam, Boshqird, Ozarbayjon, Turkiston, Gurjiston, Xuroson, Iroq, Isfahon, Movarounnahr*;

– viloyatlar nomi: *Astrobod, Xuroson viloyati, Chorjo'y, Balx, Bag'dod, Buxoro, Dashti Qipchoq, Nayman, Xorazm, Samarqand*;

– shaharlar nomi: *Ko'hna Urganch, Samarqand, Ko'hna Vazir, Qiyot, Xo'qand, Yangi shahar, Kurdiston, Yangi Kot*;

Abulg'ozixon andin Kotg'a kelib, anda tura olmay, Movaraunnahrga

¹⁰⁹ I. A. Karimov, Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. 92-bet.

¹¹⁰ O'sha manba, 92-bet.

¹¹¹ Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1965.

¹¹² Karaev S.K. O'piti izucheniya toponimii Uzbekistana: Avtoref. dis... kand. Filol. Nauk. – Tashkent, 1969.

¹¹³ Do'simov Z. Xorazm toponimlari. Toshkent: Fan, 1985.

*mutavajjih bo'ldi va Samarqandda Imomqulixonning xizmatig'a etti*¹¹⁴.

Asardan keltirilgan ushbu misoldagi toponimlarning izohi bilan tanishtirsak, ular quyidagicha ma'nolarni anglatadi:

Kot (Kos) – Xorazmning qadimgi poytaxti. Bu shahar to'g'risida Istaxriy (AGK, I, 283, 300 - 304 va b). Ibn Xavqal (AGK, II, 350 – 353, 402), Muqaddasiy (AGK, III, 30, 49, 285, 288, 294 va b), shuningdek Beruniy asarlarida mukammal ma'lumot berilgan. Yoqut Xamaviy fikriga qaraganda (Mu'jam ul-buldon, IV, 222-bet), kot xorazmliklar tilida “cho'ldagi devor”, “to'rtko'l” ma'nosini bildirgan (Bartold, I, 199-bet; III, 475-bet). Shaharning markaziy qismi – shahriston Fil yoki Fir deb atalgan. Qadimgi Kot shahri xarobasi hozirgi Beruniy shahri yaqinidadir (q. Katqal'a).

Movarounnahr (arab. – daryoning narigi tomoni) – o'rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Uning xuddi shu ma'noni anglatgan fors tilidagi «Varorud» va «Varojayxun» shakllari ham mavjud bo'lib, ularning barchasi avval (XI asrgacha) Xuroson viloyatining davomi sifatida, XI asr boshidan e'tiboran esa Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar davla-i va undan keyingi turkiy davlatlar tarkibidagi ma'muriy birlik sifatida tushunilgan. XI asrda Yevropa tarixshunosligida mazkur arab atamasining lotincha tarjimasi bo'lmish yangi «Transoksiana» yoki «Transoksaniya» atamalari muomalaga kiritilgan.

Hozirgi zamon tarixiy-geografik ilmiy adabiyotda Movaraunnahr deganda, asosan, Turkmanistondan tashqari bo'lgan O'rta Osiyo hududlari, ya'ni, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy qismi tushuniladi.

Movaraunnahr atamasi ilk bor payg'ambarimiz Muhammad (sav) haqidagi hadislarda tilga olingan. Aftidan bu atama arablar orasida islomgacha bo'lgan davrlarda ham ma'lum bo'lib, u vaqtda (mil. 6-a.) Sosoniylar davlatidan shimoliy-sharqda, Jayxun, ya'ni Amudaryoning orqasida joylashgan *Turk xoqonligiga* qarashli yerlarni anglatgan. Qadimgi fors

¹¹⁴ “Firdavs ul-iqbol”, 90-bet.

manbalaridagi ma'lumotlarga tayangan arab geograf olimi *Yoqut Hamaviy* Movaraunnahr atamasini Turon mamlakatining nomi deb bilgan. Arablar o'zlarining sharqqa qilgan ilk yurishlari davomida (VII asrning 2-yarmi – VIII asrning boshi) ikki xil tushuncha haqida ma'lumotga ega bo'lganlar: «ma duna-n-nahr», ya'ni «daryoning pastki tomoni», va «ma varo-an-nahr» – «daryoning narigi tomoni». Ulardan birinchisi Xurosondan sharqda Amudaryodan jan.da Hindukush tog'-larigacha bo'lgan Toxariston erlarini; ikkinchisi esa, Amudaryodan shim.da joylashgan Shimoliy Toxariston va Sug'd erlarini o'z ichiga olgan. IX – X asrlarda yashagan va O'rta Osiyo hududlariga tavsif bergan arab geograflaridan faqat al-Istaxriy va Ibn Havqal ularga nisbatan Movaraunnahr atamasini maxsus ish-latganlar. Boshqa arab geograflari esa O'rta Osiyo hududlari xaqida so'z yuritganlarida Movaraunnahr atamasini juda tor ma'noda ishlatib, uni Xurosonning davomi yoki al-Mashriq (Sharq)ning bir qismi sifatida tasvirlaganlar. Al-Mashriq tushunchasiga esa ular Xuroson va Movaraunnahr yerlaridan tashqari, Xindiston, Xitoy yerlarini va hatto Hind va Tinch okeanlaridagi Yaponiyagacha bo'lgan orollarni kiritganlar (Ibn Xurdodbeh).

XI asr boshidan e'tiboran Movaraunnahr istilohi hudud jihatdan ayrim manbalarda Sug'd va Xorazm, boshqalarida esa Sug'd va Shim. Toxariston erlarini o'z ichiga olgan. Ma'no jihatdan esa bu atama endi Turkiston, ya'ni Qoraxoniylar davlati, keyinchalik esa Xorazmshohlar, Chig'atoiylar, Temuriylar va Shayboniylar davlatlarining tarkibidagi ma'muriy birlikni anglatgan.

Shunday qilib, Movaraunnahr atamasi o'rta asr manbalarida turlicha talqin qilinib, geografik hudud sifatida avval Turon, Turk xoqonligi yoki Turkiston mamlakati (7 asrgacha), keyin Xuroson (7– 10 asrlarda) undan ham keyin Turkiston (11-a.dan boshlab), ma'lum vaqt esa Xorazm (12-asrning oxiri – 13-asrning boshi) tarkibiga kiritilgan. Demak, bu atama faqat geografik ma'noga ega bo'lib, har xil davrlarda turli davlatlar – Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, shuningdek, Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va boshqa

davlatlarning tarkibiga ma'muriy birlik sifatida kirgan. Bu atama haqida turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning yig'indisi ham hududiy jihatdan «O'rta Osiyo» atamasini anglatadigan Turkiston tabiiy-geografik o'lkasining barcha erlarini qamrab olmaydi. Chunki, mazkur mintaqa tarkibiga kirgan Shimoliy Xuroson (Turkmaniston), Yettisuv (Qozog'iston) va Janubiy Toxariston (Afg'oniston) yerlari hech qanday manbalarda M. tarkibiga kiritilmagan. Shuning uchun, atamaning o'rta asrlarda ishlatilgan eng keng ma'nodagi tushunchasi tarkibiga shartli ravishda faqat Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan yerlarni kiritish mumkin.

(Mahmud Koshg'ariy, *Devonu lug'otit turk* (Turkiy so'zlar devoni, tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov), 3 j.li, T., 1960–1963; Mahmud ibn Vali, *More tayn otnositelno doblestey blagorodnix*, T., 1977; Kamaliddinov Sh. S, *Istoricheskaya geografiya Yujnogo Sogda i Toxaristana po araboyazychnym istochnikam IX –nachala XIII vv.*, T., 1996.)

Samarqand – O'zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri. Uning bir nomi Afrosiyob, Iskandar Zulqarnayn davrida Maroqanda deb atalgan; bundan tashqari, Samariana, Samaranka, Sakanna, Sam-Mangen va Samakiyan singari nomlari ma'lum. Biroq nomlaridan ko'ra bir-biriga zid izohlari ko'proqdir:

1) Maroqandda – qadimiy forsi tilidagi xamada – “yig'in”, “to'planish” so'zidan kelib chiqqan; kishilar to'planishib, maslahatlashib turadigan joy degani;

2) Samar – quduqning nomi; quduq tevaragida yig'inlar bo'lgan, o'yin-tomoshalar o'tkazilgan;

3) Shamar va Qamar – shaharni yamanlik shahzodalar bunyod etgan;

4) aksincha, yamanlik shoh Samar Shamr ibn Afriqoye bu shaharni makkorlik bilan egallab, vayron qilgan, kavlab tashlagan, shundan Samar qand (“Samar kovlagan”) nomi paydo bo'lgan emish;

5) bu yerga arablar kelgach, bu nomni Samarqand shaklida talaffuz eta boshlaganlar;

6) Samar – meva, hosil, qanda – shirinlik, ya'ni “shirin-shakar shahar”

ma'nosini anglatadi.

Endi aniq manbalarga murojaat qilamiz: “Samarqand – turkey tilda Samiakand, ma'rifat shaharlaridan biri” (Beruniy. “Qonuni Ma'suniy”, 426); “O'g'uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar...Samarqandni kattaligi uchun Samizkand – semiz shahar deydilar. Bun forsilar Samarqand tarzida qo'llaydilar” (Mahmud Qoshg'ariy. Devon, I 330); “mo'g'ul va turk ulusi Samizkand derlar” (“Bobirnoma”, 104).

Vatandosh olimlarimizning uchalasi ham bir fikrda; Samizkand, “Samiz”, “Semiz” so'zlari “boy” degan ma'noni anglatishi ham ma'lum. Dehqonlar “semiz tuproq deb unumdor yerni” aytishadi.

Xullas, yuqorida aytilgan variantlardan ikkitasi ma'qulroq:

1) Samizkant – boy shahar, ulug' shahar;

2) yig'in joyi, maslahat qishlog'i.¹¹⁵

– ma'lum bir hudud, joyning nomi: *Bekobod, Nukuz, Yangiariq, Hayrobod, Qo'shko'prik, Gurlon, Jurjon, Bog'ot*;

* *Ul jihatdinkim, Bobobek Bog'otni lashkargoh qilib erdi*¹¹⁶.

Ushbu misolda Bog'ot toponim sifatida qo'llangan ya'ni Xorazm viloyatining sharqiy qismida joylashgan tumanning nomi bo'lib kelgan. Aslida bog'ot forscha “bog'” so'zining ko'pligi; bog'lar¹¹⁷.

Yana bir manbada shunday keltirilgan. Xorazm viloyati Bog'ot rayonining markazi. Toponimning eng ko'p tarqalgan etimologiyasi yuqorida keltirilganidek “bog'zor”, “bog'lar”.

Ba'zi tadqiqotchilar toponimni bog'dod “arz so'raydigan bog'” so'zi bilan bog'laydilar.¹¹⁸ Mahalliy xalqning aytishicha bog'ot “poliz, polizchi” degan ma'noni bildiradi.

- qishloqlar nomi: *Badrkand, Poykant, Hadra, Pirnavxost, Kenagas*;

- qal'a nomi: *Besh qal'a, Biyoboncha qal'asi, Kuran qal'asi, Kuyuk qal'a, Mir qal'asi, Oraz qal'a, Oq qal'a, Sakar qal'asi, Qipchoq qal'a*;

¹¹⁵ H. Hasanov. Geografik nomlar siri. Toshkent “Oqituvchi”, 1985. 89-bet.

¹¹⁶ Munis va Ogahiy. “Firdavs ul iqbol”, 156-bet.

¹¹⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild.2006. 355-bet.

¹¹⁸ Y. Jumanazarov, Ilmiy fantaziya va Xorazm toponimlari, “Xorazm haqiqati” gazetasi, 1975-yil, 20-may

*Suyunbiy va O'rozalibiy boshlig' Orol sipohidin to'rt yuz Chog'lig' otlig' bila kelib, zulg'ijja oyining to'rtunchi kechasikim chohorshanba tuni erdi, yorim oqshomda Qipchoq qal'asig'a kirdi.*¹¹⁹ Mazkur toponim aslida ko'chmanchi turkiy xalqning nomi bo'lib, ular XI-XV asrlarda Uralbo'yi va Volgabo'yi dashtlarida va Qozog'istonning markaziy va g'arbiy qismlarida yashagan keyinchalik boshqa hududlarga ham tarqalgan ko'chmanchi turkiy xalq.¹²⁰

– sahro, qumlar nomi: *Darvoza qumi, Yorti qum, Zang'ar qumi, Oqqum, Qattig' ochon qumi;*

– tog'lar nomi: *Abu Qabis tog'i, Bilqon tog'i, Judi tog'i, Kar tog'i, Kubo, Kuh Chug'ro Shayx Jalil tog'i;*

– bog'lar nomi: *Bog'i Dilkusho, Bog'i murod, Bog'obod;*

– tepa, qirlar nomi: *Arnak/Dasht qiri, Bayot qiri, Baland(biyik) qir, Beshtom qiri, Ko'kcha qiri, Sulton saroy qiri;*

– mozorlar nomi: *Abdol bobo mozor, Abdulloh Norinjoniy shayx mozor, Jigarband oto mozori, Oyxo'ja mozor, Najmiddin Kubro mozor;*

– ko'priklar nomi: *Taxtak'o'pruk, Toshko'pruk, Qumyosqa ko'pruki, Go'ja ko'pruki.*

“Firdavs ul-iqbol” asaridagi toponimlarni nomlanish asosiga ko'ra, shartli ravishda, quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) tabiiy-jug'rofiy xususiyat ifoda qiluvchi toponimlar;
- 2) shaxs nomlari asosida hosil qilingan toponimlar;
- 3) nomlanish asosi noaniq toponimlar¹²¹.

Asardagi tabiiy-jug'rofiy xususiyat ifoda qiluvchi toponimlar quyidagi guruhlarga ajraladi:

1. Jug'rofiy tushunchalar bilan bog'liq toponimlar: *Zayt yo'li, Ko'kcha qiri, Ardod darbandi, Pil ko'pruki.*

¹¹⁹ “Firdavs ul-iqbol”. 101-bet.

¹²⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild.2006. 297-bet.

¹²¹ Bu haqda qarang: T.M.To'raevich, Abulg'ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari onomastikasi, avtoreferat. T. 2001 15-bet

2. Suvliklar bilan bog'liq bo'lgan nomlar: *Zamon quduqi, Go'zsiz suyi, Boshqird arig'i, Tumor ko'l.*

3. Obyektlarning miqdoriy belgisi asosida vujudga kelgan toponimlar: *Uch to'g'on qumi, Besh qal'a, Olti to'pa, Mingbuloq.*

4. Etnonimlar asosida vujudga kelgan toponimlar: *Turkiston, Iroqi Arab, Arabxona, Hinduston.*

Asarda shaxs nomlari asosida hosil qilingan toponimlar ham juda ko'plab uchraydi. Jumladan, *Yusufbek gunbazi, Hamadon, Tangriyor nahri.*

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda asardagi toponimlar o'ziga xos funksional-nominativ guruhlariga ajralishi, nomlanish xususiyatlarining turlichaligi, sheva hamda eski o'zbek adabiy tili xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirganligini ko'rishimiz mumkin. Haqiqatdan ham, asarda keltirilgan yuzlab joy nomlari bir necha asrlik tarixdan buyon o'z qimmatini yo'qotmay kelmoqda.

Qal'a nomlari:

Yangi qal'a – (148, 202, 227,275,294,297,383,414-b)

Qum qal'a – (83-b)

Xo'ja qal'asi – (418,466,467-b)

Tosh qal'a – (156,157,158,256,312,327-b)

Turkiston qal'a – (306-b)

Xusrav qal'asi – (407,433-b)

To'froq qal'a – (139-b)

Kuyuk qal'a – (164,412-b)

*Misol:Chahorshanba kuni Mizdehqonda hazrat Sha'mun nabini ziyorat qilib, Kuyuk qal'a muqobilasig'a tushti.*¹²²

Qishloq nomlari:

Bag'alon – qishloq. Xorazm viloyati Gurlan tumani. Toponim milodning dastlabki asrlarida Azovbo'yi, Kavkaz oldida yashagan qadimgi alan qabilalari nomi bilan atalgan degan fikr bor (Bog'i alan – “Alan bog'i”) Aslida bu qishloq

¹²² “Firdavs ul-iqbol”. 412-b.

ming qabilasining bog‘lan urug‘i (Doniyorov, Shajara, 83-b) yoki qarapchi urug‘ining tarmog‘i - bag‘anali nomi bilan atalgan bo‘lishi mumkin. Shu tumandagi Mingbag‘alan, ya‘ni “ming qabilasining bag‘anali urug‘i” degan qishloq nomi ham fikrimizni isbotlaydi¹²³.

Taxtakoprik – (312-b). Xorazm viloyati Gurlan, Taxtakoprik tumanlari.

Naymon (416-b)

Saxtiyon (312-b)

Ko‘nazey – Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanidagi qishloq: “ko‘hna zovur” ma‘nosida. Xorazmda zovurni zeykash (qisqartirilgan shakli – zey) deyishadi. Aslida zey adabiy tildagizax so‘zining shakli.

To‘rtko‘l (129-b) – Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanidagi shahar. Xorazmda tovrto‘l deganda qadimgi istehkomlar qoldig‘i tushunilgan. Prof. Q. Q. Yudaxinning fikriga ko‘ra , to‘rtko‘l chaldivor (chordevor) “xaroba” so‘zi bilan ma‘nodoshdir (q. Dalvarzin, Kot). O‘zbekistonda To‘rtko‘l degan joylar ko‘p. Andijon viloyati Izboskan tumanida To‘rtko‘lkanda degan ariq bor¹²⁴.

Shovot (157-b)

Xistiyon – (Xostiyon, A.Bahodirxonda “Xistigon”. Xivak bilan Kot orasida joylashgan.

Qaraman (167-b)

Xayrabod (135,225-b)

Bog‘lon – (100, 129, 156-betlar) Gurlan bekligidagi mashhur qishloqning nomi. Mazkur nom siyosiy ma‘no kasb etib, “musulmonlar podshohiga itoatdan va bo‘ysunishdan bosh tortgan musulmon kishi” degan ma‘noni anglatadi¹²⁵. Shariat qonun-qoidalarida bog‘iylarga munosabat me‘yorlari ham belgilab berilgan¹²⁶. Mazkur so‘zning yuzaga kelishi uchun mazkur fe‘lning *buzg‘unchilik qilmoq* ma‘nosi asos bo‘lgani ehtimolga yaqin.

Bog‘lon toponimi asarda Bag‘lon tarzida ham qo‘llangan. “Va Eralixon

¹²³ S. Qorayev. Geografik nomlar ma‘nosi, Toshkent: O‘zbekiston. 1978. 35-bet.

¹²⁴ S. Qorayev. Geografik nomlar ma‘nosi, Toshkent: O‘zbekiston. 1978. 129-bet.

¹²⁵ Muxtasar. Arabchadan R.Zohid va A.Dehqon tarjimasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993. – B. 303.

¹²⁶ Ko‘rsatilgan asar. – B. 303-304.

kelgandin so‘ng Muhammadamin inoq Xivaq cheriki bila Shohobodg‘a borob, xong‘a qo‘shulub, Gurlan va Vazir va Bog‘lon yig‘inin kishi yiborib kelturdi”. (129-bet).

Asarda yana Bag‘lon arnasi ham qovllangan: “Lojaram beki mazkur bu amrda masoei mashkura taqding‘a yetkurib, Bog‘lon arnasidin qozdurub, Qiyot ustidan o‘turub, O‘rozali inoqning Bo‘zdag‘i bog‘ining qiblasidin... o‘tkardi”. (414-bet).

Bomiyon – Xuroson(Eron)dagi qadimiy shahar nomi. *Bom* so‘zi hozirgi fors, tojik, dariy tillarida tom ma’nosini anglatadi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, *bom (tom)* Bomyah nomi bilan bog‘liqdir.

“Firdavs ul-iqbol”da Bom, Bomi Burma tarzida kelgan. (407, 91, 122, 421, 439, 440, 447-betlar). “Xon turkmanni mamlakatdin ovora qilganda, Bomi Burmaga Qohirxo‘ja boshliq ko‘p turkman yig‘nolib erdi”.

Vazir – Sarf

Vazir (Ko‘hna Vazir) (78 – 84 , 93, 100, 129, 147, 149, 150, 151, 156, 157, 158, 256, 257, 265, 275-betlar)

Vazir (Yangi Vazir) (310-bet)

Masalan, “...Sherali jaloyir va Ashur bek nukuz Bobobekka muxolifatda muttafiq bo‘lub, Gurlan va Vazir sipohi bila asokiri zafarmaosirni buzub, Gurlong‘a kirib, tamarrud va tug‘yon baydoqin bar aloniya barpo qildilar”(147-bet).

Vazirning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ma’no taraqqiyoti xususida A. Mo‘minova batafsil so‘z yuritgan¹²⁷.

“Firdavs ul-iqbol” toponimlarini nomlanish asosiga ko‘ra, shartli ravishda, quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) tabiiy-geografik xususiyat ifoda qiluvchi toponimlar;
- 2) shaxs nomlari asosida hosil qilingan toponimlar;
- 3) nomlanish asosi noaniq toponimlar¹²⁸.

¹²⁷ Mo‘minova A. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tahlili: Filol. fanl. nomz. diss. – Toshkent, 2000. – B.29-33.

¹²⁸ Chernyaxovskaya E.M. Istoriya razrabotki toponimicheskix klassifikatsiy // Razvitie metodov

“Firdavs ul-iqbol”dagi tabiiy-geografik xususiyat ifoda qiluvchi toponimlar quyidagi guruhlariga ajraladi:

1) geografik tushunchalar bilan bog‘liq toponimlar(bu erda joyning relef xususiyati nazarda tutiladi): *Ar tog‘i, Arqanaqu, Arbil iqlimi, Dashti Qipchoq;*

2) suvliklar bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar: *Andarob, Sag‘ja qudug‘i;*

3) obyektlarning miqdoriy belgisi asosida vujudga kelgan toponimlar: *Beshbo‘ta, Beshbaliq;*

4) etnonimlar asosida vujudga kelgan toponimlar: *Arabiston, Bulg‘ar, Kirayt, Mo‘g‘uliston, Turkiston.*

“Firdavs ul-iqbol” tilidagi nomlanish asosi noaniq bo‘lgan toponimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

a) nomlanish asosi aytilgan bo‘lsa-da, nomning aniq ma’nosi noma’lum bo‘lgan toponimlar. Bunday toponimlarga quyidagilar kiradi: *Ar tog‘i, Bayot qiri, Dinor quduq, Burma, Yozina, Judan tog‘i, Karvak, Mazdehqon, Sag‘cha, Tuk qal’asi, Churchit;*

b) nomlanish asosi aytilmagan va ma’nosi ham noaniq bo‘lgan toponimlar: Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: *Kurdush, Saroychiq, Isfaroyin.*

“Firdavs ul-iqbol” asarida kishi nomlaridan geografik nomga aylangan atoqli otlar ham anchani tashkil etadi.

Kishi nomlarining, antroponimlarning geografik nomga aylanishi keng tarqalgan toponimga aylanishi, albatta, turli ekstralingvistik faktorlar asosida sodir bo‘ladi.

Avvalo, bu ikki sistemaning bir-biri bilan bo‘lgan yaqin munosabatidan, ularning xarakteridan kelib chiqadi.

Antroponimlar ham xuddi toponimlar singari faqatgina obyektlarni (keng ma’noda) individuallashtiradigan, ularni bir-biridan ajratadigan sotsial lingvistik belgigina emas, ayni vaqtda, ular kishilarning etnik belgisi, milliy xususiyati, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ham ko‘rsatuvchi belgidir. Shu sababali ham ular

orasidagi o'zaro munosabat juda qadimdan boshlangan. Ko'plab kishi nomlarining joy nomiga yoki aksincha joy nomlarining kishi nomlariga aylanishi xuddi ana shu faktor bilan izohlangan.¹²⁹

«Firdavs ul-iqbol»da shaxs nomlari bilan ataluvchi oronimlar ham uchraydi. Bular Ko'hi Chag'ro (Ko'hi Sulton Uvays) tog'i.

Ko'hi Chag'ro tog'i ko'hi Sulton Uvays nomi bilan o'sha davrda ham, xuddi hozirgidek, ziyoratgoh sifatida mashhur bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu oronim orolning janubi sharqidagi Qizilqumning g'arbiy chekkasida joylashgan. Sulton Uvays Qaraniy hazratlarining afsonaviy qabri joylashganligi sababli shunday nom olgan va u hozirgi kunda Sulton buva deb ataladi. Ushbu tog' haqida Z. Do'simovning «Xorazm toponimlari» monografiyasida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: «Qadimgi yozma manbalardan biri «Nuzhat-al-mushtak» qadimgi o'g'uzlarning yashagan joylari haqida ma'lumot berar ekan, ularning Orol dengizi bo'ylarida yashaganligini va bu dengiz (yoki Xorazm ko'li) bo'yidagi tog' Chakrao'guz deb nomlanganini qayd etadi. S. G. Agadjanov manbalarda tilga olingan Chakrao'guz (o'zg'uz tog'i) hozirgi Sultonuvays tog'i ekanligini aytadi».¹³⁰ Shuningdek, yana bir o'rinda bu nom diniy tushunchalar bilan bog'liq antropotoponimlar tipiga kiritiladi.

Shayx Jalil tog'i Ko'hi Chag'ro (Sulton Uvays) tog'ining bir qismi bo'lib, unda Shayx Jalil hazratlarining muborak qabri joylashgan. Bu maskan ham hozirgi kunda muqaddas ziyoratgoh xisoblanadi.

Ul kecha xuftan chog'i er arkonig'a andak zilzila voqe bo'ldi. Bu manzil da ikki kun tavaqquf voqe bo'lub, avvalg'i kun hazrat sultoni Yamaniy Uvays ibn Omir al-Qaraniy qadasallohu sirrauhuning qadamgohig'akim, Kuhi Chug'roda voqedur, holo ul tog'ni SHayx Jalil tog'i derlar, tashrif eltib, ziyoratg'a musharraf bo'ldi.

Demak, ushbu misoldan ham ko'rinib turibdiki, Shayx Jalil tog'i Ko'hi Chag'ro (Sulton Uvays) tog'i o'sha davrlardan buyon bugungi kunga qadar muqaddas ziyoratgoh hisoblanib kelmoqda.

¹²⁹ Do'simov Z. Xorazm toponimlari. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1985, 94 – 95-betlar.

¹³⁰ Do'simov Z. Xorazm toponimlari. Toshkent, "Fan", 1985, 84-bet.

2.3. Gidronimlar

“Firdavs ul-iqbol” asaridagi gidronimlarni ular tarkibida ishtirok etgan indikatorlarning turiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Suv//suy indikatorli nomlar: *Qo‘zg‘on suyi, Yangi suv, Yuvon suyi, Xirmantav suyi, Sunbor suyi, Garmob suvi, Ko‘zsiz suyi, Kot suyi.*

Dengiz//tengiz indikatorli nomlar: *Achchiq tengizi, Tavqara tengizi, Mozandaron tengizi.*

Qudug//quyi indikatorli nomlar: *Yakka quduq, Eltija quduq, Ujorli quduq, O‘rta quyi, Xon quduq, Sho‘rquyi, Serob quduqi, Zamon quduqi.*

Ko‘l indikatorli nomlar: *Uyg‘ur ko‘li, Qaro ko‘l, Mochon ko‘li, Nukuz ko‘li, Budoy ko‘li.*

Ariq //nahr//arna(ba‘zi shevalarda(mas., Xorazm shevasida) bosh kanal)¹³¹ indikatorli nomlar: *Qo‘ng‘rot arig‘i, Qo‘l yorg‘on arig‘i(nahri), Eshim arig‘i, Sorimoy nahri, Tangriyor arnasi, Omu, Boshqird arig‘i, Bog‘lon arnasi, Karvak arnasi, Ixlos arig‘i;*

dengiz - /dan-giz/ xor-turk

to‘ng‘irtqa - /ton-yort-qa- xor. suv o‘tish joyi

to‘ng‘ir - /tong-ir/ xor.

salma - /sal-oqar; mo‘-suv/ f+a.

Anhor-nahr, daryo. ar.

Toshsoqa – gidronim turk+ar. Xorazmdagi kanalning nomi.

Sir – ko‘p, suv /serob, purob, sirop/ Sircha – suv joyi

Sarjaq – suvga ega joy, Qoraqumdagi mashhur quduqning nomi. “Va ta’rix yeti yuz ellik sekkiz(hijriy 759/1357-58)da Berdibekxonning valiahdligin vasiyat qilib, haq rashmatig‘a ketti. Muddati hukumati o‘n yeti yil erdi va Saroyjiqda madfun bo‘ldi”. (76-b).

Hayvak qudug‘i. Oldin Xayvanik deb atalgan. Xeyvanik nomli kanal ham bo‘lgan. Qudug nomidan shahar nomi kelib Chiqqan. Xey-tirik (Xeyvan-tiriklik). XIX asrda kanalning nomi Xeykanik yoki Xeyvanik bo‘lgan.Xiva-k

¹³¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild.2006. 99-bet.

yoki Xiva - q.

Daryo, ko'llar, soylar, kanallar:

G'o'vukko'l – Xiva tumani hududida joylashgan. G'o'v – qum degan ma'noni anglatadi. Haqiqatan ham G'o'vik ko'lining tagi qumloqdir.

Sho'rko'l –Yangiariq va Xiva tumani chegarasida joylashgan. Hozirda Katta Sho'rko'l nomi bilan yuritiladi. Haqiqatan ham suvi sho'rdir.

Qosimko'l –Xiva tumanida joylashgan. Qosim devonning nomi berilgan o'ram. Hozirda posyolka.

Polvonyop – kanal nomi. Xazorasp, Bog'ot, Honqa va Xiva tumanlari hududidan oqib o'tadi. Mashhur Pahlavon Mahmudning nomi berilgan. Rivoyatlarga ko'ra bu kanalni Pahlavon Mahmud qazdirgan emish. Pahlavon ota arig'i, Polvon yop deb ham yuritilgan. Ilgarigi nomi boshqacha bo'lgan.

Zey yop – Qo'shko'pir tumanida joylashgan. Haqiqatan ham Zey yop atrofiga zah tortiladi.

G'ovukyop – Xiva tumanida joylashgan. G'o'vik ko'lga quyadigan yopning nomi.

Arashon-sanskritcha arasan-obi hayot

- **quduqlar nomi:** *Dali quduq, Dengiz quduqi, Zamon quduqi, Ko'r quduq, Serob quduq, Sog'cha quduq, Ujorli quduq, Uch oji quduq, Yakka quduq,*

- **dengizlar nomi:** *Oqcha tengizi, Bahirai Xorazm (Ochchig' tengiz) Xorazm tengizi;*

- **daryolar, soylar nomi:** *Ayg'ir arig'i, Ashob suyi, Badrxon arig'i, Balx daryosi, Kichkina daryo, Omonquli arig'i, Poyanda arig'i, Xo'jand daryosi, Sir, Qazoq daryosi;* Arna-qadimgi eroncha Ar(ir)-suv, sanskritcha arnas-suv oqimi, "Ar" so'zi botir, mard, bahodir, pahlavon demakdir. Arshak esa-shak(sak)larning botiri ma'nosini anglatadi. V.G.Lukonin Arshakni qadimgi pahlaviycha Kavi Arshon-bahodir kamonchi nomi bilan bog'laydi.

Beruniy Arshakni Xorazmning mifologik qahramoni Siyovushdan tarqalgan deb hisoblaydi.

Urbanoim: (lotincha “urbos” – shahar) ya’ni qishloq hamda shaharlarning nomlari

“Firdavs ul-iqbol” asaridagi gidronimlarni o’rganish mobaynida shunga amin bo’ldikki, shaxs nomi bilan bog’liq gidronimlar, ya’ni antropogidronimlarni ko’plab uchratishimiz mumkin. Shaxs nomi bilan yuritiluvchi tarixiy gidronimlarda avvalgi nomi bugungi og’zaki talaffuzda turli xil fonetik o’zgarishlarga uchragan yoki nomlari o’zgargan. Shuningdek, bu o’zgarishlarga suv obyektlarining yangidan qazilishi ham sabab bo’ladi. Bu holda gidronim nomi ham yangidan o’zgarish kasb etadi.

Lavdon arnasi. *“Alarg’a ruxsati insirof berilgandin so’ng oyning oltisida ...Lavdon qirog’ida qo’nib, chahorshanba kuni Xo’jaeli nohiyatig’a vorid bo’ldi”.*

Gidronim Lovzorboy nomli shaxs nomi bilan atalgan. Bayoniy uning nomlanishi haqida quyidagicha ma’lumot beradi “Lavzonboy deb atalgan allaqanday qoraqalpoq o’zining xususiy ekinlarini sug’orish maqsadida kichkina ariq qazgan. Natijada shu ariqqa o’tib ketgan va tarmoq hosil qilgan qadimgidek Lovzonboy nomida qola bergan”¹³²

Bu gidronim Lavzon, Lovdon singari ikki variantdagi nomda ham uchraydi. Chunonchi, Ogahiyning “Shohid ul-iqbol” asarida Ludon shaklida beriladi. Ammo “Firdavs ul-iqbol”dan keltirilgan yuqoridagi parchada gidronimning Lavdon varianti keltirilganini ko’rdik, ya’ni gidronim tarkibida fonetik o’zgarishi yuz bergan: *Luvdon>Ludon>Lovzon >Lavdon*. Demak, toponim shaxs nomidan kelib chiqqan.

Shohobod arnasi. Gidronim shoh+obod; ya’ni «shoh obod qilgan» degan ma’noni anglatib, og’zaki nutqda, keyinchalik, “shovot” deb talaffuz qilingan. Bu yerda “h” bo’g’iz undoshi tushib qolgan, so’zning qisqarishi natijasida bir “o” unlisi ham tushib qolgan. Shuningdek, tovush almashish hodisasi yuz berib, **b>v** ga, **d>t** ga o’tgan.

Arna Anushashoh hukmronligi davrida qazilgan. Anushashoh shoh un-

¹³² Madrahimov O. O’zbek tili o’g’uz lahjasining kichqacha qiyosiy lug’ati. Urganch, “Xorazm”, 1999.

vonini olishi bo'yicha ham tarixda turli qarashlar mavjud. Anushaxon Eron qo'shinlariga kuchli zarba berib, Mashhad shahrini qo'lga kiritdi. Bu shahardagi Eron shohining taxti ham Anushaxon qo'liga o'tadi va o'ziga shoh unvonini qabul qiladi. Shohobod arnasi 1681 yilda qazilib, ishga tushiriladi. Kanalning markaziy qismida atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan bir qal'a qurilib, unga Shohobod qal'asi nomi berilgan. Demak, kanal uni kazdirgan shaxs, ya'ni shoh tomonidan qazilganligi uchun Shohobod deb nomlangan.

G'ozibod origi va G'ozibod qal'asi. *“Va muzohamat vubolin bo'yunla-rig'a oldilar, lojaram ul hazrat hamul bedavlatlarning tanbehi uchun G'ozibod ariqining suyin G'ozibod qal'asining ustidin bog'latib, ul jamoaning mazra'alarig'a suv o'tkormay, umidlari ziroatin hirmon samumi bila qurutdi”* (101-6.). Ariq va qal'a nomini XVII asrda hukmronlik qilgan Abulg'oz Bahodirxon bilan bog'lashadi. Haqiqatdan ham, shunday. Buni tarixga oid kitoblar ham tasdiqlaydi.

Xorazmning eng eski ariqlaridan Madra kanali tamoman qaytadan qazilib, ishga tushirildi.¹³³ Bu kanalga G'ozibod arna deb nom qo'yildi. Shu kanal oyog'ida G'ozibod qal'asi ham bunyod etildi. Bu qal'a Xorazmni cho'ldan bo'ladigan hujumlardan himoya qilish vazifasini bajardi.

Kanal G'ozibod kanali sifatida birinchi marta Anushashohning o'g'li Arangxon yorlig'ida uchraydi. *G'oz* so'zining lug'aviy ma'nosi “g'olib” bo'lib, tarixda ayrim xonlar (masalan, *Sultong'oz*, *Muhammadg'oz*, *Abulg'oz*)lar o'z ismlariga bu qo'shimchani qo'shganlar. Demak, g'oz nomga qo'shilgan qo'shimchadir. G'ozibod toponimni ayrim fonetik o'zgarishlarga uchrab, G'ozovot shakliga kelib qolgan. G'ozovot – qo'zg'olon ma'nosida ham tushunish mumkin. Ammo biz yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda, Abulg'oz nomi bilan atalgan deymiz. Demak. G'ozibod so'zida og'zaki nutqda “i” tushib qolgan, chunki o'zbek tilida ikki unli birika olmaydi. Shuningdek, bu erda tovush almashishi ham yuz bergan: **b>v** ga, **d>'t** ga o'tgan,

¹³³ Xorazm tarixi. Urganch, 1996, 204-bet.

natijada G'ozovot shakliga kelib qolgan.¹³⁴ Demak, aytish mumkinki, asarda kishi nomlari asosida yuzaga kelgan joy nomlari ko'plab uchraydi.

2.4. Etnonimlar.

Etnonim (*etno...* va *onyma* – ism, nom) – urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqa xil etnik uyushmalar nomi. Biror tildagi etnonim lar majmui etnonimiya deb yuritiladi. Urug', qabila, xalq nomi o'zi tomonidan tanlangan yoki o'zgalar (ko'pincha qo'shni etnoslar) tomonidan berilgan bo'lishi mumkin. Etnonim etnosning o'zi tomonidan tanlangan bo'lsa – avtoetnonim: o'zgalar tomonidan nomlangan bo'lsa – allogen (ekzogen) etnonim deb yuritiladi.

Etnonimika – leksikologiyaning *etnonimlarni* o'rganuvchi bo'limi. Etnonim tilshunoslikning *onomastika* sohasi tarkibiga kiradi. Etnonim ma'lum etnos tilidagi urug', qabila, elat, millat va boshqa xil etnik birliklar nomini to'plash, ularning paydo bo'lishi, nomlanishidagi asosiy motivlar, nomlarning lug'aviy tarkibi, undagi subtrat va adstrat materialning o'rne, etnonimlarning ma'no va etimologiyasi, yasalishi, etnonimik lug'atlarni tuzish tartib-qoidalari kabi muammolar bilan shug'ullanadi. O'zbek tili etnonimlarga boy bo'lib, ular negizida xalqning qad. totemistik tasavvurlari (bahrin, toyloq, lochin, qarg'a, qoraqush, ilonli, kaltatoy), tamg'a, maxsus belgilarga asoslanish (taroqdi, to'g'ai, qaychili, qo'shtamg'ali, o'roqli, bolg'ali), son, mikdor tushunchalriga tayanib nomlash (ming, qirq, mang'it, nayman, oltio'g'il, beshbola, to'rtuyli, beshuyli), hajm, shakl tushunchalari (kattajuz, kichikjuz, parchayuz), rang-tus bilan bog'liq tushunchalar (oqmang'it, oqtana, oqtelpak, oqto'nli, qoratelpak, qora-mang'it, qoranayman, olako'ylak, olato'n), etnosning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, mavqei (beklar, beklarto'pi, boylarto'p, mirzato'p, malikbachcha), etnosning kasb-kori (ayronchi, kiyikchi, iyarchi, baydoqchi, tevachi, to'nchi, tug'chi, shotirchi, ovchi, mergan, mirishkor), etnosning yashash joyi, urug', qabila boshliqlarining nomlari yotishini ko'rsatadi.

Turkiy etnonimini, jumladan, o'zbek etnonimini o'rganish ishiga taniqli turkiyshunoslar N.Aristov, V.V.Radlov, V.V.Bartold, S.P.Tolstov,

¹³⁴ Xorazm tarixi. Urganch, 1996, 203-bet.

S.M.Abramzon, L.V.Gumilyov, D.E.Eremeev, N.A.Baskakov, L.V.Zuev, A.N.Xanikov, B.A.Jdanko, B.X.Karmisheva, A.A.Valitova, S.Ataniyozov, D.Aytmurodov, R.G.Kuzeev; o'zbek olimlaridan Yahyo G'ulomov, B.Ahmedov, K.Shoniyoov, A.Muhammadjonov, X.Doniyorov, S.Gubaeva, T.Nafasov, A.Otajonova va boshqalar munosib hissa qo'shdilar.

Etnonim o'z tahlillarida tilshunoslikdan tashqari tarix, etnografiya, geografiya, psixologiya, dinshunoslik va boshqa fanlarning ilmiy usullaridan ham foydalanadi.

Etnonimlar xalq tarixi va tili uchun qimmatbaho material hisoblanadi¹³⁵. “Firdavs ul-iqbol”da uchraydigan etnonimlar lug'aviy tarkibiga ko'ra ikki xil:

1. Yakka holda uchraydigan etnonimlar: *mang'it, qatag'an, Chiychut, qiyot, turk, uyg'ur, o'zbek, qozoq*.

2. Tarkibida izohli so'zlar bo'lgan etnonimlar. Bunda etnonim urug', el, xalq so'zlari bilan birgalikda keladi: *ildurkin urug'i, yasut urug'i, budat urug'i, ungut eli, qarluq eli, uyg'ur eli, qiniqli eli, tatar xalqi, tibet xalqi, jaloyir xalqi* kabi.

“Firdavs ul-iqbol”da ishlatilgan etnonimlarning ko'pchiligi aslida (tarixan ham) xalq, el, urug' yoki nasab ma'nolarini bildiruvchi so'zlar bo'lgan. “Firdavs ul-iqbol” tilida uchraydigan etnonimlarning ayrimlari laqablardan kelib chiqqan. Munis va Ogahiyalar o'z va o'zlashma qatlamga mansub bir qator etnonimlarning ma'nolarini izohlagan. Bunday izohlar ko'p holda ilmiy jihatdan munozarali bo'lsa-da, nomlarni talqin etish va tushunishning bir ko'rinishi sifatida diqqatga molikdir. “Firdavs ul-iqbol”da o'z ifodasini topgan bunday nom va atamalarning ko'pchiligi mo'g'ul tiliga mansub.

Qipchoq – kelib chiqishi jihatidan turk-mo'g'ullarga mansub qabila. Qoraqalpoq qipchoqlari o' n to' rt urug' qoraqalpoq tarkibiga kiradi. U urug' lar olti ota, yeti qushi guruhlariga bo' linadi.

Qipchoqlar Yangi bozor, Beshyop volostlarida va Amudaryo bo'limining Chimboy uchastkasi Ko'ko'zak, Nukus hududlarida yashagan.

¹³⁵ Etnonim. – M.: Nauka, 1970.; Qoraev S. Etnonimika. Toshkent: O'zbekiston, 1979. 10-11-b.

1912 – 1913 yilgi ro‘yxatdan ma’lum bo‘lishicha, Beshyopda 399, Ko‘ko‘zakda 196, Nukusda 153, Chimboyda 469, Yangi bozorda 215, Navparda 68 xo‘jalik yashagan. Qoraqalpoq qipchoqlarining soni, Xiva Davlat arxivi ma’lumotiga qaraganda, 2 mingga boradi.

Qipchoqlarning ko‘pgina qismi Qipchoqyof atrofiga, Kegeylining o‘ng qirg‘oqlariga joylashgan. Qipchoq qal’a, Oqjoqish atroflarida ham qipchoq qabila urug‘larining yerlari bo‘lgan. Xiva Davlat xujjatlaridan ma’lum bo‘lishicha, qipchoqlar 1020 xo‘jalikdan iborat bo‘lib, xonlikka 224 navkar, 672 qazuvchi berishga majbur bo‘lgan. XIX asrda qipchoqlarning Pirmuhammad, Beknafas, Sarim, Rajab, Oluchi, Xoniyor, Pahlavon Niyoz, Xolmuhammad, Qulmurod kabi biylari: Jonmuhammad, Hasanboy kabi harbiy boshliqlari bo‘lgan.

“...otini Qipchoq qo‘ydi. Qadim turk tilinda ichi bo‘sh yog‘ochni qipchoq derlar erkandur. Aning uchun ul o‘g‘lon yog‘och ichinda tug‘di teb, otin qipchoq qo‘ydilar. Bu vaqtda ham ichi bo‘sh yog‘ochni qipchoq deytururlar. Qora xalqning tili kelmasligidan qofinchim o‘qiy tururlar”¹³⁶.

Qatag‘on – urug‘ nomi.

Qahramon – urug‘ nomi.

Mang‘it (manqit) – o‘zbek va qoraqalpoq qabilasining nomi. Oris o‘n to‘rt urug‘ tarkibiga kirgan qabila. U qabilaga to‘rt guruhga bo‘lingan 19 urug‘ kiradi;

a) Qorator urug‘lari: qora mang‘it, qora siray, oq mang‘it, moliki, ko‘sar, kilkali (xilxali);

b) Soritoy urug‘lari: orshon, jonliq, to‘q mang‘it, ersori, toza jolliq, shuyit, jomonsho, eseba, tang‘ali, tong mo‘yin, temir xo‘ja;

c) Bo‘ztoy, oldin urug‘larning katta birlashmasi hisoblangan, hozirgi vaqtda bir urug‘ nomiga mansub bir qancha xo‘jalik mavjud;

d) Jetimtoy, eshbuga tarkibidagi urug‘ bir qishloqda qolgan.

Mang‘it qabilasining umumiy soni 11791 kishi hisoblangan. 70 foizi

¹³⁶ O. Jalilov. XIX – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. Toshkent: Fan nashriyoti. 1977.

Kegaylida yashagan.

1928-yillardayoq Qozog‘istonni o‘rganish Jamiyati ekspeditsiyasining ko‘rsatishicha, ko‘p sonli mang‘it urug‘lari uch bo‘limga: oq mang‘it, qora mang‘it, to‘q mang‘itga bo‘lingan. Buxoro xonligidagi o‘zbek mang‘itlari ham uch bo‘limga: oq mang‘it, qora mang‘it, to‘q mang‘itga bo‘lingan.

Xiva Davlat arxivi ma‘lumotlaridan aniqlanishicha, mang‘it qabilasi uch tebadan: oq mang‘it – julut onja 75 otli, 375 xo‘jalik 5 biy; Uchtoy – 59 otli, 295 xo‘jalik, 2 biy; qora mang‘it – 88 otli, 440 xo‘jalik, 4 biylikdaniborat bo‘lgan.

XIX asrning II yarmi – XX asrning boshlarida mang‘itlarning Xudoynazar va Sohob Nazar, Yusuf, Do‘stmuhammad, Usmon, Davlat kabibiylari; To‘lobbergan kabi yuzboshilari bo‘lgan,.

Kanagas – urug‘ nomi.

Qo‘ng‘irot – joy, qabila, urug‘ nomi. O‘zbek va no‘g‘ay, qoraqalpoq xalqlari etnik tarkibida qo‘ng‘irot nomli qabila va urug‘i bo‘lgan.

Qoraqalpoqlarda qo‘ng‘irot nomli katta urug‘-qabila guruhi bo‘lgan. Qoraqalpoq qo‘ng‘iroti shulluk va jovung‘urdan iborat ikki qismga bo‘linadi. “Segiz tomg‘oli shulluk” deb ataluvchi shulluk bo‘limiga qiyot, ochamoyli, qo‘ldovli, qo‘shnamg‘ali, bolg‘ali, xandakli, qoramo‘yin qabilalari kiradi. Jovung‘ur bo‘limiga terstamg‘ali, boqonli, tiyoqli, erg‘oqli, boymoqli, qozoyoqli, uyg‘urdan iborat yeti urug‘i kiradi.

Qo‘ng‘irot qabila-urug‘larining asosiy qismi Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, Xiva xonligiga qarashli yerlarda joylashgan. Jovung‘ur urug‘lari Xiva xonligi, Chimboy begligi, Qo‘ng‘irot shahrining janubiga joylashgan.

1912 – 1913 yilgi ro‘yxatda oris qo‘ng‘irotlar Sirdaryo viloyati Amudaryo bo‘lim, Chimboyga qarashli hududlarda 8990 xo‘jalik, 54839 kishidan iboratligi aniqlangan.

Qiyot – urug‘ nomi.

Mazkur urug‘ nomi asarda ham qiyot (o‘zbek), ham qiyot (qoraqalpoq), ham qiyot qo‘ngrot urug‘lari sifatida qo‘llangan.

Misol: “...Salloq sardor rufaqosi bila Qo‘ngrotni poymoli turtkoz qilib,

...qo'ngrot va o'zga ellardinkim, aning bila muxolifat amrida muttafiq bo'lib erdilar, ikki yuz kishi yig'nab, qiyot mufsidlaridin Suyunbiyning oqosi Qurbonbekni sarkarda qilib, qaroqalpoq eylotin chopturmoqq'a namzod qildi". (344-bet).

Qiyot – o'zbek va qoraqalpoq qabila urug'ining nomi.

Qiyot qabilasi Oris qo'ng'irot Shulluk bo'limi tarkibidagi qabila. Uchtamg'ali, taroqli va bolg'ali urug'larining ba'zan qiyot qabila tarkibiga kirib qolganini uchratamiz.

Arxiv ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, qiyotlilar 443 xo'jalikdan iborat bo'lib, xonlikka 88 navkar, 262,5 qazuvchi berishga majbur bo'lgan. Taxminan XIX asr o'rtalarida xonlikka yiliga 442,5 tilla soliq to'langan.

Qiyotlarning Sodiq, Sayid, G'ozi, Qodirbergan biy, Abdullo, Jumaniy, Hasan kabi harbiy boshliqlari bo'lgan.

Xitoy – urug' nomi.

Ochamoyli oqoy xalqi – ochamoyli qabilasiga mansub urug'.

Ochamoyli qabilasi ba'zi manbalarda oshamoyli deb ham yuritiladi. Lekin "Firdavs ul-iqbol"da ochamoyli bo'lib ishlqtilgan. Ochamoyli asli qoraqalpoq qo'ng'irotishulluk bo'limi tarkibidagi qabila. Ushbu qabila 13 urug'dan tashkil topgan. XIX asrning o'rtalarida ochamoyli qabilasi 790 ga yaqin xo'jalikdan iborat bo'lib, xonlikka har yili 260 dan ko'p qazuvchi berish majburiyatini bajarib kelgan.¹³⁷

Asarda ham shunday o'rinlarda qo'llangan: *"Ul kun aholii Orolg'a raabu haros istiloi tamom topib, ochomoyli va ko'ko'zaklikim, Qo'ngrotning muazzam qaboilidindur, ul ikki uruqning ba'zi akobiri suddai xilofat mulozimlarig'a yashirin kishi yubordilar."* (364-bet)

Bayot – "Bayotning ma'nosi davlatli temak bo'lur"

Sort – urug' nomi. Sart – oktabr revolyutsiyasigacha urug'larga bo'linishni yo'qotgan bir qism o'troq o'zbeklar sart deb atalgan. Yevropaliklar

¹³⁷ O. Jalilov. XIX – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. Toshkent: Fan nashriyoti. 1977.

Oktabr revolyutsiyasigacha hozirgi O'zbekiston hududidagi mahalliy aholi vakillarini sartlar deb atashgan. Rus sayyohi Danilevskiy yozadi: "Sartlar xonlikda yashovchilarning o'zagini tashkil etuvchi va o'troqlikda ustunlikni tashkil etgan qabila. Osiyoliklar xivaliklarning hammasini sartlar deb atashadi. Ular shaharda yaxshi hayot kechiradilar, dehqonchilik hamda savdo ishlari bilan shug'ullanadilar. Xon bilan qushbegini hisoblamaganda hukumat xodimlari sartlardan. Hamma vazifa – izzat-hurmat, shahar va axon mol-mulkini boshqarish ham shularga topshirilgan. Xonlikda sartlar XIX asr o'rtalarida 20 ming xo'jalikni tashkil etgan".

Misol: Amoratpanoh va ayolatdastgoh Boltaniyoz oqo va Muhammadamin oqo va Ko'chak arbob va Muhammad arbobnikim, **sort jamoasi** (Xorazmning asl mahalliy o'g'uz xalqi)ning marjai ilayh (murojaatgoh, odamlar o'z masalalari bilan yordamga boradigan joy, kishilar)i erdilar.. (170-bet).

Boshqird – urug' nomi.

Sori urug'i – kenagas qabilasiga mansub tera.

Juryon – urug' nomi.

Naymon xalqi – bu yerda nayman qabilasiga mansub urug'. "... Va kuntug'ar bila qibla oralig'in uyg'ur va naymon sipohig'a berib, Karimberdi otoliq va O'rozali inoqning uhdasida qildi. Va qibla bila kunbotar mobaynin nukuz-manqit lashkarig'a tavsif qildi".

Nayman, naymanlar – o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, no'g'oy va oltoy xalqlari tarkibiga kirgan kabila uyushmasi. Rus etnografi A.D.Grebenkinning 19-a. 70-y.larida bergan ma'lumotiga ko'ra, o'zbek nayman Zarafshon vodiysi (63 ta qishlog'ida), Farg'ona vodiysi, Xorazm vohasi, Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo va Surxondaryoning Termiz tumanida ko'ng'irotlar bilan birga yashab kelishgan. Keyinchalik dastlab Afg'onistonning Balx viloyatiga, so'ngra Zarafshon vodiysiga ko'chib ketishgan.

O'zbek naymanlari 19-a. oxirida 3 ta yirik uruqqa bo'lingan: qo'shtamg'ali, sadirbegi, uvaxtamg'ali. Bulardan tashqari, naymanda bir qancha

urug' bo'limlari ham mavjud bo'lgan: agran, ayronchi, badir, biya, bog'anali, boltali, bukalay, burunsov, jagalboyli, jostovon, jilonli (ilonli), jumaloq bosh, olti ota, olti o'g'il, oq tunli, segiz uruv (sakkiz urug'), sari-nayman, turtul (to'rt o'g'il), to'rttamg'ali, urguch, ukrash, changali, cho'michli, g'ozoyoqli, qoragadoy, qorasirak, qar-g'ali, qiltamg'ali, kultamg'ali va boshqalar. Narpay tumanidagi po'latchi, ulus, zarman, kichkildik, osnayman. Achchili nayman, kattaki, nayman, to'rg'oq nayman, uyshun naymanlarga qam bo'lingan.

O'zbek nayman avlodlarini boshqa qavmlar tarkibidan ham uchratish mumkin. O'zbek-saroylarining eng yirik to'rt urug'idan biri nayman-saroy deb nomlangan. Shuningdek, qipchoqsaroyda chorkusa nayman, qo'shtamg'ali saroy va qo'ng'irot saroyda ham nayman tarmog'i bor. Hattoki o'zbek kenagaslari va juzlari tarkibida ham nayman shoxobchasi uchraydi. Bu holat o'zbek qavmlarining etnogenezi mushtarakligidan, o'zaro etnogenetik va etnomadaniy aloqalardan dalolat beradi.

Naymanlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Boshqirdiston, Tatariston va Mo'g'uliston hududlarida ham yashaganlar.

Naymanlarning kelib chiqishi munozarali. Bir guruh olimlar (I. N. Berezin, V. V. Bartold, B. Y. Vladimirtsov va b.) Naymanning etnogenezini mo'g'ullar b-n bog'laydilar. Ular «nayman» so'zining etimologiyasini (mo'g'ulcha «sakkiz», «sakkiz qabila») o'z fikrlariga dalil qilib ko'rsatadilar. Ikkinchi bir guruh esa (N. A. Aristov, X. Xovorst, S. A. Amanjolov va b.) esa Naymanni turk deb hisoblaydilar. Qadimgi Sharq qo'lyozmalarida hamda O'rxun yozuvlarida «sakkiz o'g'uz» qabilasi ittifoqi tilga olinadi. Ular yashagan erlarni X asr o'rtalarida kidanlar ishg'ol etganlar. Sakkiz o'g'uzlar kidanlar tomonidan tobe etiladi, kidanlar ularni nayman deb atay boshlaganlar. Demak, nayman aslida turkiy xalqlardan bo'lganlar. Naymanlar VIII asr o'rtalarida Baykal ko'lining janubda yashaganlar. IX asr o'rtalarida ular Urxun daryosining yuqori qismidan to Tarim va Qora Irtishgacha bo'lgan erlarni egallaydilar. Keyinchalik Nayman egallab turgan yerlarning chegarasi Xonboy va Oltoy tog'larigacha etgan. Ular sharqda, *kerayitlar*, shimolda qirg'izlar, g'arbda

qang'lilar, jan.da esa *uyg'urlar* bilan chegaradosh bo'lganlar. XII asrning o'rtalarida Naymanlar kuchayib, Markaziy Osiyoda o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Nayman davlati XIII asr boshigacha, ya'ni *mo'g'ullar istilosiga* qadar mavjud bo'lgan. Naymanlarning oxirgi xoni — Tayanxonning poytaxti Jarshiznaur degan (Qoraqurunga yaqin) joyda joylashgan.

1204-yilda Naymanning katta bir qismi *mo'g'ullarga* tobe bo'ladi. *Mo'g'ullarga* itoat etmagan Nayman esa Balxash ko'lining g'arbidagi cho'llarda, janubda Olako'l bo'ylarigacha bo'lgan erlarda, Sirdaryo bo'ylarida, Ulug'tog' hamda Ishim daryosi bo'ylarida yashaganlar. Sirdaryo bo'ylaridagi N.ning katta qismi keyinchalik Xorazmga va Movarounnahrga ko'chib kelib o'rtnashganlar. Ular asta-sekin o'troqlashib, erlik xalqlarga aralashib ketganlar.

Qozog'iston cho'llarida ko'chib yurgan Naymanning bir qismi *Shayboniyxoniing* Movarounnahrga qilgan yurishlarida faol qatnashgan. XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida ular hozirgi O'zbekiston hududlariga ko'chib o'rtnashgan. Naymanning Dashti Qipchoqda qolgan qismi esa qozoq, qoraqalpoq va no'g'oylar tarkibiga kirgan. Naymanning deyarli ko'pchiligi XIII asr boshlarigacha xristian dinida bo'lgan. Ularning bir qismi esa qora kidanlar ta'sirida budda dini-ni ham qabul qilganlar. Ammo Nayman e'tiqodida ibtidoiy dinlarning, xususan shamanizm qoldiklari kuchli bo'lgan. XIII–XIV asrlar davomida Naymanlar islom dinini qabul qilganlar.

O'zbek Naymanning ko'pchilik qismi Zarafshon vodiysida (Pastdarg'om va Narpay tumanlarida) o'troq holda yashab, ko'pincha dehqonchilik bilan mashg'ul edi. Ular tomli (paxsa, cho'pkori) uylarda yashaganlar. O'troq Naymanning boylari chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Jom cho'li, O'rtacho'l, Zirabuloq tog'ida yashovchi Naymanning asosiy mashg'uloti chorvachilik hisoblangan. Bular ko'pincha qorako'l qo'ylari, tog' va tog' bag'irlarida yashaganlari esa jaydari qo'ylar, qoramol, tuya va ot saklaganlar. Chorvador Naymani o'tovlarda yashaganlar. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida o'zbek naymani ham boshqa qabilalar kabi o'troq o'zbeklar tarkibiga

singib, mazkur xalqning shakllanishida faol qatnashganlar.¹³⁸

Chig‘atoy – urug‘ nomi.

Arab – 1. Osiyoning Fors qo‘ltig‘i bilan O‘rta dengiz orasidagi qismida va Shimoliy Afrikada yashovchi, somiy tillardan birida so‘zlashuvchi xalq, millat nomi.

2. Shu xalq (millatlarga mansub shaxs, mamlakat va shu kabi).

Asarda “A‘rob” tarzida ham qo‘llangan bo‘lib, bu “arab” ning ko‘pligidir.

Afg‘on – 1. Afg‘onistonning tub aholisini tashkil etuvchi xalq (millat)ning nomi.

2. Shu xalq (millat)ga mansub: Afg‘on tili, Afg‘on ayoli kabi.

Uyg‘ur – “Uyg‘ur turkiy tili turur, ma‘nosi barchaga ma‘lum turur, yopishg‘ur ma‘nosina turur. Ayturlar sut uyudi. Sut ekanida bir-biridin ayrilur erdi. Qatiq bo‘lg‘andin so‘ng bir-biriga yopisha turur”.

Uyg‘ur – oris qo‘ng‘irot urug‘-qabila tarkibidagi yeti tamg‘ali Jovung‘ur bo‘limiga mansub urug‘. Bu urug‘ ularning tarkibiga keyinroq kirib qolgan bo‘lishi mumkin.

Qoraqalpoq uyg‘ur urug‘i 240 xo‘jalikdan iborat bo‘lib, xonlikka 48 otli, 144 qazuvchi berishga majbur edi. Uyg‘ur “Devonu lug‘otit turk” ma‘lumotiga qaraganda, Sulmi, Kuju, Jonbaliq, Beshbaliq, Yangibaliqdan iborat bir o‘lkaning nomi. U keyin xalq nomiga aylanib qolgan. Ular turk tilida gaplashgan, 24 harfli yozuvi bo‘lgan. Uyg‘ur so‘zi xud xo‘r (o‘zi topib yeydigan) so‘zining o‘zgargan holi.¹³⁹

Qo‘sh tamg‘ali – qoraqalpoq qabilasining nomi, yana shu nomda ataladigan urug‘ ham bo‘lgan. U oris qo‘ng‘irot qabila-urug‘ segiz tamg‘ali shullik bo‘limi tarkibiga kirgan. Qo‘sh tamg‘ali qabilasi yetti urug‘dan tashkil topgan. Ular Amudaryoning o‘ng qismida yashagan.

Tobin – kichik yuz qozoqlari yetti urug‘ qabilasi tarkibidagi urug‘ bo‘lib,

¹³⁸ Rashid ad-din., Sbornik letopisey, t. 1., вып. 1., М. -Л., 1962; Norboyev N., Uzbek elining qabila va urug‘lari haqida, T., 1997.

¹³⁹ O. Jalilov. XIX – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. Toshkent: Fan nashriyoti. 1977.

XIX asr o'rtalarida Xorazmda xonali to'ra tomonidan boshqarilgan. Ularning Irisboy yasovul, Eshniyoz, Sori kabi biylari va Ollosh, Jonibek kabi bahodirlari bo'lgan.

No'g'ay – 1. Tatarlar

2. Rossiya federatsiyasining Stavropol o'lkasi, Dog'iston, Checheniston, Ingushiston respublikalarida yashovchi, turkey tillardan birida so'zlashuvchi xalq.

Xo'ja eli (Xo'jayli) – Munis va Ogahiyning yozishicha, Abulg'ozixon (1643 – 1663) davrida o'zbeklar to'rt tepa, o'n to'rt urug'dan iborat deb hisoblangan.

Xo'jayli qo'rg'oni aholi yashaydigan punktlarning markazlaridan. U karvon yo'lida joylashgani uchun Shimoliy Xorazmda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Taka – turkman qabilalaridan birining nomi.

Tatar – Tatariston Respublikasi asosiy aholisini tashkil etuvchi xalqning nomi. 1. Tatariston Respublikasi asosiy aholisini tashkil etuvchi, turkiy tilda so'zlashuvchi xalq;

2. Volgabo'yi Sibir va Krimda yashovchi, turkiy tillardan birida so'zlashuvchi bir qancha elatlarning umumiy atamasi.

Qalmoqlar – Rossiya federatsiyasi tarkibidagi qalmog'i Respublikasining tub aholisi, turkey tillarning birida so'zlashuvchi xalq, qalmoq xalqi.

Qizilbosh – Safaviy davrida Ozarbayjon va Shimoliy Erondagi turkey qabilalardan Eron qo'shinida xizmat qilgan va ana shu davrda sunniylarga qarshi diniy janglarda qatnashgan isha jangchilariga ularning bosh kiyimlariga qarab turklar tomonidan berilgan nom.

Qiyot – o'g'uzlar tarkibiga kirgan qadimiy qabilalardan birining nomi.

Bayot – qadimgi o'g'uz qabilalaridan birining nomi.

Barlos – tar, etn.

1. Temuriylar va boburiylar davrida asosan O'rta Osiyoning janubiy hududlarida, qisman Afg'oniston va Hindistonda yashagan, aksariyat

chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan o'zbek qabilalaridan biridir.

2. Barlos qabilasiga mansub shaxs.

Bahrin (qazoq) – turkiylashgan mo'g'ul qabilalaridan birining nomi. 1924-yil ma'lumotiga binoan, O'zbekistonda 9000ga yaqin bahrin yashagan. "OzME".

Kurd (74, 420, 433, 434, 444) – Kurdlar G'arbiy Osiyoning bir qancha mamlakatlarida (Eron, Turkiya, Iroq, Suriya) va qisman Kavkazortida yashovchi eroniy xalq.

II bob yuzasidan xulosalar

Asarda 2500 dan ortiq atoqli ot mavjud. Ulardan 1504 tasi antroponimlar, 760 tasi toponimlar, 282 tasi etnonimlar, 100 ga yaqini gidronimlardir.

“Firdavs ul-iqbol” asarida juda ko‘plab onomastik material uchratiladi. Ayniqsa, asar antroponomikasi o‘sha davr tarixining yaqqol namunasidir. Asar tilida uchraydigan antroponimlarni qanday obyektни anglatishiga ko‘ra tasniflab berilgan.

Asarda arab tili, eroniy, turkiy, mo‘g‘ul va boshqa bir qancha tillarga oid antroponimlarni uchratish mumkin.

“Firdas ul-iqbol”da 130 dan ortiq laqablar va laqab vazifasida keluvchi ko‘pgina etnonimlar, unvon va mansab nomlari, siyosiy, diniy titullar uchraydi.

“Firdavs ul iqbol” asarini chuqur o‘rganish jarayonida, aynan o‘sha davrdagi toponimlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Chunki ming yillik tarixga ega toponimlarni faqat tarixda emas, bugungi kunning asosiy joy nomlari ekanligini yosh avlod ongiga singdirish mumkin.

Asar tilida uchraydigan toponimlarni funksional-nominativ ko‘lamiga ko‘ra guruhlariga ajratib, izohlab, ko‘rsatib berilgan.

Asar toponimlarini nomlanish asosiga ko‘ra, shartli ravishda tabiiy-jug‘rofiy xususiyat ifoda qiluvchi, shaxs nomlari asosida hosil qilingan toponimlar, nomlanish asosi noaniq toponimlar kabi guruhlariga bo‘lingan.

“Firdavs ul-iqbol”da shaxs nomlari bilan ataluvchi oronimlar ham uchraydi.

Asardagi gidronimlarni ular tarkibida ishtirok etgan indikatorlarning turiga ko‘ra bir qancha guruhlariga ajratib berildi.

“Firdavs ul-iqbol”da uchraydigan etnonimlar lug‘aviy tarkibiga ko‘ra ikki xil.

Asarda ishlatilgan etnonimlarning ko‘pchiligi aslida (tarixan ham) xalq, el, urug‘ yoki nasab ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar bo‘lgan. “Firdavs ul-iqbol” tilida uchraydigan etnonimlarning ayrimlari laqablardan kelib chiqqan. Munis va Ogahiylar o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub bir qator etnonimlarning

ma'nolarini izohlagan. Bunday izohlar ko'p holda ilmiy jihatdan munozarali bo'lsa-da, nomlarni talqin etish va tushunishning bir ko'rinishi sifatida diqqatga molikdir. "Firdavs ul-iqbol"da o'z ifodasini topgan bunday nom va atamalarning ko'pchiligi mo'g'ul tiliga mansub.

III BOB: “FIRDAVS UL-IQBOL” ASARIDAGI ATOQLI OTLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI

Onomastik birliklarning grammatik tuzilishi haqida gapirish birinchi qarashda g'alatiroq ko'rinishi mumkin. Bunga sabab atoqli otning tuzilishi aslida unga asos bo'lgan turdosh leksemaga tegishlidek, atoqli otning esa o'z mustaqil tuzilishi yo'qdek ko'rinadi. Aslida unday emas. Har qanday lisoniy material aslida u qaysi grammatik hodisaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, atoqli otga aylangach, onomastik tizimning mulki hisoblanadi va uning lisoniy tuzilishi endi atoqli otning tuzilishini ifoda qiladi. “Firdavs ul-iqbol” tilidagi atoqli otlarni morfem tarkibiga ko'ra bir qancha guruhlariga ajraladi.

Morfema (yun. *morphe* – shakl) – o'ziga xos shakl va ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, so'z (leksema) yasash yoki so'zning shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik. Morfemalar o'zbek tilida, asosan, *affiks* (qo'shimcha) holatida bo'ladi.

Masalan, *-chi* (Qulonchi (86-b)), *-li* (Ko'pali (422-b)), *-ot* (Bog'ot (112, 156, 157-b)), *-xona*, (Kabutarxona (148-b)), va b.

Morfemalar asosiy vazifasiga ko'ra, 2 turga bo'linadi; so'z yasovchilar; so'zning shaklini yasovchilar. So'z yasovchi morfemalar yangi-yangi leksemalar shu jumladan, yangi atoqli otlar hosil qilish uchun qo'llanadi va o'zbek tili lug'at (leksik) qatlamining boyishida muhim rol o'ynaydi. So'z shakli hosil qiluvchi morfemalar so'zning qo'shimcha ma'no ifodalovchi shaklini yasaydi. Morfemalar mustaqil qo'llanmaydi, lug'aviy ma'no ifodalay olmaydi, faqat so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolari shakllanishiga xizmat qiladi. So'z tarkibida morfema ishtirok etmasligi ham mumkin. «Morfema» termini va tushunchasini tilshunoslikka polyak-rus tilshunosi I. A. Boduen de Kurtene kiritgan. Lekin morfemaning I. A. Boduen de Kurtene talqini bilan ushbu, hozirgi talqini o'rtasida bir qadar farq bor.

3.1. Bir va ko'p morfemali atoqli otlar

Bir morfemali nomlarning o'zini quyidagicha guruhlariga bo'lgan holda o'rganish mumkin:

Bir morfemali antroponimlar: *Turk*(74, 114, 115-b), *Sa'diy* (244-b), *Falotun* (36, 41-b), *Rustam* (108, 129, 156, 167, 184, 244, 260, 322, 413, 470-betlar), *Namrud* (51-b), *Ismoil Oto* (131-b), *Moniy* (211-b), *Yusuf* (80,94,382-b), *Havvo* (43, 44, 45-b), *Harun* (377-b)va shu kabilar.

Misol: Edi **Yusuf** taxt, misr jamol,

Bo'lub barcha oldida hayronu lol.

Yuzidin topib mehr sharmandalik,

O'pub dargah, aylar edi bandalik. (94-b)

Bir morfemali toponimlar: *Badr* (3, 396-b), *Bag'dod* (97-b), *Balx* (59-b), *Gurlon* (100, 105, 112, 147-b), *Jurjon* (84-b), *Kashmir* (59, 171-b), *Qatag'an* (148-b) va shu kabilar.

Misol: Oxir hazimat topib qochtilar va alar izidin borib, qabilalarin toroj qilib, kamoli sur'at bila yubordilar. Yo'lda Bag'dod hokimi shohona ziyofatlar qilib uzotti. (97-b).

Bir morfemali etnonimlar: *Bayot* (469-b), *Kurd* (74, 420, 433, 434, 444-b), *No'g'oy* (354-b), *Totor* (54, 58, 65, 69, 70-b), *Xitoy* (o'zbek 68, 92, 193, 202, 297, 335-b), *Shayx* (91-b) va shu kabilar.

Misol: "Panjshanba kunikim, oyning to'rtinji kunierdi, ul hazrat mutavaqqif bo'lub, Sayyidnazarbek yimrolini kurd elchilarig'a qo'shub, Rajafalixon va Rizoqulixong'a yubordi". (420-b).

Ikki morfemali atoqli otlar:

Bular o'zak va affiks morfemalardan iborat bo'ladi:

Ikki morfemali antroponimlar: *O'g'uzxon*(55 – 62, 64-betlar), *Tojibiy qiyot* (300-b), *Odinaboy bahodir* (288-b), *Rustamxon* (407, 84-b), *Davlatboy* (106-b), *Nazarbiy nukuz* (306-b), *To'shakchi* (269, 427-b).

Misol: "Va peshindin so'ng Beglarxonning a'mi Fathalixon va Rizoqulixonning inisi **Rustamxon** va vaziri Mirzo Muhammadrizo va Najafalixondin chamishgazak Qalandar bek va Nadrmuhammad bek elchi bo'lub keldilar"¹⁴⁰

¹⁴⁰ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. "Firdavs ul-iqbol". Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2010.

Ikki morfemali toponimlar: , *Mingqishloq*, *Yamg'urli* (188, 194-b), *Bog'ot* (112, 156, 157-b), *Go'zsiz/Ko'zsiz suyi* (418-b),

*Ul hazrat bu xabar istimoidin mutaassir bollub, qal'ai mazkuraning qibla darvozasining taqobilig'a borib, Yamg'urli nahrining kanorida ko'pruk oldida bamanzilai "tog'larni tutib turguvchi qildik (Qur'oni karim, 73 : 7)" kamoli sabot va g'oyati viqor bila tog'dek orom tutti.*¹⁴¹

Ikki morfemali etnonimlar: *Turbatli*, *Xorazmiylar* (229-b), *Yamg'urli* (188, 194-b), *Qulonchi* (86-b) va shu kabilar.

“Firdavs ul-iqbol” tilidagi nomlarning asosiy qismi ikki va uch morfemali tarkibga ega. To‘rt va undan ortiq morfemali nomlar kam uchraydi. Ko‘p morfemali nomlarning ba’zi namunalarini quyidagilar. Chunonchi, antroponimlarda:

a) o‘zak – antroformant-antroformant andozasidagi antroponimlar: *Berdibekxon*; *Erniyozxon*.

b) o‘zak-o‘zak-antroformant andozasidagi antroponimlar: *Hoji Muhammadxon*, *Dinmuhammadxon*, *Nurmuhammadxon*, *Nodirmuhammadxon*, *Abdulmo‘minxon*, *Nuridavlatxon*.

Munis va Ogahiyilarning tarixiy asari “Firdavs ul-iqbol”da morfologik usulda yasalgan atoqli otlarning deyarli barchasi suffikslar orqali yasaladi. Xususan, *-bon*, *-li*, *-chi*, *-gar*, *-dor*, kabi qo‘shimchalarning sermahsulligini kuzatamiz. Mazkur qo‘shimchalarning har biri alohida leksik va morfologik xususiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Muhammad Pano(Fano)-bon qo‘shimchasi hozirgi fors, tojik, dariy tillarda quyidagi mazmunlarni ifodalaydi:

1. Shaxsning kasb-kori, mashg‘uloti turini anglatadi. Masalan, *bog‘bon*, *darbon* kabi.
2. Mansab nomlarini yasaydi: *marzbon*, *posbon*.
3. Fe‘lning o‘tgan zamon o‘zagiga qo‘shilgan holda ham kasb-kor nomini yasaydi: *didbon* kabi.

4. Narsa-buyum nomini yasaydi: *soyabon* kabi ¹⁴².

“Firdavs ul-iqbol”dagi ushbu qo‘shimcha yordamida yasalgan atoqli otlarga mansub so‘zlarni tahlil qilish orqali uning yangi vazifaviy jihatlarini ko‘rishimiz mumkin. *-bon* qo‘shimchasi “*saqlovchi, muhofaza qiluvchi*” ma’nosida “Avesto”da *rana* shaklida uchraydi. Sanskrit tilida ham xuddi shu shakl va ma’noni anglatadi. Mazkur qo‘shimcha pahlaviy tilida *pān* shaklida ishlatilgan ¹⁴³.

Mazkur so‘z arabcha *g‘aza غزي* – *hujum qilmoq, egallamoq* fe’lidan hosil bo‘lgan bo‘lib, aqsom bo‘yicha noqis (oxirgi o‘zagi illat harf) bo‘lgani bois uning aniq nisbat sifatdoshi yasalishida tovush o‘zgarishi hosil bo‘ladi. Ya’ni, noqis fe’llarning aniq nisbat sifatdoshi uning butunlay tushirib qoldirilib, o‘rniga “tanvin kasra” qo‘yish bilan hosil qilinadi. Lekin sifatdosh aniq holatga kelganida tanvin yo‘qolib, o‘rniga *ي* i harfi orttiriladi ¹⁴⁴. Demak, *g‘aza* fe’lidan *g‘ozi غازي* hosil bo‘ladi va u aniq holatda *الغازي alg‘ozi* shaklini oladi. O‘zbek tilida holat kategoriyasi bo‘lmagani bois u *g‘oziy* shaklida o‘zlashgan.

G‘oziyning lug‘aviy ma’nosi ismi fo’il anglatgan ma’noga ko‘ra “egallovchi”dir. *G‘oziy* “islom dini uchun g‘ayri dinlarga qarshi muqaddas urush – g‘azovot ishtirokchisi. Shariatga ko‘ra bunday urushda oti va qurol-yarog‘i bor har bir musulmon erkak qatnashishi shart bo‘lgan. Kambag‘allar, qullar, nogiron va keksa kishilar bundan ozod etilgan” ¹⁴⁵.

Ogahiy shahzoda Rahmonquli To‘raning Mashhadga hujumi borasida yozadi: Ul mav’eda kuffori fujjorning nahb va g‘orati uchun atrofu javonibg‘a ma’mur bo‘lg‘on *g‘oziy larkim*, ro‘zg‘or shuja’osining sarafroz va mumtozi erdilar, guruh-guruh o‘z sarkardasi bila bir tarafg‘a ilg‘or qilib erdilar.

G‘oziy bilan o‘zakdosh *g‘azot* yoki *g‘azovot* so‘zlari “din uchun kurash, islomda g‘ayridinlarga qarshi musulmonlarning muqaddaslashtirilgan urush”dir.

G‘ozi hozirda keng iste’molda emas. Bu so‘z *G‘ozi*, *G‘ozgon*, *G‘oziboy*

¹⁴² Zaboni adabii hozirai tochik. – S. 141.

¹⁴³ شمس الدين محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع . با اهتمام دکتر محمد معین . تهران . امیر کبیر . ۱۳۸۶ . جلد ۱ . ص ۲۲۸

¹⁴⁴ Arab tili grammatikasi. – B.150.

¹⁴⁵ Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug’ati. – B.138.

tarzlarida antroponimlarga ham asos bo'lgan¹⁴⁶.

Sherg'ozibek ibn Ahmadbek manqit (227), Sherg'ozixon (Xorazm xoni, 97, 98, 99, 101, 102, 106, 123, 124, 181, 199, 343,396), Sherg'ozixon ibn G'oyibxon (442, 443), Sherg'ozii sulton ibn Sultong'ozii sulton (431), Shohg'ozixon ibn Abulg'ozixonii Soniy (106, 108), Temurg'ozixon ibn Muhammadrahim sulton (106,107,108,109,112,125), sultong'ozii sulton ibn Elbarsxon (79,80,81), Ortuqg'ozixon (109),

Asarda uchraydigan oid antroponimlarni shu tarzda kichik guruhga ajratishimiz boisi shuki, ularda harbiy mazmun ustunlik qiladi. Jumladan, *g'azot* so'zi umuman jang, urush ma'nosini emas, balki din yo'lida olib borilgan jang, harbiy harakat ma'nosini ifodalaydi.

G'ozii so'zi *g'azovot* so'zi bilan o'zakdosh bo'lib, din yo'lidagi urush ishtirokchisidir. G'ayridinlarga qarshi urush ishtirokchisi *g'ozii* hisoblangan, bunday urushlar olib borgan, sarkardalik qilgan ba'zi podshohlar Abulg'ozii (aynan *g'ozii*ning otasi) laqabini olgan. Jumladan, Abulg'ozii Bahodirxon "Shajarai turk"da yozishicha, unga bu ism otasi Arabmuhammadxonning Kaspiy bo'yicha g'ayridinlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan qo'yilgan¹⁴⁷.

Amir أمير *amaro* - أمر - buyurmoq, farmoyish bermoq fe'lidani hosil bo'lgan bo'lib, *buyuruvchi*, *farmonravo* ma'nolarini ifodalaydi¹⁴⁸.

Tarixiy so'z sifatida *amir* bir necha ma'noni bildiradi:

1. Davlat tuzumi amirlik (amorat) bo'lgan davlatning boshlig'i, monarxi. Amorat – hokimlik, beklik, lashkarboshilik mansabi sohibi¹⁴⁹.

2. *Amir* so'zining ko'pligi *umaro* امراء bo'lib, "Firdavs ul-iqbol"da davlatning yuqori mansabli kishilari, beklar kabi ma'noni ifodalaydi.(422, 106, 46, 409, 195, 200-betlat).

Masalan, "...**Amir** qaroqalpoqni boshchi qilib, qazoq ustig'a namzod qildi"(422-b)

¹⁴⁶ Begmatov E. Ism chiroyi. – Toshkent: Fan, 1994. – B.117.

¹⁴⁷ Abulg'ozii Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent:CHo'lpon, 1992. – B. 167.

¹⁴⁸ Arabsko-ruskiy slovar. – S. 43-44.

¹⁴⁹ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. Birinchi tom. – Toshkent, 1983. – B.88.

3. *Amorat* soʻzi *amir* bilan oʻzakdosh va bu hol har ikkala soʻzning maʼnolarida ham koʻzga tashlanadi. *Amir* soʻzi baʼzan qisqargan holda *mir* shaklida ham qoʻllanilgan. Masalan, Amir Alisher Navoiy – Mir Alisher Navoiy. Amirning qisqartma shakli *miroxur*, *mirshikor*, *mirob* kabi soʻzlar tarkibida ham mavjud¹⁵⁰.

Amir (arab. – amr qiluvchi, boshliq, hokim) – lashkarboshi, hokim, bek. Arab xalifaligining dastlabki xalifalari va *umaviylar* davrida alohida qoʻshin qoʻmondonlari *amir* deb atalib, ular odatda zabt etilgan viloyatlarga noib etib tayinlanganlar. Xalifalarga Umar ibn al-Xattobdan boshlab «Amir al-moʻminin» («Moʻminlar Amiri») unvoni berilgan. *Abbosiylar* davrida *amir* odatda xalifalarning oliy hukmdor ekanligini tan olgan hokimlar, shuningdek xalifalikka nomigagina qaram boʻlgan sobiq noiblar (*agʻlabiylar*, *tuluniylar*, *tohiriylar*) yoxud qurol kuchi bilan oʻzlari davlat barpo etgan mustaqil hokimlar (*safforiylar*, *taznaviylar*, *buvayh-iylar*); ularni 10-a.da sultonlar deb ham atay boshlashgan. X asr oxiri – XI asr boshida *amir* deb turli tabaqaga mansub hokimlar va lashkarboshilar (*ayyubiylar*, *mamluklar* davlatlari va b.da) atalgan. Oʻrta asrlarda Movarounnahr xonliklarida *Amir ul-umaro*, *Amiri shikor* mansablari mavjud boʻlgan. Oltin Oʻrda, soʻngra Movarounnahr va Eronida moʻgʻullar istilosidan soʻng *Amir* deb *uluslar* boshliqlari atalgan (*bek* yoki *noʻyon* maʼnosida). Bu unvonni Amir Temur ham olgan; temuriylar sulolasiga mansub shahzodalar Amirzoda (amir oʻgʻli) deb atalib, *mirzo* uning qisqartirilgan shaklidir. XVIII asr oxiridan eʼtiboran *Buxoro xonligi* hukmdorlari oʻzlarini *amir* deb atay boshlaganlar. *Safaviylar* Eronida *amir* viloyat hokimlari (odatda qabila boshliqlari, xonlar va sultonlar), Afgʻonistonda *amir* unvonini barakzoilar sulolasi hukmdorlari *Doʻstmuhammadxon*dan boshlab olganlar. XX asrda monarxik arab davlatlarida (mas, Saudiya Arabistonida) *Amir* – hukmron sulolaning valiaxd shahzodalari.¹⁵¹

Amir komponentli yana bir soʻz bu *amir ul-umaro* aynan amirlar amiri

¹⁵⁰ Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lugʻati. – Toshkent, 1999. – B.77; Rustamov A. Soʻz xususida soʻz. – Toshkent, 1987. – B.133.

¹⁵¹ Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2000.

degani bo'lib, ikki arabcha so'zning arabiy izofa orqali birikishidan hosil qilingan va yuqori davlat lavozimlaridan birining nomidir. Mazkur so'zni Amir Alisher Navoiy, Abulg'ozir Bahodirxon asarlarida ham shu ma'noda uchratishimiz mumkin: "Mir Husayn Ali Jaloyir... Ali Jaloyirning o'g'lidurkim, otasi Yodgor Mirzo eshigida amir ul-umarodir¹⁵²", "... Tug'luq Temurxonni xonliq mansabida o'lturg'uzib erdi. O'zi *amir ul-umaro* erdi"¹⁵³.

Xiva xonligida amirul-umaro *biy* deb ham nomlangan. Buni "Firdavs ul-iqbol" asarida ham uchratishimiz mumkin.

3.2. Tub va yasama strukturali atoqli otlarning tarkibiy tahlili.

Nomlarni lingvistik, xususan, grammatik jihatdan tekshirish juda ko'p lisoniy masalalarni yoritishga, jumladan, tilimizdagi mavjud va ba'zi iste'moldan chiqqan affikslarni aniqlashga, shuningdek, so'z yasalishining qadimgi usullari va ba'zi fonetik hodisalarini aniqlashga yordam beradi.

Nomlar yaslash jarayonida fonetik strukturasida jihatdan o'zgarishga uchraydi: unli yoki undosh tovushlar tushadi, orttiriladi, natijada so'zlarning torayishi yoki kengayishi sodir bo'ladi, turli xildagi assimilyatsiya, metateza kabi fonetik hodisalar ro'y beradi. Bunday holatlarda nomlar strukturasida sodir bo'lgan fonetik o'zgarishlarning xarakterini belgilamoq va mazkur o'zgarishlarning sabablarini aniqlash kerak bo'ladi. Ana shu taqdirdagina nomlarning etimologiyasini belgilashga erishish mumkin. Masalan, Shovot toponimiyasi aslida Shohobod bo'lgan. Keyinchalik talaffuzda ikki unli orasida h tovushi tushgan, o-o unlilari qo'shilib cho'ziqlashgan, intervokal holatdagi b undoshi v undoshiga, so'z oxiridagi d undoshi esa t undoshiga o'zgargan, ya'ni Shoh-obod Sho/h/ obod-Sho:vot.

Nomlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish jarayonida ularning ma'nosida sodir bo'lgan o'zgarishlarni ham (semantik siljish, torayish, kengayish, arxaiklashish hodisalarini) ko'ramiz.

Atoqli otlar mazkur territoriyada yashovchi xalq tili leksikasida mavjud

¹⁵² Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Ilmiy tanqidiy matn. / Tuzuvchi: S.G'anieva. – Toshkent, 1961. – B.148.

¹⁵³ Abulg'ozir Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent, 1992. – B.93.

soʻzlar yoki boshqa tillardan kelib shu xalq tiliga oʻzlashib ketgan soʻzlar asosida vujudga keladi. Obyektlarni bir-biridan farqlash yoki nomlash, atash turli grammatik yoʻllar bilan amalga oshirilishi mumkin. Davr oʻtishi bilan har bir oʻzining toponim yasash modellari sistemasini hosil qiladi.

Toponimlarni morfologik jihatdan talqin qilish atoqli otlarning oʻziga xos lingvistik xususiyatlarini eʼtiborga olishni taqozo etadi. Avvalo atoqli otlar oʻz xarakteri bilan oddiy soʻzlardan farq qiladi. Soʻzning morfologik strukturasini aniqlash soʻz va morfemaning (oʻzak morfema va affiks morfema) oʻzak va negizning munosabatini belgilash, morfemalarning turli tipdagi strukturasini oʻrganishdan iborat boʻlsa, toponimlarning morfologik strukturasida bu protsess ancha murakkabdir. Nomlarning koʻpchiligi sinxron planda morfemalarga ajralmaydi. Ularning aksariyat koʻpchiligi tarixiy taraqqiyot jarayonida har xil fonetik va struktural oʻzgarishga uchragan.

Toponimlarning morfologik strukturasini aniqlashda tarixiy morfologik tadqiqotlar samarasini ham eʼtiborga olishimiz lozim. Nomlarning bunday tahlilida tarixiy morfologiya ham muhim omildir.

Oʻrni bilan shuni taʼkidlash kerakki, koʻpgina olimlar toponim, etnonim, gidronimlar tarkibidagi qoʻshimchalarni affiks deb hisoblaydilar. Toʻgʻri, oʻzbek tilining morfologik strukturasidagi asosiy xususiyat agglutinatsiyadir. Unda yasama soʻzlar va soʻz formalari oʻzakka maʼlum tartibda, izchillik koʻpgina toponimistlar oʻzak bilan toponimga asos boʻlgan qism bir-birga mos kelmasligini qayd qilgan, shu sababli *toponimik asos* termini ishlatiladi. Baʼzi nomlar asosga affikslar qoʻshish orqali hosil qilinadi.

Masalan, Hazorasp toponimi toponomistlar kitobida turli xil izohlangan. S. Qorayev oʻzining “Geografik nomlar siri” nomli kitobida Hazorasp shunday yaʼni “Hazorasp – qishloq, Xorazm viloyati Hazorasp tumani markazi. Dastlab Istarxiy (AGK, I. 244, 299, 301 va b betlar): Ibn Havqal (AGK, II, 350, 352, 400 va b betlar), Muqaddasiy (AGK, III, 49, 287, 289-va b betlar) asarlarida qayd qilingan. Hazorasp “ming ot” maʼnosini bildiradi degan rivoyat bor. Toponim qadimgi hazor xalqi nomi bilan atalgan deyish haqiqatga yaqindir”

izohlangan.

Z. Do'simov, X. Egamovlarning "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" kitobida ham shu va shunga o'xshash fikrlar mavjud. "Toponimning etimologiyasi haqida hozirgacha tadqiqotchilar tomonidan turli xil fikrlar bildirilib kelinadi. Bu fikrlarning aksariyat ko'pchiligida nomni ikki qismga bo'lib (ya'ni "Hazor" va Asp") tekshiradilar va shu asosda toponimning kelib chiqishini izohlaydi. Shulardan ba'zilarini keltiramiz. Professor Yahyo G'ulomovning yozishicha qal'ani bahaybat dev qurgan emish. Dev aldash yo'li bilan bu yerga suv ichgani keladigan mingta qanotli otni qo'lga kiritgan. Shundan so'ng ularning qanotini kesib o'ziga o'rgatgan. Shu otlarning nihoyatda yaxshi avlodlari tufayli shuhrat qozongan bu qal'ani Hazorasp, ya'ni "ming ot" deb atay boshlaganlar (Y. G'ulomov, 149).

A. R. Muhammadjonov hamda T. Ne'matovlar shu afsonaga asoslangan holda Hazorasp – "ming suvoriy beradigan ma'muriy territoriya ma'nosida bo'lsa kerak" degan fikrni aytadilar.

Toponim haqida Y. Jumanazarov shunday bir fikrni bildiradi. Hazorasp nomi asosida qabila nomi yotadi, ya'ni bu Hazora – os bo'lib, "os qabilasi" degan ma'noni anglatadi. Hazorasp formasi esa "ming ot" afsonasi asosida vujudga kelgan (Beruniy va Xorazmiy tili, j. "O'zbek tili va adabiyoti" Toshkent, 1973, 5. 22 – 23-bet).

Bu fikr haqiqatga ancha yaqin. Os qabilalarining Xorazm hududida yashaganligi haqida tarixiy ma'lumotlar bor. Shuningdek, Os qal'a, Oslar, Osyon kabi toponimlarning mavjudligi bu fikrni tasdiqlaydi. Ammo Beruniyning yozishicha, Os qabilalari eramizdan oldinoq shimolga ko'cha boshlagan. (Beruniy, I, III, 95).

Shunday ekan ilk o'rta asrlarga mansub bo'lgan Hazorasp qal'asining oslar shahri bo'lganligiga ishonish qiyin. Hazorasp toponimi Xorazm shevasi vakillari tilida Hazaris shaklida qo'llaniladi. Shuningdek, yozma manbalarda ham bu nom Xazaris, Xazarus, Azarus formalarida tilga olinadi.

Shunday qilib Hazorasp toponimi ikki komponentdan Hazoris (-us) Xazor

– xalq nomi, is-us” ko‘plik qo‘shimchasi shaklida yasalgan. Hazor so‘zining etimologiyasi haqida hozir biror aniq fikr aytish qiyin. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, osetin tilidagi xussar “janub, janubiy” so‘zi bilan ma’lum darajada aloqador bo‘lishi mumkin.

Shu kungacha o‘zbek tilshunosligida va ayrim turkiy tillar toponimiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda toponimlar yasalishi masalasi turlicha talqin qilinadi. Bu ayni vaqtda toponimlarning so‘z yasalish strukturasi, ularning yasalganligini belgilashda qator chalkashliklarga sabab bo‘lmoqda. Ko‘pgina affikslar asossiz ravishda toponim yasovchi qo‘shimchalar qatoriga kiritilmoqda. Xullas toponimlarning yasalishi masalasi hal qilinishi lozim bo‘lgan aktual muammolardan biridir.

Joy nomlarini so‘z yasalishi jihatidan tekshirar ekanmiz, avvalo atoqli otlarning o‘ziga xos bir qator semantik va grammatik xususiyatlarini e’tiborga olmoq zarurdir.

Darhaqiqat leksemalar atoqli otga aylangach, ularda qator o‘zgarishlar yuz beradi, jumladan, ular kategoriya jihatdan o‘zgaradi (boshqa leksik-grammatik gruppaga o‘tadi), sintaktik holatida o‘zgarish sodir bo‘ladi, semantik jihatidan ham o‘zgarishga (ma’no tarayish yoki maxsuslanishga) uchraydi, shuningdek ularning formalmorfologik xususiyati ham o‘zgaradi. Bu momentlar shubhasiz, toponimlar yasalishida, ularning yasalganligini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Shunday ekan, atoqli ot yasalishi so‘z yasalishi bilan ko‘pgina umumiy tomonlari bilan bog‘liq, bo‘lsa ham, ayni vaqtda toponim yasalishi xususiy belgilarga ham egadir.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida toponim, etnonimlarning yasalishi va ularning morfologik strukturasi o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda va shuningdek turli xududlarning toponimlarini tekshirgan dissertatsiyalarda toponim yasalishining ikki yo‘li – affikssatsiya va kompozitsiya usullari qayta-qayta qayd etildi. Ko‘pgina toponimik modellar hamda toponim yasovchi affikslar tavsiflanadi. Deyarlik barcha dissertatsiyalarda -liq -chi, -li, -lar kabi ko‘plab qo‘shimchalar toponim yasovchi affikslar qatoriga kiritiladi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, A.V. Superanskaya juda to'g'ri ko'rsatganidek, toponimlar yasashda tildagi barcha so'z yasovchi vositalar ham ishtirok eta olmaydi. So'z yasalishining boshqa usullari kabi toponimik konversiyada ham ma'lum bir qatlamdagi, ma'lum bir semantik xususiyatga ega so'zlarga toponimga aylana oladi, toponim yasashda ishtirok eta oladi. Masalan, kishi nomlari, etnik nomlar, toponimik indikatorlar joy nomlariga aylanishga moyil bo'ladi. Shuning uchun ham onomastik konvertsiya ko'pincha ichki xarakterda ya'ni bir so'z turkumi doirasida va hatto faqat atoqli otlar doirasida ham bo'lishi mumkin. Ko'pgina qo'shimchalar garchi toponimning yasashida bevosita ishtirok etmasa ham, mazkur so'zning joy nomi (umuman atoqli ot) ekanligini ko'rsatib turadi, unga ishora etadi. Ayniqsa o'rin bilan bog'liq ma'noni ifodalovchi, jamlik, ko'plik faoliyat biddiruvchi qo'shimchalar shunday xarakterga egadir. Ko'pchilik hollarda -chi, -lar, -liq -kash kabi qo'shimchalarning toponim yasovchi sifatida qaralishining boisi ham shundadir.

Ta'kidlaganimizdek, toponimlar tarkibida qo'shimchalar ma'nosi va funksiyasi jihatdan bir-biridan farqlanar ekan, ularni atamalar jihatdan ham farqlash maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, o'zbek tilida -iston, obod,- kant tipidagi qo'shimchalar borki, ular doimo joy nomi yasaydi.

Vaholanki, toponimlar tarkibida ishtirok etadigan qo'shimchalarning ko'pchiligi yasovchi element xarakteriga ega bo'lsa, ba'zilar faqatgina formal holatda bo'lib, o'zlarining yasovchilik ma'nosini saklamagan. Ular shu terminlarning mazmuniga to'la mos kelmaydi. Shuning uchun qayd etilgan xarakterdagi qo'shimchalarni toponim yasovchi affikslar deyish o'rinlidir.

-chi, -lar, -li kabi qo'shimchalarayrim hollarda toponim yasovchilarga yaqin tursa ham ular ko'pgina xususiyatlari va ko'lamiga ko'ra toponim yasovchilardan farq qiladi. Lekin "Firdavs ul -iqbol" asarida etnonimlarni ko'pchilikni yasashga xizmat qilgan: Bo'zachi¹⁵⁴, Adoqli (chovdur) (295, 321, 435, 437, 460-betlar), Ochomoyli (102, 364, 365, 369-betlar).

¹⁵⁴ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. "Firdavs ul-iqbol". Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2010. 460-bet

Asarda qo'shma nomlar ham anchani tashkil qiladi. Qo'shma nomlar kompozitsiya yo'li bilan ikki (yoki undan ortiq) so'zning qo'shilishidan hosil qilinadi. Demak ikki va undan ortiq so'zlar bir-biri bilan turli yo'llar asosida sintaktik munosabatga kirishadi. Ular ham tilimizda mavjud sintaktik modellar asosida vujudga keladi. Qo'shma nomlar komponentlari orasidagi munosabat turlicha, hamda atoqli ot komponentlarini tashkil etgan elementlar xam turli leksik-semantik gruppalariga aloqadordir. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, qo'shma toponim sostavidagi komponentlarning o'zaro munosabati shu tipdagi so'zlarga qarab tarixiy planda belgilanadi. Sinxron planda qaralganda «atoqli ot + obyekt» munosabati, shuningdek toponim va komponentlar aloqasi yo'q.

Chunki qo'shma toponimlar bir butun nominativ ma'no, bir murakkab tushuncha (obyektning belgisi orqali) ifodalashi va yaxlit shakllanishi grammatik strukturasining ham yaxlitligi bilan shuningdek fonetik butunligi (bir bosh urg'uga ega bo'lishi) bilan xarakterlanadi. Shunday ekan, u endi bir nom, obyektни bildiruvchi atoqli ot deb qaraladi. Uning qismlari orasida grammatik aloqa yo'q. Unda faqat semantik aloqa bor. Shunday ekan qo'shma toponimlar sostavidagi komponentlarning munosabati va leksik hamda grammatik ma'nolari tarixiy planda qaraladi. Ba'zi toponimlarni kuzatish shuni ko'rsatadiki, qo'shma toponimlar komponentlarining bog'lanish yullari, ularda bog'lanishning turli vositalari ishlatilishi ham bir xil emas. Ko'pgina komponentlar amorf (affikssiz) holatda bog'lanadi. (Astrobod(80, 81, 84, 97, 345, 431-b), Ishqobod, Oshiqobod (378-b) kabi) Komponentlarning bog'lanishi grammatik vosita orqali-affiks yordamida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari qo'shma toponimlar sostavidagi komponentlarning semantik munosabati ham turlicha. Masalan: toponim xoslik munosabatini ifodalashi mumkin, kishilarning etnik guruhiga munosabat (Gulbonbog' ko'li (134, 139-b) biror belgiga munosabat (Keng qayir (Yalang sangar) (278, 463-b), Qarobog' (75,355-b), Oqto'pa (435, 169-b) Xurosonda ham, Xorazmda ham shunday joy mavjud) va boshqalar

Toponimlar tarkibida bunday semantik munosabat birinchi komponent yordamida ikkinchisi va shu orqali toponimning mazmunini aniqlashtiradi, mazkur obyekt to'g'risida ma'lumot beradi.

Mavjud semantik munosabat yasalish modelini belgelaydi. Xoslik ifodalash uchun albatta ot + ot modeli, belgi ifodalashda sifat + ot va h.k. modellar qo'llaniladi. Umuman qo'shma nomlarning yasalish tiplari va modellari turlichadir.

“Firdavs ul-iqbol” onomastikasini yasalish xususiyatlariga ko'ra ikkiga ajratish mumkin:

- tub strukturali atoqli otlar: Saroy (76,77,117 – 119-b), Tabriz (76,77,142-b), Shayx (91-b)Qarshi (89, 102-b), Temur (67-b) O'kuz (yavmut199, 200-b).
- yasama strukturali atoqli otlar: Sirchali (328, 394-b), Qarodoshli (448, 484-b), Tevachi (80-b), Ko'ko'zakli (qo'ngrot 369-b) va b.

Har bir davr atoqli otlarning vujudga kelishida o'z izini qoldiradi. Joy nomlari shu davrning ijtimoiy munosabatlari, kishilarning dunyoqarashi kabi faktorlar natijasida paydo bo'ladi. Masalan, etnik nomlar bilan ataluvchi toponimlarni xalqimizning urug', qabilachilik davri mahsuli yoki shu davrga xos yasalish usuli deb qaramoq kerak.

Kuzatishlarimizga qaraganda “Firdavs ul-iqbol” onomastikasi uchun affiksatsiya usulida yasalgan atoqli otlar unchalik xarakterli emas. Asarda yasama strukturali atoqli otlarning ba'zi namunalarigina uchraydi. Masalan:

- chi qo'shimchali: *Ayochi, Aynalchi, Yomg'irchi, Turumchi*;
- chiq qo'shimchali: *Bavarchiq*;
- toy qo'shimchali: *Aqatoy, Mangutoy, Mingtoy*;
- cha qo'shimchali: *Baroqcha, Bug'cha, Ko'kcha, Mangucha*;
- g'on qo'shimchali: *Baqirg'an, Dorug'an*;
- lik// luk; liq// luq qo'shimchali: *Kuchluk, Olmaliq, Tomliq, qarluq, Uskunluk*;
- kay qo'shimchali: *Ogakay*;
- mish // mush qo'shimchali *Sotilmish(xotun), To'ramish, To'xtamish*;

-li qo'shimchali: *Turbatli, Chibiqli*(pahlavon), *qiniqli*;

-iston qo'shimchali: *Turkiston, Hindiston* va b.

Qayd qilingan atoqli otlar turkiy, jumladan o'zbek tilida yasalgan atoqli otlardir. "Firdavs ul-iqbol"da ajnabiy tillarga mansub, ammo asar tilida iste'molda bo'lgan anchagina nomlar mavjud. Bu nomlar asar tiliga Munis va Ogahiyilar tahlil qilgan voqea-hodisalar munosabati bilan kirib kelgan va yasaliş strukturasi hamda aslida qaysi tilning lisoniy mahsuli ekaniga ko'ra mo'g'ul, arab, fors-tojik tillariga mansubdir. Bunday nomlarning asosiy tiplari quyidagilar:

1. Arabcha qo'shma antroponimlar: *Abdulloh, Abdulmo'min, Abdulmuhammad, Abusayid, Dinmuhammad, Ziyoulmulk, Ibodulla, Ixtiyoruddin, Abu Bakr, Muboriziddin* va b.

2. Mo'g'ulcha qo'shma antroponim va toponimlar: *Kanduchana, Kundaytu, Aydiqut, Barsachar, Batkulki, Bo'rtaquchin, Debboqo'yxon, Duychechan, Do'bunbayon, Jo'jibug'a*(antroponimlar); *Arqanaqun, Burquchin, Mavbalig', Namanqahra, O'rmanqut*(toponimlar).

3. Mo'g'ulcha qo'shma etnonimlar: *qo'rlavut, tulangut, tusbuday, Chalchut, qo'niqqimar*.

4. Fors-tojikcha qo'shma toponim va antroponimlar: *Andareb, Asfaroyin, Bog'i xurram, Gandumkon, Gulbanbog', Darband, Murg'ob, Mozandaron, Nishopur, Chahorjo'y* (toponimlar); *Asfandiyor, Juvonmard, Mehrbonu* (antroponimlar).

O'zbek adabiy tili va shevalarida substrat qatlamga mansub atoqli otlar salmoqli o'rin tutadi. Eroniy tillar va turkiy tillar genetikasi turlicha bo'lsa ham, hayotiy zarurat, madaniy-adabiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida eroniy o'zlashmalar miqdorini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi¹⁵⁵.

Bundan tashqari, "Firdavs ul-iqbol" leksofondida substrat qatlamga oid

¹⁵⁵ Usmonov S. O'zbek tilining lug'at sostavida tojikcha-forscha va arabcha so'zlar // Navoiyga armug'on. – Toshkent: Fan, 1968. – B.109; Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent, 1985. – B.103-115.

soʻzlar ham koʻzga tashlanadi. Z. Doʻsimov taʼkidlaganidek, “Xorazm shevalarining leksikasi hozircha bizga aniq boʻlmagan leksik qatlamga egadirki, bunday soʻzlar qadimgi xorazmliklar tilidan kirib qolgan deb taxmin qilinadi”¹⁵⁶. Bu masalaga oʻz vaqtida F. Abdullaev, A. Ishaev, O. Madrahimov kabi olimlar ham eʼtibor qaratgan edilar¹⁵⁷.

Tarixan eroniy qatlamga mansub atoqli otlar xususida quyidagi umumiy xulosalarni bayon qilish mumkin:

Turkiy xalqlarning uzoq yillar davomida eroniy xalqlar bilan boʻlgan yaqin qoʻshnichilik aloqalari yoki bir hududda yashaganligi, tariximizning salmoqli vaqtlarida bir davlat tarkibida boʻlganliklari tillarning oʻzaro taʼsir doirasini kengaytirgan.

Munis va Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asari Xiva xonligi tarixi tarkibida boʻlganligi sababli ham unda oʻsha davr xonlikdagi atoqli otlar qoʻllanilgan. Mazkur xonlikdagi koʻpgina atoqli otlar arab lugʻaviy qatlamiga mansubdir, bu esa asarlarda oʻz aksini topgan. “Firdavs ul-iqbol”da atoqli otlar doirasidagi baʼzi arabiy soʻzlar asl turkiy soʻzlarga sinonim vazifasini bajaradi. Oʻzlashma soʻzlarga mansub ayrim antroponimlar islom dini, uning aqida va eʼtiqodiy jihatlari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, ularda diniy mazmun ustunlik qiladi. Shuning uchun ularni diniy mazmundagi antroponimlar tarzida alohida bir guruhga ajaratishni lozim topdik. Eroniy qatlamga mansub atoqli otlarni tarkib jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin: Tub nomlar, Yasama nomlar.

Faqat oʻzak morfemadan iborat boʻlib, tarkibida yasovchi qoʻshimcha mavjud boʻlmagan soʻzlar tub soʻzlar hisoblanadi. Masalan, *shoh*, *sipoh* kabi. Lekin, taʼkidlash lozimki, baʼzida sinxron aspektda tub deb qaralgan atoqli otlar diaxron nuqtayi nazardan qaraganda yasama boʻlib chiqadi. Eroniy tillarda ot yasalishida morfologik usul ancha sermahsul boʻlib, oʻzakka suffiks va prefikslarni qoʻshish orqali yangi soʻzlarni yuzaga keltiradi. Shunga koʻra morfologik usulda yasalgan atoqli otlarni suffikslar orqali hamda prefikslar

¹⁵⁶ Doʻsimov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B.11.

¹⁵⁷ Abdullaev F.A. Xorazm shevalari. –B.236; Ishaev A. Iz leksiki uzbekskix govorov Karakalpaki // Vopros tyurkologii. – Tashkent: 1965. –S.112-113; Madrahimov A. Issledovanie po leksike oguzskogo narechiya uzbekskogo yazika: Avtoref. diss. ... d-ra filol. nauk. – Tashkent, 1978. – S.18-19.

orqali yasalgan atoqli otlar kabi ikki guruhga ajratish mumkin:

Eroniy qatlamga mansub atoqli otlarning ayrimlari fonetik variantlarda ishlatilgan. Ulardan ba'zilar hozirgi o'zbek adabiy tilida faol ishlatiladi. Shu bilan birga ushbu atoqli otlarning asarda anglatgan ma'nolari hozirgi o'zbek adabiy tilida anglatgan ma'nolaridan farq qiladi. Bu so'zlarning ko'pchiligi sinxron jihatdan sodda tub nom hisoblansa ham, etimologik tahlil ularning aksariyati tarixan yasama atoqli ot ekanini ko'rsatdi.

Ko'rinadiki, atoqli otlarning tahlili ham turkiy va eroniy (xususan, fors, tojik, dariy) tillarining bir-birlariga samarali ta'sirini ko'rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi. "Firdavs ul-iqbol"dagi turkiy qatlamga mansub atoqli otlarning aksariyati etimologik jihatdan qadimgi turkiy asoslardan tashkil topgan.

III bob yuzasidan xulosalar

“Firdavs ul-iqbol” tilidagi atoqli otlarni morfem tarkibiga ko‘ra bir qancha guruhlarga ajraladi. Bir morfemali nomlar esa ikki guruhga bo‘lib misollar orqali yoritib berildi.

Munis va Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asari Xiva xonligi tarixi tarkibida bo‘lganligi sababli ham unda o‘sha davr xonlikdagi atoqli otlar qo‘llanilgan. Mazkur xonlikdagi ko‘pgina atoqli otlar arab lug‘aviy qatlamiga mansubdir, bu esa asarlarda o‘z aksini topgan. “Firdavs ul-iqbol”da atoqli otlar doirasidagi ba’zi arabiy so‘zlar asl turkiy so‘zlarga sinonim vazifasini bajaradi. O‘zlashma so‘zlarga mansub ayrim antroponimlar islom dini, uning aqida va e’tiqodiy jihatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularda diniy mazmun ustunlik qiladi.

“Firdavs ul-iqbol” onomastikasini yasaliş xususiyatlariga ko‘ra ikkiga ajratib ko‘rsatilgan.

Tahlilga tortilgan atoqli otlarning ayrimlarini sinxron jihatdan ma’noli qismlarga ajratish mumkin. Bu holda ular arabcha+forscha, forsha+forscha tarzida hosil qilingan.

Ushbu to‘plamga mansub so‘zlar ichida substrat sifatida qarashga mumkin bo‘lganlari ham uchraydi.

Asar leksikasida eroniy qatlamga mansub aksar atoqli otlarning turkiy muqobili ishlatilganini Munis va Ogahiylarning o‘zlashma so‘zlardan foydalanish mahorati mezonlaridan biri deb qarash mumkin.

Arab lug‘aviy qatlamiga mansub ko‘pchilik atoqli otlarning ham turkiy muqobili ishlatilgan. Turkiy muqobilga ega bo‘lmagan atoqli otlarning aksariyatini diniy mazmundagi o‘zlashma so‘zlar tashkil qiladi.

Atoqli otlarning tahlili ham turkiy va eroniy (xususan, fors, tojik, dariy) tillarining bir-birlariga samarali ta’sirini ko‘rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi. “Firdavs ul-iqbol”dagi turkiy qatlamga mansub atoqli otlarning aksariyati etimologik jihatdan qadimgi turkiy asoslardan tashkil topgan.

Xulosa

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, tarixiy asarlarni o'rganish boshlandi. "Firdavs ul-iqbol" asarining chet el olimlari tomonidan turli munosabat bilan o'rganilganligi ochib berilgan.

"Firdavs ul-iqbol" asaridagi tarixiy nomlar – antroponim va toponimlar bugungi kunga qadar tadqiq qilinmagan.

Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo'limlardan iborat:

Har qanday tildagi atoqli otlar tizimini, uning umumiy majmuini uch xil yo'sinda baholash mumkin:

1. Sinxronik – zamonaviy holati asosida;
2. Diaxronik, ya'ni tarixiy holatiga ko'ra;
3. Ham sinxronik, ham diaxronik holatga ko'ra, ya'ni umumiy tarzda olingan holatda.

Asar antroponimlarini o'rganish jarayonida, dastlab, ularni qaysi tilga mansubligiga qarab guruhlab chiqdik:

Asarda qo'shma ismlar ham berilgan. Qo'shma ismlarni tashkil qiluvchi qismlar etimologik jihatdan boshqa-boshqa manbaga mansub bo'ladi.

Munis va Ogahiy ba'zi toponimlarni ifodalashda sinonim sifatida ularning arabchasini qo'llaydilar.

Ma'lumki, diniy mazmundagi ko'pchilik atoqli otlar arab tilidan o'zlashgan. Lekin ushbu mavzudagi so'zlar ichida eroniy qatlamga mansublari ham ko'plab uchraydiki, ularning ildizini "Avesto"dan axtarish o'rinlidir.

Nom ko'chishi orqali ma'no kengayishini kuzatishimiz mumkin. Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq bir qancha bo'limlar orqali ko'rsatilgan.

Asar juda ko'p davrni o'z ichiga qamrab oladi. Aksariyat nomlarning arab tiliga mansubligini mazkur bobda turli misollar orqali ko'rsatib berilgan.

Asarda 2500 dan ortiq atoqli ot mavjud. Ulardan 1504 tasi antroponimlar, 760 tasi toponimlar, 282 tasi etnonimlar, 100 ga yaqini gidronimlardir.

“Firdavs ul-iqbol” asarida juda ko‘plab onomastik material uchratiladi. Ayniqsa, asar antroponomikasi o‘sha davr tarixining yaqqol namunasidir. Asar tilida uchraydigan antroponimlarni qanday obyektни anglatishiga ko‘ra tasniflab berilgan.

Asarda arab tili, eroniy, turkiy, mo‘g‘ul va boshqa bir qancha tillarga oid antroponimlarni uchratish mumkin.

“Firdas ul-iqbol”da 130 dan ortiq laqablar va laqab vazifasida keluvchi ko‘pgina etnonimlar, unvon va mansab nomlari, siyosiy, diniy titullar uchraydi.

“Firdavs ul iqbol” asarini chuqur o‘rganish jarayonida, aynan o‘sha davrdagi toponimlarga alohida e‘tibor qaratilgan. Chunki ming yillik tarixga ega toponimlarni faqat tarixda emas, bugungi kunning asosiy joy nomlari ekanligini yosh avlod ongiga singdirish mumkin.

Asar tilida uchraydigan toponimlarni funksional-nominativ ko‘lamiga ko‘ra guruhlariga ajratib, izohlab, ko‘rsatib berilgan.

Asar toponimlarini nomlanish asosiga ko‘ra, shartli ravishda tabiiy-jug‘rofiy xususiyat ifoda qiluvchi, shaxs nomlari asosida hosil qilingan toponimlar, nomlanish asosi noaniq toponimlar kabi guruhlariga bo‘lingan.

“Firdavs ul-iqbol”da shaxs nomlari bilan ataluvchi oronimlar ham uchraydi.

Asardagi gidronimlarni ular tarkibida ishtirok etgan indikatorlarning turiga ko‘ra bir qancha guruhlariga ajratib berildi.

“Firdavs ul-iqbol”da uchraydigan etnonimlar lug‘aviy tarkibiga ko‘ra ikki xil.

Asarda ishlatilgan etnonimlarning ko‘pchiligi aslida (tarixan ham) xalq, el, urug‘ yoki nasab ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar bo‘lgan. “Firdavs ul-iqbol” tilida uchraydigan etnonimlarning ayrimlari laqablardan kelib chiqqan. Munis va Ogahiylar o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub bir qator etnonimlarning ma’nolarini izohlagan. Bunday izohlar ko‘p holda ilmiy jihatdan munozarali bo‘lsa-da, nomlarni talqin etish va tushunishning bir ko‘rinishi sifatida diqqatga molikdir. “Firdavs ul-iqbol”da o‘z ifodasini topgan bunday nom va atamalarning

ko'pchiligi mo'g'ul tiliga mansub.

“Firdavs ul-iqbol” tilidagi atoqli otlarni morfem tarkibiga ko'ra bir qancha guruhlarga ajraladi. Bir morfemali nomlar esa ikki guruhga bo'lib misollar orqali yoritib berildi.

Munis va Ogahiylarning “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asari Xiva xonligi tarixi tarkibida bo'lganligi sababli ham unda o'sha davr xonlikdagi atoqli otlar qo'llanilgan. Mazkur xonlikdagi ko'pgina atoqli otlar arab lug'aviy qatlamiga mansubdir, bu esa asarlarda o'z aksini topgan. “Firdavs ul-iqbol”da atoqli otlar doirasidagi ba'zi arabiy so'zlar asl turkiy so'zlarga sinonim vazifasini bajaradi. O'zlashma so'zlarga mansub ayrim antroponimlar islom dini, uning aqida va e'tiqodiy jihatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularda diniy mazmun ustunlik qiladi.

“Firdavs ul-iqbol” onomastikasini yasaliş xususiyatlariga ko'ra ikkiga ajratib ko'rsatilgan.

Tahlilga tortilgan atoqli otlarning ayrimlarini sinxron jihatdan ma'noli qismlarga ajratish mumkin. Bu holda ular arabcha+forscha, forscha+forscha tarzida hosil qilingan.

Ushbu to'plamga mansub so'zlar ichida substrat sifatida qarashga mumkin bo'lganlari ham uchraydi.

Asar leksikasida eroniy qatlamga mansub aksar atoqli otlarning turkiy muqobili ishlatilganini Munis va Ogahiylarning o'zlashma so'zlardan foydalanish mahorati mezonlaridan biri deb qarash mumkin.

Arab lug'aviy qatlamiga mansub ko'pchilik atoqli otlarning ham turkiy muqobili ishlatilgan. Turkiy muqobilga ega bo'lmagan atoqli otlarning aksariyatini diniy mazmundagi o'zlashma so'zlar tashkil qiladi.

Atoqli otlarning tahlili ham turkiy va eroniy (xususan, fors, tojik, dariy) tillarining bir-birlariga samarali ta'sirini ko'rsatuvchi muhim faktlar taqdim etadi. “Firdavs ul-iqbol”dagi turkiy qatlamga mansub atoqli otlarning aksariyati etimologik jihatdan qadimgi turkiy asoslardan tashkil topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi // Xalq so'zi. – Toshkent, 1997 yil. – 21 oktyabr.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998.- 31 b.
3. Karimov I. A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi I-sessiyasida so'zlangan nutq. 1990 yil, 24-mart.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008, 90-bet.
5. Abbosiy Muhammad. Farhang-i nomho-i Ironi. Tehron. 1966
6. Abdullaev A. A. Nazvaniya lits, obrazovanniye ot geograficheskix imen i terminov, v russkom yazike XV-XVIII vv. Avtoref. kand. diss. – M. 1968. – s. 11,13.
7. Amid Hasan. Farhang-I bo'zo'rg-I du jild-I mo'sovar-I forsi ba forsi. J.1-2. Tehron. 1958.
8. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Ilmiy tanqidiy matn. / Tuzuvchi: S.G'anieva. – Toshkent, 1961. – B.148.
9. Abulg'ozil Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent, 1992. – B.93.
10. Abdullaev F.A. Xorazm shevalari. –B.236; Ishaev A. Iz leksiki uzbekskix govorov Karakalpaki // Vopros tyurkologii. – Tashkent: 1965. –S.112-113;
11. Ahmedov T. Munis. Fan.,Toshkent, 1980. 3-bet.
12. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. Birinchi tom. – Toshkent, 1983. – B.88.
13. Arabsko-russkiy slovar. – S. 43-44.
14. Arab tili grammatikasi. – B.150.
15. Abulg'ozil Bahodirxon. Shajarai turk. – Toshkent: Cho'lpon, 1992. – B. 167.

- 16 Alikulov T. Polisemiya sushestvitelnix v uzbekskom yazike: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. –Tashkent, 1966.
- 17 Alimova H. “Tavorix-i guzida” – Nusratnoma”da urug‘ va qabila nomlarini bildiruvchi so‘zlar haqida . Adabiy meros. Ilmiy asarlar to‘plami. (4)58, 1991.
- 18 A. Primov. XIX asr Xiva xonligi hujjatlaridagi atoqli otlar haqida Ilm sarchashmalari. 4-son 2011.
- 19 Baskakov N.A. Titul i zvaniya v sotsialnoy strukture bvshego Xivinskogo xanstva// Sovetskaya tyurkologiya. – 1989. – №1. – S.69.
- 20 Baranov X.K. Arabsko-russkiy slovar. – M.: Russkiy yazk, 1983.–S. 442
- 21 Bartold V.V. Cochineniya. IX tom. M., 1977. S. 444.
- 22 Begmatov E. Ism chiroyi. – Toshkent: Fan, 1994. – B.117.
- 23 Begmatov E. O‘zbek ismlari. Toshkent, 2010, 567-bet.
- 24 Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – B.55-56.
- 25 Begmatov E., Husanov N., Yoqubov Sh., Boqiev B. O‘zbek tarixiy nomshunosligining dolzarb muammolari. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1992, 5,6-sonlar, 21-bet.
- 26 Begmatov Ernst. Etnonimlarning til onomastik tizimiga munosabati. Xorazm Ma’mun akademiyasining axborotnomasi. 2(3). 2007. 53 – 59-b.
- 27 Boymuratova X. “Firdavs ul-iqbol” asaridagi toponimlarning funksional-nominativ ko‘lamiga ko‘ra turlari”. Urganch, 2013.
- 28 Boymuratova X. “Firdavs ul-iqbol” asarida ayrim antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari”. Urganch, 2012.
- 29 Boymuratova X. “Firdavs ul-iqbol” dagi toponimlarning tavsifi xususida”. Filologik tadqiqotlar. Urganch. 2013.
- 30 B. Qilichev. O‘rin-joy semali otlar vositasida yasalgan toponimlar. Ilm sarchashmalari. 2008-1.
- 31 Dadaboev H. Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi xususida // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami) №3. – Toshkent, 2009. –B. 21-24.

- 32 Do'simov Z. Ogahiyning "Zubdat ut-tavorix" asarining leksik-grammatik xususiyatlari haqida // Ogahiy abadiyati. –Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 37-41.
- 33 Do'simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985. – B.11.
- 34 D. Yuldoshev. Janubiy Qoraqalpog'iston toponimlari tizimida eroniy tillarga tegishli elementlar. 4-son. 2009. 85 – 89-b.
- 35 Etnonim. – M.: Nauka, 1970.; Qoraev S. Etnonimika. Toshkent: O'zbekiston, 1979. 10-11-b.
- 36 E. M. Muravyev. Ocherki toponomiki, M., 1974.
- 37 E. Begmatov. Kishi nomlarining ma'nolariga doir. O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 6-son, 1962. 50 – 54-b.
- 38 Gafurov A.G. Imya I istotiya: Ob imenax arabov, persov, tadjikov I tyurkov. /Slovar/ Moskva. Nauka. 1987.
- 39 Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1965.
- 40 H. Hasanov. Geografik nomlar siri. Toshkent: O'zbekiston, 1985.
- 41 Ibrohimov N. Yusupov M. Arab tili grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 1997. – B. 175.
- 42 Ilizarov A. S., Starostin B.A. O vnutrenney forme I proisxojdenii arabskix imyen.-Lichniye imena v proshlom, nastoyashem, budushem. Moskva. 1970.
- 43 Jo'raev B. "Bosh" so'zining ma'nolari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1982. – №3. – B. 46-49.
- 44 Janoh ut-tolib. Arab tili sarf fanidan darslik. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B.39.
- 45 Jalilov. O. XIX – XX asr boshlaridagi qoraqalpoqlar tarixiga oid muhim hujjatlar. T: Fan. 1977.
- 46 Karaev S.K. Opt izucheniya toponimii Uzbekistana: Avtoref. dis... kand. Filol. Nauk. – Tashkent, 1969.
- 47 Kalepesova YU.N. Proviuca v sisteme karakalpaskoy antroponimii // Avtoref. kand. filol. nauk. – Nukus, 1995.

- 48 Kurilovich Ye. Polojenije imeni sobstvennogo v yazike. – Ocherki po lingvistike. Moskva. 1962.
- 49 Lunin B.V. Proshloe i nastoyashee Xorezma v nauke. Istoriya Xorezma. Tashkent, 1976. S. 6
- 50 Madrahimov O. O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining kichqacha qiyosiy lug‘ati. Urganch, “Xorazm”, 1999.
- 51 Madraximov A. Issledovanie po leksike oguzskogo narechiya uzbekskogo yazika: Avtoref. diss. ... d-ra filol. nauk. – Tashkent, 1978. – S.18-19.
- 52 «Material po istorii karakalpakov». Sbornik. M.—L., 1935, str. 91—127; P. P. Ivanov. Xivinskie xroniki XIX v. Munisa-Agexi kak istochnik po istorii turkmen. MITT, II, str. 23—25; Material po istorii Kazaxskix xanstv. XV-XVIII vv, str. 435-475.
- 53 Mo‘minova A. O‘zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tahlili: Filol. fanl. nomz. diss. – Toshkent, 2000. – B.29-33.
- 54 Muxtasar. Arabchadan R.Zohid va A.Dehqon tarjimasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1993. – B. 303.
- 55 Munis va Ogahiy “Firdavs ul-iqbol”. –Toshkent: YAngi asr avlodi, 2010, 101-bet.
- 56 Materiali po istorii Kazaxskix xanstv. XV-XVIII vv. S. 435-475.
- 57 Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Shohid ul-iqbol. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi N. Shodmonov. – T: Muharrir, 2009. – 335 b.
- 58 Munirov. Q. Xorazmda tarixnavislik. 37-b.
- 59 Nikonov V.A. Imya i obshestvo. Moskva. 1976.
- 60 Nihoiy Husayn. Nom-noma. Majmua-ue nomho-ue zibo-ue Ironi. Tehron. 1957.
- 61 Onomastika i grammatika. Moskva. Nauka. 1981.
- 62 Onomastika i norma. Moskva. Nauka. 1976.
- 63 Onomastika. Tipologiya. Stratigrafiya. Moskva. Nauka. 1988.

- 64 Ogahiy asarlarining tavsifi. Katalog // Tuzuvchi: F.G'anixo'jaev. – T.: O'zRFA QI, 1986. – B. 31.
- 65 Porotnikov P.T. Antroponimiya zamknutoy territorii. Avtoref. kand. diss. Kazan. 1972.
- 66 Persidsko-russkiy slovar. Tom 1. – M.: 1983. Russkiy yazik. – S. 165
- 67 Persidsko-russkiy slovar. Tom 2. – M.: 1983. Russkiy yazik – S.26-28, 356-b
- 68 P. P. Ivanov. Ocherk istorii karakalpakov. V kn.: «Material po istorii karakalpakov», str. 323—426.
- 69 Qotiraiy Mahmud. Az xisht to xisht. Tehron. 1969.
- Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent, 1987. – B.133.
- 70 Rahmonov T.I. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar. Nomz. diss. avtoreferati. T., 1994.
- 71 Roziy Hoshim. Farhang-i nomho-i Avesta. J. 1-3. Tehron. 1967.
- 72 Ro'zimboev S., Ahmedov A. “Firdavs ul-iqbol ”dagi adabiy janrlar haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: Fan, 2009. – №6. – B.19-25.
- 73 Sistemi lichnix imyon g narodov mira. Moskva. Nauka. 1989.
- 74 Slovar russkix lichnix imyon. “SE”. Moskva. 1966.
- 75 Stalmane V. Obzor dissertatsionnix rabot po sovetsoy onomastike. /Onomastika I norma. Moskva. Nauka. 1976. s.254.
- 76 SbP filial arxiva RAN. Fond 68, opis 1. Ed. x. №179. 302 ll.
- 77 Starostin B.A. O strukture i istoricheskoy razvitiy antroponomii arabskoy proisxojdeniya.-Antroponimika. Moskva. 1970.
- 78 Sredney Azii XV-XIX vv) Sankt-Peterburg 2005.
- 79 Sultanov T.I. Zerkalo minuvshix stoletiy (Istoricheskaya kniga v kulture
- 80 Sulstonova Q. Ogahiyning “Gulshani davlat” asari adabiy manba sifatida: filol. fan. nomzodi ... diss-ya. – Toshkent: O'zR FA TAI, 2000. – 138 b.;
- 81 Sulstonova Q. “Gulshani davlat” asarida saj' // Xorazm Ma'mun akademiyasining axborotnomasi. – Xiva, 2010. – №3, 4. – B. 41-50.

- 82 Superanskaya A. V. Apelyativ-onoma/ Imya naritsatelnoe I sobstvennoe. – M.: Nauka, S.6.
- 83 Talabov E. Arab tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. –B.34.
- 84 Teoriya i metodika onomasticheskix issledovaniy. – M.: Nauka, 1986. S. 10.
- 85 T.M.To‘raevich, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari onomastikasi, avtoreferat. T. 2001 15-bet
- 86 Tillaeva M. Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – 26 b.
- 87 Tursunova O. Umumturkiy tarixiy-huquqiy atamalarning semantik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti, – 2006. – №5. – B.93.
- 88 Q. Masharipov, M. Rajabova. Xorazm vohasi shaharlari tarixini o‘rganishda mahalliy toponimlarning o‘rni. Ilm sarchashmalari. 3.2003. 51 – 52-b.
- 89 Usmonov S. O‘zbek tilining lug‘at sostavida tojikcha-forscha va arabcha so‘zlar // Navoiyga armug‘on. – Toshkent: Fan, 1968. – B.109;
- 90 Veselovskiy S.B. Onomastikon. Moskva. 1974.
- 91 Xorazm tarixi. Urganch, 1996, 204-bet.
- 92 Zaboni adabii hozirai tojik. – S. 141.
- 93 Z. Do‘simov, X. Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”. 1977.
- 94 O‘rozboev A. Ogahiyning «Riyoz ud-davla» asarining ijtimoiy-siyosiy leksikasi. Filol. fanlar. nomz. diss. Avtoref.– Toshkent, 2009. – 25 b.
- 95 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild.2006.
- 96 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild.2006.
- 97 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3-jild.2007.
- 98 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild.2008.
- 99 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild.2008.
- 100 O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2000.

- 101 Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2010.
- 102 Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. “Firdavs ul-iqbol”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2010.
- 103 XV-XIX asrlar o‘zbek tili morfologiyasi. –Toshkent, 1990. – 254 b.
- 104 Chernyaxovskaya E.M. Istoriya razrabotki toponimicheskix klassifikatsiy // Razvitie metodov toponimicheskix issledovaniy. – M.: Nauka, 1970. S. 55-65.
- 105 Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha izohli lug‘ati. – B.138.
- 106 Yo‘ldoshev D. Janubiy Qoraqalpog‘iston toponimlari tarkibida dar komponenti. Ilm sarchashmalari. 2009-5.
- 107 www.ta'lim.uz
- 108 [www.talant.spb.ru/G`wald.html](http://www.talant.spb.ru/G`wald.html)
- 109 [www.obrozavaniye .ru](http://www.obrozavaniye.ru)
- 110 www.search.re.uz - O‘zbekistonning axborotlarni izlab topish tizimi
- 111 www.ziyonet.uz